


A. Abdusamatov, R. Mirzayev, R. Ziyayev

# ORGANIK KIMYO

Akademik litsey va kasb-hunar  
kollejlari uchun





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

*A. Abdusamatov, R. Mirzayev, R. Ziyayev*

# ORGANIK KIMYO

*Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari  
uchun o'quv qo'llanma*

6-nashri

TOSHKENT-2017

UO'K 547(075)

KBK 24.2ya 722

A 15

**Taqrizchi — akademik A. A. ABDUVAHOBOV**

Ushbu qo'llanma akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan o'quv dasturi asosida yozilgan. Qo'llanmada organik kimyoning nazariy qismi, organik hirikmalarning sinflar bo'yicha nomenklaturasi, olinishi, fizik-kimyoviy xossalari va xalq xo'jaligida ishlatalishi yorilgan.

Mazkur kitobda organik kimyoning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan jahon hamda O'zbekiston kimyogarlarining ishlari aks ettirilgan va organik birikmalarning O'zbekistondagi asosiy tabiiy manbalari, ularni qayta ishlash yo'li bilan olingan mahsulotlarning ishlatalishi ko'rsatilgan.

Qo'llanma akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo'ljalangan.

SURDO-MURAD O'ZBEK  
TECHNOLOGY CENTER

ISBN 978-9943-02-827-2 / 494

366ey 8

© -O'qituvchi- NMIU, 2004

© -O'qituvchi- NMIU, 2012



O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta‘lim sohasidagi Qarorlari asosida respublikamizning akademik litsey va kollejlarida hozirgi zamon talablariga javob beradigan o‘quvchilar va kasb-hunar ta’limi mutaxassislari tayyorlanmoqda. Bu qarorlarda o‘quvchilarning milliy, ma’naviy-ma’risiy o‘zligini anglashi, zamonaviy-iqtisodiy tafakkurini o‘z faoliyatiga tatbiq eta olishi, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullarini yaxshi bilishi, fanlarni to‘liq o‘zlashtirishi, o‘z kasbinining fidoyisi bo‘lishligi kerakligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Organik kimyoning nazariy asoslarini puxta o‘rganish, avvalo, bo‘lg‘usi kasb-hunar mutaxassislariga tabiatdagи biokimoviy jarayonlarni va ulardan olinadigan kimyoviy moddalarning olinish texnologik uslublarini o‘zlashtirishga yaqindan yordam beradi.

Hozirgi vaqtda xalq xo‘jaligining biron tarmog‘i yo‘qliki, unga kimyo fani kirib bormagan bo‘lsin. Masalan, xalq xo‘jaligida ishlatalayotgan polietilen quvurlar, plyonkalar, ekinlarning hosildorligini oshirishda qo‘llaniladigan organik o‘g‘itlar, o‘simpliklarni kasallikklardan hamda har xil zararkunandalardan saqlaydigan preparatlar va boshqa kimyoviy moddalarning deyarli hammasi kimyoviy modda — organik birikmalardir. Qishloq va o‘rmon xo‘jaligida yetishtiriladigan mahsulotlar organik birikmalarning asosiy manbayi hisoblanadi.

Mualliflar ushbu o‘quv qo‘llanmaning qo‘lyozmasini ko‘rib chiqib, o‘zlarining qimmatli fikr va mulohazalarini bildirgan akademik A.A. Abduvahobovga, kimyo fanlari doktorlari, professorlar: K.X. Roziqov va E.U. O‘rinovlarga o‘z minnatdorchiliklarini bildiradilar.



## Kirish

Organik moddalar kishilarga qadimdan ma'lum, ular organik bo'yoqlarni (alizarin, purpur, indigo), uzum sharbatini bijg'itib sırka hosil qilishni, o'simliklardan shakar hamda moy olishni, yog'larni ishqorlar bilan qaynatib sovun hosil qilishni bilganlar va bu moddalardan foydalanganlar. Ammo uzoq vaqtgacha organik moddalar aralashma holida ishlatalib kelingan. IX asrga kelib arab alkemyogarları sirkadan sırka kislotani, musallas ichimligidan etil spiritni sof holda ajratib olishga muyassar bo'ldilar. XVI asrda etil spiritiga sulfat kislota bilan ishlov berish natijasida etil eñir olindi. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlariga kelib organik moddalarni sof holda olish va ularni o'rghanish ancha rivojlandi va «organik kimyo» degan nom o'simlik va hayvon a'zolari tarkibiga kiruvchi moddalar kimyosiga taalluqli bo'lsa kerak, deb qarala boshlandi.

Ammo nemis kimyogari F. Vyroerning 1824-yili o'simlik a'zosida uchraydigan oksalat kislotani ditsiandan va 1828-yili inson va hayvon a'zosida hosil bo'ladigan mochevinani ammoniy sianatdan laboratoriya sharoitida sintez qilishi, 1845-yili nemis kimyogari A. V. Kolbening sırka kislotani sintez qilishi, 1854-yili fransuz kimyogari M. Berloning yog'ni olishi, 1861-yili rus olimi A. M. Butlerovning oddiy chumoli aldegididan shakarsimon moddani olishi natijasida organik moddalar faqat inson va hayvon a'zosidagina uchramasligi isbotlanib, ularni sintez yo'li bilan olishga keng yo'l ochildi. Organik moddalar tarkibida uglerod elementi doimo bo'lisligi isbotlandi va ular tarkibida uglerod elementidan tashqari vodorod, kislorod, azot va boshqa elementlar borligi aniqlandi.

Shunday qilib, XIX asrning boshlarida organik kimyo organik moddalarni tashkil qiluvchi uglerod birikmalarining kimyosini o'rgatuvchi fan sifatida vujudga keldi.

Organik kimyo organik moddalarning asosiy manbalari — toshko'mir, neft, tabiiy gaz, o'rmon va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo'li bilan xalq xo'jaligi uchun yoqilg'i, bo'yoq, portlovchi modda, dori-darmon, sun'iy ipak, o'g'it va

boshqa kerakli mahsulotlar yetkazib beradi. Paxta tolasini qayta ishlash, sun'iy ipak, kapron, neylon va lavsan kabilarning olinishi organik kimyoni to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga qo'shgan katta hissasidir.

Organik kimyo fanining taraqqiyoti, texnikaning va umuman ishlab chiqarishning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

### **Organik kimyo fanining rivojlanish tarixidan**

**A. M. Butlerov** (1828—1886) o'zining «Organik kimyoni to'liq o'rganishga kirish» degan kitobi va 1861- yili organik moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasini yaratish bilan organik kimyo fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Rus olimi **N. N. Zinin** (1812—1880) sanoatda benzoldan anilin olish, akademik **A. E. Favorskiy** (1860—1945) asetilen, allen va diyen uglevodorodlarining kimyosini o'rganish, akademik **S. V. Lebedev** sanoatda sintetik kauchukni olish, akademik **N. D. Zelinskiy** (1861—1953) to'yigan va to'yinmagan siklik birikmalar kimyosi va ularni sintez qilish usullari bilan organik kimyoning rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar.

Organik kimyo fanining rivojlanishiga O'zbekiston olimlari ham o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar.

**Akademik S. Y. Yunusov** (1909—1995) boshchiligidagi izoxinolin, eritrin, diterpen, xinolin, indol, xinozolidin, xinazolin, steroid, pirolizidin, piridin, tropan va oltingugurtli alkaloidlar ustida ilmiy ishlar olib borildi.

S. Y. Yunusov o'simliklarning har xil a'zolariga alkaloidlarning dinamik to'planish qonuniyatini yaratdi va shogirdlari bilan O'rta Osiyoda, ayniqsa, O'zbekistonda o'sadigan shifobaxsh o'simliklardan 800 dan ortiq alkaloidlar ajratib oldi, ulardan 500 ta yangisining tuzilish formulasini aniqlab, O'zbekiston alkaloidlar kimyosini dunyoda yetakchi o'ringa olib chiqdi. Uning shogirdlari orasidan N. K. Abubakirov, X. A. Abduzimov, F. Y. Yo'ldoshev, Z. F. Ismoilov, S. T. Akramov, R. N. Nuriddinov, M. S. Yunusov, S. I. Iskandarov kabi taniqli kimyogarlar yetishib chiqdi.

**Akademik O. S. Sodiqov** (1913—1987) taniqli o'zbek kimyogar olimi va tashkilotchi rahbaridir. Uning ilmiy ishlari O'rta Osiyoda o'sadigan yovvoyi va madaniy o'simliklar hamda tabiiy

situshunchasi o'rniga valentlik tushunchasi qo'llaniladi. Uglerod atomining qo'zg'algan holatdagi valentligi doimo 4 ga teng, ya'ni u to'rtta kovalent bog'lanishga ega.

## **Organik moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasи**

XIX asr kimyogarlarining quyidagi ishlari organik birikmlar tuzilish nazariyasining yaratilishiga asos bo'ldi.

E. Frankland tomonidan valentlik tushunchasi kiritildi (1852).

Organik birikmalarda uglerodning doimo 4 valentli bo'lishi aniqlandi (F. Kekule va A. Kolbe, 1857).

Uglerod atomlari o'zaro birikib uzun C—C bog' hosil qilishi aniqlanadi (F. Kekule va A. Kuper, 1858).

Rus olimi A. M. Butlerov organik moddalarni tuzilish nazarinasining to'la ma'noda asoschisi hisoblanadi. U bu nazariyaning asosiy qoidalarini 1861-yilda bayon qildi. Izomeriya hodisasining mohiyatini birinchi bo'lib tushuntirib berdi (1864), izobutilenning sintez qildi va uning polimerlanish reaksiyasini amalga oshirdi (1867), bu bilan yuqori molekular birikmalar sinteziga asos soldi. Ko'p organik moddalarni sintez qildi.

Organik moddalarning tuzilish nazariyasи:

1. Molekulada atomlar tartibsiz joylashgan emas, balki ular bir-biri bilan valentliklariga muvofiq ravishda ma'lum izchillikda birikkan. Molekulada atomlarning bunday izchillikda birikishi kimyoviy tuzilish deyiladi.

2. Moddalarning xossalari uning molekulasi tarkibida qanday atomlar va qancha miqdorda bo'lishigagina emas, balki ularning kimyoviy tuzilishiga ham bog'liqdir.

Tuzilish nazariyasining bu qoidasi, organik kimyoda ko'p uchraydigan izomeriya hodisasining mohiyatini tushuntirib beradi.

3. Berilgan moddaning xossalari o'r ganish natijasida uning molekular tuzilishini aniqlash, molekulasing tuzilishidan esa uning xossalari oldindan aytib berish mumkin.

A. M. Butlerovga qadar molekulaning tuzilishini aniqlab bo'lmaydi, deb hisoblanar edi. Ko'pchilik olimlar hatto molekulada atomlar real mavjudligini inkor etar edilar. A. M. Butlerov bu fikrlarni noto'g'ri ekanligini isbotlab berdi. U moddalarning xossalari o'r ganish orqali molekulaning tuzilishini, aksincha,

molokulaning tuzilishi orqali ba'zi kimyoviy xossalari aytib berish mumkinligini amalda ko'rsatib berdi.

4. Modda molekulasiidagi atomlar va atomlar gruppasi o'zaro bir-biriga ta'sir etadi.

Bizga molekulasi tarkibida bir xil grupper bo'lgan, lekin turli xossalarga ega bo'lgan moddalar ma'lum. Misol uchun, NaOH, C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>OH, NO<sub>2</sub>OH, SO<sub>2</sub>(OH)<sub>2</sub> larda gidroksil gruppalar mavjud. Shunga qaramay, ularning xossalari turlicha: NaOH — kuchli asos, C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>OH — amalda neytral modda, NO<sub>2</sub>OH va SO<sub>2</sub>(OH)<sub>2</sub> kuchli kislotalar hisoblanadi. Bunga sabab bu moddalar bilan bog'langan atomlar hamda atomlar gruppasining o'zaro ta'siridir.

Bir-biriga bevosita bog'lanmagan atomlar ham o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, xloretan CH<sub>3</sub>—CH<sub>2</sub>—Cl bilan vinil xlorid CH<sub>2</sub>=CH—Cl da xlorning reaksiyaga kirishish qobiliyati turlicha bo'lishligi xlor atomiga etil va vinil radikallarining turlicha ta'siri natijasidir.

5. Kimyoviy reaksiyalarda modda molekulasi tashkil etgan barcha atomlarga emas, balki ayrim atomlar yoki atomlar gruppasi ham ishtirok etadi. Misol qilib etil spirti bilan natriy metallining o'zaro ta'sirini olish mumkin.



Bu reaksiyada gidroksil gruppasi (OH) dagi vodorodning o'r-nini Na oladi, natijada vodorod ajralib chiqadi. Reaksiya natijasida C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>O — atomlar gruppasi o'zgarishsiz qoladi. Shu sababli, bu reaksiyani barcha spirtlar uchun umumiy holda quyidagicha yozish mumkin:



A. M. Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasi organik kimyo nazariy asosining poydevori hisoblanadi. Ahamiyati jihatidan uni D. I. Mendele'yevning elementlar davriy qonuni bilan bir qatorga qo'yish mumkin. Davriy qonun yangi elementlar borligini oldindan aytishga imkon bergen bo'lsa, bu nazariya orqali hali topilmagan yangi moddalarning borligi va ularning tuzilishini aniqlashga imkon yaratdi va bir nechtasini A. M. Butlerovning o'zi sintez qilishga tuyassar bo'ldi.

Tuzilish nazariyasining kashf etilganiga 140 yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa ham, u o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Fanning

yangi yutuqlari bu nazariyani yangi dalillar bilan boyitmoqda va uning asosiy ma'nosi to'g'ri ekanligini isbotlamoqda.


Organik birikmalarning tuzilishini o'rganish hozirgi kunda ham organik kimyoning asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Buning uchun an'anaviy kimyoviy usullar bilan bir qatorda tekshirishning zamonaviy fizik-kimyoviy hamda spektroskopik (UB — ultrabinafsha, IQ — infraqizil, PMR — proton magnit rezonans, mass= spektroskopiya) usullari ham keng qo'llanilmoqda. Bu borada misol qilib, buyuk o'zbek kimyogari, tabiiy birikmalar kimyosi sohasida yirik tadqiqotchilar maktabining asoschisi, akademik Sobir Yunusovich Yunusovning dunyoغا mashhur fundamental ishlarini keltirish mumkin. S. Y. Yunusov va uning shogirdlari tomonidan O'rta Osiyoda o'sadigan o'simliklardan 500 dan ortiq yangi alkaloidlar toza holda ajratib olinib, bu alkaloidlarning xossalarni o'rganish hamda tekshirishning zamonaviy spektral usullarini qo'llash natijasida barcha alkaloidlarning kimyoviy tuzilishi aniqlangan.

### Izomeriya


Kimyoviy tuzilish nazariyasi asosiy qoidalarining ikkinchi bandida moddalarning xossalari faqat ularning tarkibiga bog'liq bo'lmay, balki molekulalari atomlarining o'zaro birikish tartibiga bog'liqligi ham qayd qilingan. Bu organik birikmalarda ko'p uchraydigan izomeriya hodisasining mohiyatini ochib beradi. Izomeriya tushunchasi kimyo faniga XIX asrning 30-yillarida shved olimi I. Berselius tomonidan kiritilgan.

Tarkibi va molekular massasi bir xil, tuzilishi va xossalari turlicha bo'lgan moddalar *izomer moddalar* deyiladi.

$C_2H_6O$  tarkibga tuzilishi va xossalari turlicha bo'lgan ikkita modda muvofiq keladi:




etil spiriti  
suyuqlik, qayn.t. 78° C



dimetil efir  
gaz, suyuq. t.23,6° C

A. M. Butlerov izomeriya hodusasini quyidagicha ta'siflaydi: «Binokorlar bir xil miqdordagi qurilish materiallari — yog'och, g'isht va sementdan turli shakldagi binolar qurbanlaridek, tabiat ham bir xil miqdordagi «qurilish materiallari» — uglerod, vodorod va kislorod atomlaridan turlicha tuzilishli molekulalarni hosil qila oladi».

To'yingan uglevodorolarda izomeriya butandan boshlanadi.  $C_4H_{10}$  da uglerod atomlari ikki tartibda to'g'ri va tarmoqlangan holda joylashishi mumkin, ya'ni ikkita izomer bo'ladi:



Molekuladagi uglerod atomlarining soni ortishi bilan izomerlar soni keskin ortadi. Masalan, pentan  $C_5H_{12}$  da 3 ta; dekan  $C_{10}H_{22}$  da 75 ta; pentadekan  $C_{15}H_{32}$  da 4347 ta; eykozan  $C_{20}H_{42}$  da 366319 ta; pentakozan  $C_{25}H_{52}$  da 36797588 ta izomer bo'lishi mumkin.

Izomerlami yuqorida keltirilgan xili tuzilish izomeriyasi qatoriga kiradi. Bundan tashqari fazoviy izomeriya yoki stereoizomeriya ham bo'lib, u molekulalar alohida qismlarining fazoda turlicha joylashuvidan kelib chiqadi. Umuman, izomerianing turlari ko'p. Biz ularning muhim turlari bilan kurs davomida tegishli mavzularni o'rganganimizda tanishib boramiz.

### Organik birikmalarda kimyoviy bog'lanishning elektron tabiatи


Organik birikmalarda eng ko'p uchraydigan kimyoviy bog'lanish biroz qutblangan kovalent bog'lanishdir. Bu bog'lanish elektron bulutlarning o'zaro qoplanishi natijasida hosil bo'ladi. Kovalent bog'lanishlar bir-biridan o'z qutblanuvchanligi bilan farq qiladi. Organik birikmalarda atomlar kovalent bog'lardagi qutblanuvchanlikka qarab qisman zaryadlangan bo'ladi. Anorganik birikmalarda bu zaryadlar butun son bilan ifodalanadi va oksidlanish darajasi deyiladi. Organik kimyoda esa qisman zaryadlanish  $d^+$  va  $d^-$  harflar bilan ifodalanadi. Elektron zichlikning bir atomdan ikkinchi atomga siljishi organik birikmalarning elektron formulalarida, ko'pincha umumiy bog'lovchi elektron juftlarning siljishi bilan  $C_2H_3^{6+} : Cl^{6-}$  yoki strelna bilan ko'rsatiladi:  $CH_3 \rightarrow Cl$ .


Kovalent bog'lanishning eng muhim xossalardan biri uning yo'naluvchanligidir. Bog'lanishning yo'naluvchanligi molekulalarning fazoviy tuzilishiga, ya'ni ularning geometriyasiga (shakliga) bog'liq bo'ladi. O'zaro reaksiyaga kirishuvchi atomlarning elektron bulutlari bir-birini qoplaganda qanday shakl va fazoviy yo'nalish kelib chiqishiga qarab molekulalari chiziqli va burchaklarga ega bo'lgan birikmalar hosil bo'ladi. Ko'p atomlardan hosil bo'lgan kovalent bog'lanishlar doimo fazoviy yo'nalgan bo'ladi. Bog'lanish orasidagi burchak valent burchaklar deyiladi.

Ko'pincha kovalent bog'lanish hosil bo'lishida ishtirok etadigan elektronlar turli holatlarda, masalan, biri  $s$ , ikkinchisi  $p$ -orbitallarda bo'ladi. Bundan molekuladagi bog'lanishlarning puxtaligi ham turlicha bo'lishi kerak edi. Lekin tajriba ular teng qiymatli ekanligini ko'rsatadi. Bog'lanishlar puxtaligining bir xilligi 1931-yilda Amerikaning kimyogar olimi L. Poling (1901—1994) tomonidan taklif etilgan atom orbitallarning gibrildanishi haqidagi qoida bilan izohlanadi. Gibrildanishda atom orbitallarning dastlabki shakli hamda energiyasi o'zgaradi va bir xil shakl hamda energiyaga ega bo'lgan elektron orbitallar hosil bo'ladi. Gibrildangan orbitalning kimyoviy bog'lanishi gibrildanmagan (soft) orbitalnikiga qaraganda ancha mustahkam bo'ladi, chunki gibrildanishda bulutlar bir-birini ko'proq qoplaydi.

Organik birikmalarda uglerod atomi 3 xil  $sp^3$ -,  $sp^2$ - va  $sp$ - gibrildanish holatida bo'lishi mumkin.

**$sp^3$ - gibrildanish.** Metan molekulasining hosil bo'lishida  $sp^3$ -gibrildanish sodir bo'ladi. Bunda uglerod atomi «qo'zg'algan» holatga o'tadi, ya'ni  $2s^2$  dagi elektronlar bir-biridan ajraladi.





1- rasm. Uglerod atomining  $sp^3$ - gibriddlanishi.

Metan molekulasining hosil bo'lishida uglerod bitta s va uehta  $p$ - elektronlarining orbitalari gibriddlanadi hamda to'rtta bir xil gibrid orbitallar hosil bo'ladi (1- rasm).

Gibrid orbitallarning o'qlari orasidagi valent burchak  $109^\circ 28'$  ga teng. Uglerod atomining to'rtta gibrid  $sp^3$ - orbitallari bilan to'rtta vodorod atomining s- orbitallari bir-birini qoplashi natijasida to'rtta bir xil bog'lanishli mustahkam metan molekulasini hosil bo'ladi (2- rasm).


Birikayotgan atomlarning markazlarini biriktiruvchi to'g'ri chiziq bo'y lab orbitallarning bir-birini qoplashi natijasida yuzaga keladigan bog'lanish  $\sigma$  (sigma) bog'lanish deyiladi. Ma'lumki, metan molekulasida 4 ta  $\sigma$ - bog' bor. Birikayotgan atomlar o'zaro bittadan ortiq  $\sigma$ - bog' hosil qila olmaydi. Shu sababli C — C orasida oddiy bog'  $\sigma$ -bog'lanish bo'ladi.

$sp^2$ - gibriddlanish. Etilen molekulasini qo'shbog'idagi uglerod atomida bitta s- va ikkita  $p$ -orbitallar gibriddlanib, uehta tenglashgan orbitallar hosil qiladi. Ular bitta tekislikda  $120^\circ$  burchakda joylashadi. Bunday gibriddlanish  $sp^2$  - gibriddlanish (yoki trigonal gibriddlanish) deyiladi (3- rasm).

Har qaysi uglerod atomida bittadan  $p$ - orbitallar gibriddlanmagan bo'lib, u gibriddlangan orbitallar tekisligiga perpendicular joylashgan bo'ladi.




2- rasm. Metanning tetraedr molekulasida  $\sigma$ - bog'-larning hosil bo'lishi.



3- rasm. Uglerod atomining  $sp^2$ - gibriddlanishi.

Etilen molekulasida ikkita uglerod atomi  $sp^2$ - gibriddlangan holatda bo'lib,  $\sigma$ - bog'lanish hosil qiladi. Har qaysi uglerod atomidagi boshqa ikkita gibriddlanmagan orbitallar vodorod atomlari bilan to'rtta  $\sigma$ - bog'lanish hosil qiladi. Foydalanilmay qolgan ikkita orbital C va H atomlari joylashgan tekislikning ustidan hamda ostidan ikki marta (gantelsimon) bir-birini qoplaydi. Natijada  $\pi$ - bog'lanish vujudga keladi.  $\pi$ - bog'lanishning hosil bo'lish sxemasi 4- rasmida ko'rsatilgan.

Shunday qilib, etilen molekulasida C – C bog'ning bittasi  $\sigma$ -, ikkinchisi  $\pi$ - bog'lar, etilenda jami 5 ta  $\sigma$ - va bitta  $\pi$ - bog'lanish bor. Uglerod atomlari orasidagi qo'shbog' oddiy bog'ga nisbatan qisqa: etan molekulasida uglerod atomlarining yadrolari orasidagi masofa 0,154 nm ga, etilen molekulasida 0,134 nm ga teng.  $\pi$ - bog'lanish oddiy bog'lanishiga nisbatan bo'shroq bo'ladi. Shu sa-



4- rasm. Etilen molekulasida kimyoviy bog'larining hosil bo'lishi:  
a)  $\sigma$ - bog'lar; b)  $\pi$ - bog'lar.


babli  $\pi$ - bog'lanish kimyoviy reaksiyalarda oson uziladi va etilen hosilalari paydo bo'ladi.

**$sp$ - gibrildanish.** Agar gibrildanish bitta  $s$ - va bitta  $p$ - orbitallar hisobiga sodir bo'lsa, bunday gibrildanish  $sp$ - gibrildanish deyiladi. Bunda hosil bo'lgan 2 ta gibrild orbital bir-biri bilan  $180^\circ$  burchak ostida joylashadi. Qolgan ikkita  $p$ - orbital sofligicha (gibrildanmay) qoladi. Bunday  $sp$ - gibrildanishga uchlamchi bog'lanish (asetilen molekulasi)ning hosil bo'lishi misol bo'la oladi. Asetilen molekulasi dagi uglerodning  $sp$ - gibrildanish holatida turgan ikkita atomi  $\sigma$ - bog'lanishlar hosil qiladi. Har qaysi atomdan bittadan gibrildangan orbital vodorod atomlari bilan ikkitadan  $\sigma$ - bog'lanishlar hosil qilishga sarflanadi. Bularning hammasi  $H-C=C-H$  molekulasiiga chiziqli shakl beradi va to'rtta atom bir chiziqda yotadi ( $S-a$ , rasm).

Bundan tashqari har qaysi uglerod atomining ikkita  $p$ - orbitali bir-birini qoplashi natijasida ikkita  $\pi$ - bog' hosil bo'ladi. Bu bog'lar o'zaro perpendikular ikki tekislikda joylashgan ( $S-b$ , rasm). Demak, asetilen molekulasida uchta  $\sigma$ - bog'lanish va ikkita  $\pi$ - bog'lanish mavjud. Uchlamchi bog'lanish qo'shbog'ga nisbatan qisqa ( $0,120$  nm). Kimyoviy reaksiyalarda  $\pi$ - bog'lar oson uzilib, uchlamchi bog' qo'shbog'ga, qo'shbog' esa birlamchiga aylanadi.

Uchlamchi bog' birikmalarining reaksiyaga kirishish xususiyati qo'shbog'li birikmalarga qaraganda kuchliroq bo'ladi.

Shunday qilib, uglerod atomi va uning birikmalarining xossalari, uning atom orbitallarining (AO) gibrildanish holatiga bog'liqdir.



**S-rasm.** Asetilen molekulasida kimyoviy bog'larining hosil bo'lishi (494)  
a)  $\sigma$ - bog'lar; b)  $\pi$ - bog'lar.

## Organik birkmalar xos bo'lgan reaksiya turlari

Organik birkmalar orasida boradigan reaksiyalar asosan 3 turga: 1) o'rin olish; 2) birikish; 3) ajralish reaksiyalariga bo'linadi. Masalan:

1.  $C_6H_6 + Cl_2 \longrightarrow C_6H_5Cl + HCl$
2.  $CH_2 = CH_2 + HOH \longrightarrow CH_3 - CH_2OH$
3.  $CH_3 - CH_2 - Br \longrightarrow CH_3 - CH_2 + HBr$

Bundan tashqari polimerlanish, polikondensatlanish, qayta gruppalanish kabi reaksiyalar organik birkmalar uchun xos bo'lgan reaksiyalarning alohida turi hisoblanadi. Reaksiyaga kirishayotgan molekulalardagi kovalent bog'ning uzilish holatiga qarab, barcha organik reaksiyalar 2 xil gomolitik va geterolitik mehanizmda boradi.



**Gomolitik (radikal) mehanizm.** Bunday reaksiyalarda kovalent bog' uzilib o'zida juftlashmagan elektron tutgan atom yoki atomlar gruppasi, ya'ni erkin radikallar hosil bo'ladi:



Hosil bo'lgan radikallar boshqa molekulalar bilan to'qnashib, yangi molekula va yangi radikal hosil qiladi.



Bunday tipdagi reaksiyalar radikal o'rin olish reaksiyasi deyiladi va  $S_R$  bilan belgilanadi. To'yingan uglevodorodlarning xlordanish reaksiyasi  $S_R$  mehanizmda boradi. Masalan:



**Geterolitik (ionll) mehanizm.** Bunday mehanizm reaksiyaga kirishuvchi molekulaning kovalent bog'i uzilganda elektron juft bitta atomda qoladi:



Bunday holatda reagent  $X^-$  — o'z elektron jufti yordamida uglevod atomi bilan birikadi,  $Y^-$  esa o'z elektron juftidan ajralib chiqib anionga aylanadi. Misol:



yoki



Ionli mexanizm bo'yicha boradigan reaksiyalar «reagent» ning xarakteriga qarab 2 xil tipga bo'linadi. Agar reagent yangi bog' hosil qilish uchun elektron just bersa, nukleofil reagent, bunday reagentlar ishtirokida boradigan reaksiyalar esa *nukleofil reaksiyalar* deyiladi. Nukleofil reagentlar manfiy zaryadlangan ionlardir. Masalan:




Ko'pgina o'rın olish reaksiyalarini nukleofil reaksiyalarga misol bo'la oladi ( $S_N$ ).

Agar kimyoviy reaksiyalarda yangi bog'lanish hosil qilish uchun reagent just elektron bermasa, bunday reagent elektrofil reagent, reaksiya esa *elektrofil reaksiya* deyiladi. Bu vaqtda substrat elektrodonor xossasini namoyon qiladi. Eng ko'p uchraydigan elektrofil reagentlar:




Aromatik birikmalarning nitrolash, galogenlash va sulfolash reaksiyalarini elektrofil o'rın olish reaksiyalariga misol bo'la oladi.

Masalan:




To'yinmagan uglevodorodlar (alkenlar) ning galogenlar, galogenid kislotalari, sulfat kislota va hokazolar bilan birikish reaksiyalarini esa elektrofil birikish reaksiyalaridir:



## Organik birikmalarning sinflari

Organik birikmalarning ko'pligi va xilma-xilligi, ularning tuzilishiga qarab sinflarga bo'lib o'r ganishni talab etadi. Shuning uchun organik birikmalar uglerod atomlarining molekulada joylashishiga yoki ularning hosil qilgan skeletlaniga ko'ra uchta asosiy sinfga bo'linadi.

1. Asiklik birikmalar. Alifatik yoki yog' qatori birikmalar. Bu sinfga uglerod atomlaridan tashkil topgan to'g'ri yoki tarmoqlangan zanjirli birikmalar kiradi:




Asiklik birikmalar to'yingan va to'yinmagan birikmalarga bo'linadi. To'yinmagan birikmalarda uglerod atomlari o'zaro qo'sh va uch bog'lar orqali birikkan bo'ladi:





2. Karbosiklik birikmalar. Bu sinfga uglerod atomlaridan tashkil topgan halqasimon (siklik) birikmalar kiradi va ular o'z navbatida ikkiga bo'linadi:






a) alisiklik birikmalar:



b) aromatik birikmalar tarkibida  $C_6H_6$  gruppasi — benzol halqasi bo'ladi:



**3. Geterosiklik birikmalar.** Bu sinfga molekulasida ugleroddan boshqa element (kislород, azot, oltингугурт va hokazo) atomlari ham bor halqasimon (siklik) birikmalar kiradi:



Organik birikmalarning kimyoviy xususiyatlari ularning tar-kibiga kiruvchi atomlardan tashkil topgan gruppalarning xususiyatlari bog'liq. Molekuladagi bu gruppalar funksional gruppalar deb ataladi. Masalan, modda molekulasida *karboksil* — COOH funksional grupp bo'lisa, kislota, *amino* — NH, funksional grupp bo'lisa, asos xususiyatiga ega bo'ladi. Yuqoridagi uchta asosiy sinf birikmalarining bitta yoki bir nechta vodorod atomi tegishli funksional gruppaga almashinishi natijasida bu birikmalarning hosilalari — yangi sinf birikmali olinadi. Masalan, galogenlar (F, Cl, Br, I) ga o'rinn almashinishidan galoidli birikmalar, hidroksil (OH) gruppaga almashinganda spirtlar, karboksil — COOH ga almashsa, karbon kislotalar hosil bo'ladi.

Uglevodorodlar organik birikmalarning genetik asosini tashkil etib, ulardagи bitta yoki bir necha vodorod atomlarini funksional gruppalarga o'rinn almashinishi natijasida yangi organik birikmalar sinflari hosil bo'ladi (1-jadval).

Shunday qilib, sistematik nomenklatura bo'yicha moddalarini nomlashda molekuladagi asosiy zanjir aniqlanib, undagi uglerod atomlari raqamlanadi. Uglerod atomlarida joylashgan oddiy va murakkab radikallarni ko'rsatuvchi raqamlar radikallar nomi oldiga defis orqali qo'yiladi va ular asosiy zanjirga mos keluvchi uglevodorodlar nomi oldiga qo'shib o'qiladi.


**Tabiatda uebrashi va olinishi.** To'yingan uglevodorodlar asosan, tabiiy gazdan (96—98% metan, qolgani etan, propan va butandan iborat), neftdan, tog' mumidan va o'simliklardan olinadi. Shu bilan birga alkanlar sintez qilib ham olinadi.

1. To'yingan uglevodorodlar fransuz kimyogari Adolf Vyurs (1855) reaksiyasi bo'yicha galoidalkillarga natriy metalini ta'sir ettirib olinadi:



Ikki molekula etil yodiddan butan, bir molekula metil yodid va bir molekula etil yodiddan propan olinadi.

2. Alkanlarning galogenli hosilalarini katalizator ishtirokida vodorod atomlari yoki vodorod yodid bilan yuqori temperaturada qaytarib alkanlar olinadi:



**Fizik xossalari.** A. M. Butlerov nazariyasiga asosan moddalarining fizik xossalari ularning tarkibiga va tuzilishiga bog'liq. Masalan, to'yingan uglevodorodlarning fizik xossalari o'zgarishini ularning gomologik qatorida ko'rish mumkin (2-jadval).

2-jadvaldan ko'rinish turibdiki, metan, etan, propan, butan va izobutanlar gaz, pentandan dekangacha suyuqlik bo'lib, ular o'ziga xos benzin va kerosin hidiga ega, geksadekandan boshlab esa qattiq moddalardir. Molekula massasi ortishi bilan to'yingan uglevodorodlarda suyuqlanish, qaynash temperaturalari va nisbiy zichligi oshib boradi.

## To'yingan uglevodorodlarning fizik xossalari

Nomi	Formulasi	Suyuqlanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	Nisbiy zichligi, $d_4^{20}$
Metan	$\text{CH}_4$	-184	-162	0,4150 (-164°C da)
Etan	$\text{C}_2\text{H}_6$	-172	-88	0,5610 (-100°C da)
Propan	$\text{C}_3\text{H}_8$	-190	-42	0,5858 (-44,° C da)
n- butan	$\text{C}_4\text{H}_{10}$	-135	-0,5	0,600 (0°C da)
Izobutan	izo- $\text{C}_4\text{H}_{10}$	-145	-10	0,6030 (19°C da)
n- pentan	$\text{C}_5\text{H}_{12}$	-132	36	0,6261
Izopentan	izo- $\text{C}_5\text{H}_{12}$	-161	28	0,6197
n- geksan	$\text{C}_6\text{H}_{14}$	-94	69	0,6603
n- geptan	$\text{C}_7\text{H}_{16}$	-90	98	0,6834
n- oktan	$\text{C}_8\text{H}_{18}$	-57	126	0,7031
n- nonan	$\text{C}_9\text{H}_{20}$	-54	151	0,7182
n- dekan	$\text{C}_{10}\text{H}_{22}$	-30	174	0,7301

Normal zanjirli uglevodorodlarning qaynash temperaturasi, ularning izo-holati qaynash temperaturasidan yuqori bo'ladi. Masalan, n-pantan 36°C da qaynaydi, izopentan esa 28°C da, ya'ni 8°C past temperaturada qaynaydi.


**Kimyoviy xossalari.** To'yingan uglevodorodlar kimyoviy inert moddalar bo'lib, oddiy sharoitda oksidlanmaydi va reaksiyaga kirishmaydi. Shuning uchun ular parafinlar (lotincha «parum offinis» — aktivmas) deb ataladi.

Shuning uchun alkanlar katalizatorlar ishtirokida, temperatura va yorug'lik ta'sirida o'r'in olish reaksiyalariga egadir.

**Yonishi.** Uglevodorodlar 300°C dan yuqori haroratda yonib,  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  hosil qiladi.

**Olinishi.** 1. Neftni qayta ishlash zavodlarida, kreking jarayonida hosil bo'lgan gazlardan etilen uglevodorodlar olinadi.

2. Laboratoriya sharoitida spirtlardan (ma'lum temperatura ostida) quyuq sulfat kislota ishtirokida olefinlar olinadi.




3. Monogaloid alkanlarga o'yuvchi kaliyning spirtli eritmasini ta'sir ettirib olinadi.



4. Digaloid alkanlardan Mg yoki Zn metallari ta'sirida olinadi:



5. Alkinlarga Pt va Pd katalizatorlari ishtirokida vodorod molekulasi biriktirib olinadi.



5. Alkanlarni yuqori temperaturada ( $350-400^\circ\text{C}$ ) degidrogenlab, etilen uglevodorodlar olinadi.



**Fizik xossalari.** Etilen uglevodorodlar gomologik qatorining birinchi uch vakili gazlar,  $\text{C}_3$  dan  $\text{C}_{11}$  gacha suyuqlik, bulardan yuqori molekulalari qattiq moddalardir. Molekula massasining ortib borishi bilan suyuqlanish va qaynash temperaturasi ortib boradi.


Alkenlar suvda umuman erimaydi, organik erituvchilar (xloroform, uglerod (IV) xlorid, benzol, efir) da yaxshi eriydi.

**Kimyoiy xossalari.** Etilen uglevodoroddagi qo'shbog' ( $\text{C}=\text{C}$ ) mustahkam  $\delta$ -bog' va mustahkam bo'limgan  $\pi$ -bog'lardan tashkil topgan bo'lib,  $\pi$ -bog'ning yengil uzilishi hisobiga biriktirib olish reaksiyasiga ega. Bu xususiyat etilen uglevodorodlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.


**Vodorodning birikishi.** Alkinlarga yuqori temperatura ( $150-200^\circ\text{C}$ ) da nikel yoki platina katalizatorlari ishtirokida ikki atom vodorod birikib, alkanlar hosil qilishini fransuz kimyogari Sabatye kashf etdi.

## Alkenbanning fizik xossalari

№	Nomi	Formulasi	Temperaturasi, °C		d <sup>20</sup> (Qaynash temperaturasida)
			suyuqlanishi	qaynashi	
1	Eten	C <sub>2</sub> H <sub>4</sub>	-169	-104	0,5700
2	Propen	C <sub>3</sub> H <sub>6</sub>	-185	-47,7	0,6090
3	Buten -1	C <sub>4</sub> H <sub>8</sub>	-185,3	-6	0,6696
4	Penten -1	C <sub>5</sub> H <sub>10</sub>	-165	+30	0,6430
5	Geksen -1	C <sub>6</sub> H <sub>12</sub>	-138	63,5	0,6730
6	Gepten -1	C <sub>7</sub> H <sub>14</sub>	-119	93,6	0,6970
7	Okten -1	C <sub>8</sub> H <sub>16</sub>	-102	122,5	0,7150
8	Nonen -1	C <sub>9</sub> H <sub>18</sub>	-78	146	0,7310
9	Detsen -1	C <sub>10</sub> H <sub>20</sub>	-66,3	170,6	0,7400



**Galoидлarning бирекиши.** Молекуладаги қо'шбог'юнун саломини  $\text{Cl}_2$  ва  $\text{Br}_2$  яр осон бирекиб, дигалоид бирекмалар hosil qiladi:



Bu reaksiyada birinchi navbatda galoidning elektrofil zarra-chasi alkendagi qo'shbog'ning  $\pi$ -elektroni bilan  $\pi$ -kompleks hosil qiladi, so'ngra bu moddaning gruppalanishi natijasida hosil bo'lgan xlor anjioni ta'sirida digaloid birikma hosil bo'ladi.

Qizdirishni davom ettirib, gazli trubkaning ikkinchi boshqa probirkadagi kaliy permanganat eritmasi ustiga botirilgan Bunda asta-sekin etilenning oksidlanishi hisobiga permanganat eritmasining rangi yo'qoladi.

Qizdirishni davom ettirib, nayli trubka uchi alangaga lashtirilganda etilen havorang alanga berib yonadi.



### Savol va mashqlar


- Qanday uglevodorodlar etilen uglevodorodlar deyiladi?
- $\text{sp}^2$ -gibridlanish, qo'shbog'ning tuzilishi va elektron tabiatini ( $\pi$ -bog') haqida gapinib bering.
- Etilen uglevodorodlarning gomologik qatori haqida ma'lumot bering.
- Geometrik (*sis-trans*) izomeriya haqida tushuncha bering.
- Pentenning izomerlarini yozing va sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.
- Alkenlarning asosiy olinish usullarini yozing.
- Alkenlarning asosiy kimyoviy xossalalarini yozing.
- Alkenlardagi qo'shbog' qanday aniqlanadi?
- Qanday reaksiyalar polimerlanish reaksiyasini deyiladi?
- Etilen va propilenning yonish reaksiyasini yozing.
- Alkenlarning xalq xo'jaligida ishlatalishi haqida gapirib bering.

V bob.

### Alkadiyenlar (diyen uglevodorodlar)


Molekulasida ikkita qo'shbog' saqlagan birikmalarga diyen uglevodorodlar deyiladi. Diyen uglevodorodlarda alkanlarga nisbatan ikkita qo'shbog' hisobiga to'rtta vodorod atomi kam bo'ladi. Ularning umumiy formulasi alkinlarga  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$ , o'xshashdir.

Diyen uglevodorodlarning sistematik nomenklatura bo'yicha nomi to'yingan uglevodorodlar nomi oxiridagi «n» harfi o'mrigi «diyen» qo'shimchasini qo'shish va qo'shbog' tutgan uglero' atomlarini ko'rsatish bilan hosil bo'ladi.



3-metil - 1,4-pentadiyen

Diyen uglevodorodlar molekulada qo'shbog' larning joylanishiga va larning xususiyatlari qarab uch gruppaga bo'linadi: Kumulativ qo'shbog'li yoki allen  $\text{CH}_2-\text{C}=\text{CH}_2$ , tipidagi diyen uglevodorodlar. Bu diyen uglevodorodlarda qo'shbog'lar yonma-yon joylashgan.




Allen glitserindan quyidagi reaksiya bo'yicha olinadi:

2. Ajralgan qo'shbog'li diyen uglevodorodlar. Bu uglevodorodlarda qo'shbog'lar ikkita yoki undan ortiq uglerod atomlari bilan ajralgan bo'ladi. Ular  $\text{CH}_2=\text{C}(\text{CH}_2)_n-\text{CH}=\text{CH}_2$

formulaga ega bo'lib,  $n=2, 3, 4, 5, 6...$

Ajralgan diyen uglevodorodlar P. P. Shorigin usuli bo'yicha olinadi:




1,5-geksadiyen

I uglevodorodlardagi qo'shbog'lar reaksiyaga alohida kirishadi. Shu xususiyati bilan uglevodorodlardagi qo'shbog' etilen uglevodorodlardagi qo'shbog' xususiyatlari o'xshashdir. 3. Konyugirlangan qo'shbog'li yoki 1,3-butadiyen  $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ , tipidagi diyen uglevodorodlardagi qo'shbog'lar xususiyati alkenlardagi qo'shbog'-larni farq qiladi. Ular xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega.

Diyen uglevodorodlar molekulasida qo'shbog'lar oddiy bog' r bilan navbatma-navbat joylashadi. Bunday joylashish temasiga konyugirlangan qo'shbog'lar deyiladi.

Birikish reaksiyasi natijasida konyugirlangan qo'shbog' molekulada birikayotgan atomlar birinchi va to'rtinchchi uglerod atomlariga bog'lanadi, ikkinchi va uchinchi uglerod atomlari orasida yangi qo'shbog' hosil bo'ladi.




Konyugirlangan diyen uglevodorodlarning bu xususiyatini 1899- yilda nemis olimi K. I. Tile molekuladagi uglerod atomlarida saqlanib qolgan qoldiq (parsial) valentlik hisobiga shunday birikishi mumkin, degan nazariyasida isbotlab berdi.



1928- yilda akademik S. V. Lebedev yuqori temperaturada etil spirtidan katalizator ( $\text{MgO}$ ;  $\text{ZnO}$ ) ishtirokida 1,3- butadiyen sintez qildi:




Alkanlarni sanoatda yuqori temperaturada va katalizator ishtirokida degidrogenlab 1,3- butadiyen olinadi.



Izopren yoki 2-metil-1,3- butadiyen quyidagi reaksiya bo'yicha olinadi.



Xloropren yoki 2-xlor-1,3-butadiyen vinilasetilenga vodorod xloridni birkirtirish yo'li bilan olinadi.




1,3-butadiyen, izopren va xloroprenlar sanoatda kauchuk olishda asosiy xomashyo hisoblanadi. Masalan,  $n$  molekula 1,3-butadiyenning polimerlanishi natijasida sintetik kauchuk hosil bo'ladi.



**Kauchuk.** Tabiiy kauchuk ( $\text{C}_5\text{H}_8$ )<sub>n</sub> formulaga ega bo'lib, Braziliyada o'sadigan geveya daraxti shirasidan olinadi. Kauchuk «kocho» so'zidan olingan bo'lib, u daraxtning ko'z yoshi ma'nosini bildiradi. Olingan daraxt shirasiga sirkal kislota qo'shilsa, kauchuk ajralib chiqadi. Kauchuk organik erituvchilar benzol, benzin, uglerod-sulfidda yaxshi eriydi. Kauchuk oltingugurt ishtirokida vulkanizatsiya qilinsa, rezinaga aylanadi. Rezinadan avtomobil, samolyot, velosiped, mashinasozlik sanoatlari va uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlashda keng foydalilaniladi. Agar kauchukni vulkanizatsiya qilish vaqtida oltingugurt miqdori 32% gacha yetsa, qattiq modda — ebonit hosil bo'ladi. Ebonit izolator sifatida elektr asboblarida ishlataladi.

Kauchukni quruq haydab izopren  $\text{C}_5\text{H}_8$  olinadi. Kauchuk xuddi to'yinmagan uglevodorodlarga o'xshash ikki atom galoid yoki bir molekula vodorod galogenidni biriktirib oladi. Demak, kauchuk izoprenning polimeri bo'lib, u o'zida bitta qo'shbog' saqlaydi.

Tabiiy kauchukning tuzilish formulasasi:



Geveya daraxtidan olingan kauchukning molekular massasi 170000 ga yaqin bo'lib, unda 2500 izopren molekulalari polimerlanganligi aniqlangan.

Sintetik kauchuk dunyoda birinchi bo'lib Rossiyada akademik S.S. Lebedev usuli bo'yicha olingan.

Sintetik kauchukning xossalari tabiiy kauchuknikiga o'xshash bo'lib, vulkanizatsiyadan so'ng sifatli rezinaga aylanadi.



## *Laboratoriya ishlari*

### **1. Tabiiy kauchukni termik parchalab izopren olish**

0,5 g kauchuk probirkaga solinadi va probirkaning og'zi gaz o'tkazgich nay o'matilgan tiqin bilan berkitilib, gaz o'tkazgich nayning ikkinchi uchi ikkinchi probirkaga solib qo'yiladi. Kauchuk solingan probirkaga qizdiriladi, natijada u parchalanadi va hosil bo'lgan izopren ikkinchi probirkada yig'iladi.

### **2. Izoprenning kaliy permanganat eritmasi va bromli suv bilan ta'sirlanishi**

Ikkinci probirkada yig'ilgan izopren 6 ml xlorosiformda eritilib, ikkita probirkaga bo'linadi. Birinchi probirkaga kaliy permanganat eritmasidan 2 ml, ikkinchi probirkaga bromli suvdan 2 ml solib chayqatiladi. Natijada ikkita probirkada eritmalarning rangi yo'qoladi.



## *Savol va mashqlar*

1. Qanday binkmalar alkadiyenlar deylidi?
2. Alkadiyenlar orasida qaysi biri ancha ahamiyatli?
3. Butadiyen - 1,2 va geksadiyen - 1,5 larning struktura formulalarni yozing.
4. S. S. Lebedev usuli bo'yicha sintetik kauchuk oling.
5. Tabiiy kauchuk sintetik kauchukdan nimasi bilan farq qiladi?
6. Kauchuk rezinadan nimasi bilan farq qiladi?
7. Kauchukning xalq xo'jaligidagi ishlatalishi haqida gapirib bering.

**VI bob.**

**Alkinlar (asetilen  
uglevodorodlar)**


Molekulasida uchbog' saqlagan uglevodorodlarga alkinlar deylidi. Alkinlar  $C_nH_{2n-2}$  umumiy formulaga ega bo'lib, ularning birinchi vakili asetilen  $C_2H_2$  dir. Alkinlarning vodorod atomlari tegishli alkanlardan to'rtta, alkenlardan ikkita vodorod atomi soni kam bo'ladi.

Asetilen molekulasi chiziqsimon tuzilishga ega bo'lib, uglerod-uglerod masofasi 0,120 nm ni, uglerod-vodorod masofasi 0,106 nm ni tashkil etadi.



Asetilen molekulasi uchta oddiy  $\delta$  va ikkita  $\pi$ -bog'larga egadir.

Nomenklaturasi va izomeriyasi. Sistematik nomenklatura bo'yicha alkinlar nomi to'yingan uglevodorodlar nomidagi «an» qo'shimchasi o'tmiga «in» qo'shimchasi yozilib, uning tutgan joyini ko'rsatish bilan o'qiladi. Asetilen uglevodorodlar uch-bog'ning o'rinni almashinish va zanjirming tarmoqlanish izomeriyasiga ega.




Olinishi. 1. XIX asming boshida asetilen uglerodni volt yoyi orqali vodorod o'tkazib olingan.




2. Metan yuqori temperaturada krekinglab olinadi.



3. To'yinmagan ikki asosli karbon kislota tuzlarini elektroliz qilib olinadi.



4. Laboratoriya sharoitida kalsiy karbiddan olinadi:



Fizik xossalari. Alkinlarning birinchi uch vakili gaz,  $\text{C}_2$ , dan gacha suyuqlik, qolgan yuqori vakillari qattiq moddalardir (5-jadval).

## Alkinlarning fizik xossalari


Nomi	Formulasi	Temperaturasi, °C		Zichligi
		suyuqla-nishi	qaynashi	
Etin	H—C≡C—H	—82	—81	0,6560 (—81°C da)
Propin	H—C≡C—CH <sub>3</sub>	—105	—23	0,6700 (—23°C da)
1-butin	H—C≡C—CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub>	—137	9	0,6780 (0°C da)
2-butin	CH <sub>3</sub> —C≡C—CH <sub>3</sub>	—33	27	0,6880 (25°C da)
1-pentin	CH <sub>3</sub> —C≡CH <sub>2</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub>	—98	40	0,695
2-pentin	CH <sub>3</sub> —C≡C—CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub>	—101	55	0,714


**Kimyoviy xossalari.** Alkinlarning asosiy kimyoviy xossalari dan biri ular  $\pi$ -bog'larini oson uzilishi hisobiga birikish reaksiyasiga kirishishidir.

Oddiy  $\sigma$ -bog'ning — C—C — energiyasi 81 kkal/molga teng, uchbog' — C≡C niki esa 199 kkal/molga teng, u holda  $\pi$ -bog'  $\frac{199-81}{2} = 59$  kkal/mol energiyaga ega bo'ladi.


Asetilen molekulasidagi C—H gruppada just elektronlar uglerod atomiga ko'proq silijigani uchun undan vodorod atomi oson ajraladi. Bu esa molekulaga kislota xususiyatini beradi, natijada vodorod atomlari metallarga o'mini beradi.

**Vodorod va galoidlarning birikishi.** Bu reaksiya ikki bosqichda ketadi, avval bir molekula birikib alkenlar, so'ngra ikkinchi molekula birikib alkanlar hosil qiladi.






**Vodorod galogenidlarning birikishi.** Bu reaksiya V. V. Markovnikov qoidasiga asosan boradi:



**Suvning birikishi.** 1881- yilda rus olimi M. G. Kucherov asetilenga,  $\text{HgSO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4$ , aralashmasi ishtirokida, suvning oson birikishi tufayli sirka aldegid hosil bo'lishini kashf etdi.




**Polymerlanish reaksiyasi.** Ikki molekula asetilen  $\text{NH}_4\text{Cl}$  va  $\text{CuCl}_2$  ishtirokida dimerlanib vinilasetilen hosil qiladi.



N. D. Zelinskiy bilan B. A. Kazanskiy yuqori temperatura va aktivlangan ko'mir ishtirokida uch molekula asetilenden benzol hosil qilgan.



**O'rta olish reaksiyasi.** Molekuladagi uchbog' yonidagi vodorod atomlari metallar bilan oson o'rni almashinib, metall asetilenidlarini hosil qiladi.




Hosil bo'lgan asetilenidlarga kislotalar ta'sir ettinisa, qayrad alkinlar hosil bo'ladi.




Kumush va mis asetilenidlari quruq holatda portlovchi mod dalardir. Shuning uchun ular nam holatda saqlanadi.

**Oksidlanish reaksiyasi.** Alkinlar oson oksidlanib, dialdegid so'ngra ikki asosli kislota hosil qiladi.



Agarda alkinlar kuchliroq oksidlansa, molekula uchbog' turgan joydan parchalanadi:



**Ishlatilishi.** Asetilen kislorodda yonganda 3000°C gacha issiqlik hosil qiladi. Bu xususiyatdan foydalanib sanoatda, qurilishda va xo'jalikning boshqa tarmoqlarida metallarni hamda metall buyumlarni payvandlashda keng ishlatiladi.

Asetilen kimyo sanoatida asosiy xomashyo hisoblanib, undan etil spirit, sirka kislota, allil spirit, glitserin, akrilonitril, vinil-asetat, lyuizit, vinilasetilen va boshqa moddalar olinadi. Akrilonitril va vinilasetilen sintetik tola bilan kauchukning asosiy xomashyosi hisoblanadi.



### Laboratoriya ishi

#### Ettining olimishi va xossalari

Probirkaga bir bo'lak kalsiy karbid tashlab, uning ustiga 1–2 ml suv quying va probirkani gaz o'tkazuvchi nayli trubka bilan tutashtiring.

Ajralib chiqayotgan asetilenni I-probirkadagi kaliy permanaganat eritmasidan o'tkazing. Bunda asta-sekin eritmaning rangi yo'qolib, qo'ng'ir tusli MnO<sub>2</sub>, cho'kmaga tushadi. Bu esa asetilenning oksidlanayotganini ko'rsatadi.


Shundan so'ng ajralib chiqayotgan asetilenni ikkinchi probirkadagi bromli suvdan o'tkazing. Bunda asta-sekin brom suvining rangi yo'qoladi. Bu esa bromning asetilenga birikishini ko'rsatadi.

Nayli trubka uchini alangaga yaqinlashtirganda asetilen tutab yonadi.



### Savol va mashqlar

- Alkinlar, ularning gomologik qatorini yozing.
- Alkinlarning nomenklaturasi va izomeriyasi haqida nimalarni bilasiz?
- C<sub>3</sub>H<sub>4</sub> va C<sub>4</sub>H<sub>6</sub> larning struktura formulasini yozing va nomlarini ayting.
- Alkinlarning eng muhim kimyoviy xossalari aytib bering.
- Alkinlarning kimyoviy xossalari alkanlarnikidan nimasi bilan farq qiladi?
- Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradigan reaksiya tenglamalarini yozing:



- Alkinlarning ishlatalishi haqida so'zlab bering.

VII bob.

Arenlar (aromatik uglevodorodlar)


Molekulasi tarkibida benzol yoki uning gomologlarini saqlaydigan karbosiklik birikmalarga aromatik uglevodorodlar deb aytildi. Ularning birinchi vakili benzol bo'lib, uni 1825-yilda ingлиз kimyogari va fizigi M. Faradey koks gazidan ajratib olgan.

Empirik formulasi  $C_nH_{2n-6}$ . Benzol +80,1°C da qaynaydigan o'ziga xos hidga ega bo'lgan harakatchan rangsiz suyuqlik. Bu qator uglevodorodlar  $C_nH_{2n-6}$  umumiy formulaga ega. Umumiy formuladan foydalanib, aromatik uglevodorodlar gomologik qatorini hosil qilish mumkin:

	$C_nH_{2n-6}$
$n = 6$	$C_6H_6$
$n = 7$	$C_7H_8$
$n = 8$	$C_8H_{10}$
$n = 9$	$C_9H_{12}$
$n = 10$	$C_{10}H_{14}$

Benzol qatori uglevodorodlari o'ziga xos aromatik xususiyatga ega ekanligi birikmalami almashinish reaksiyasiga oson kirishishi va oksidlovchilarga nisbatan turg'un ekanligi bilan tushuntiriladi. Buning sababi benzoldagi har bir uglerod atomida uchtadan  $\sigma$ -bog' (ikkitasi qo'shni uglerod atomiga, uchinchisi vodorod atomiga) va bittadan  $\pi$ -bog'larni borligi hamda bu bog'lar elektron bulutini molekula tekisligiga perpendikular joylashib harakatlanishidadir.

Demak, benzoldagi oltita uglerod atomining hammasi bir xil holatda bo'lib, ularning qaysi biri oddiy bog' bilan, qaysi biri qo'shbog' bilan bog'langanligini ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning




uchun 1865-yilda nemis kimyogari A. Kekule benzol tuzilishini quyidagi ikki ko'rinishda ifodalaydi.

Benzol halqasidagi 6 ta uglerod atomi s-bog' bilan bog'langan bo'lib, bu bog'larning uzunligi 1,40  $\text{\AA}$ , ular yassi olti-burchakni tashkil etib, bitta tekislikda yotadi. Benzol molekulasiда uglerod atomlari  $sp^2$ - gibridlangan holatdadir. Benzol molekulasining hosil bo'lish energiyasi (uchta C-C oddiy bog'


243 kkal/mol, uchta qo'shbog' 441 kkal/mol va oltita C—H oddiy bog' 544 kkal/mol) 1278 kkal/mol ga teng. Ammo benzol hosil bo'lishi uchun sarflangan energiya 1314 kkal/mol ni tashkil etadi. Bu energiyalar o'rtaqidagi farq 36 kkal/mol ni tashkil qilib, benzol halqasining kuchlanish energiyasi yoki rezonans energiya deb ataladi. Demak, benzol halqasidagi kuchlanishni burtaraf etish uchun 36 kkal/mol energiya talab etiladi va shu bilan benzol halqasining turg'unligi tushuntiriladi. Kimyoviy adabiyotlarda organik birikmalar molekulalarida aromatik sistemi ko'rsatuvchi qo'shbog' va oddiy bog'lar o'miga umumiy elektron bo'lishini tasvirlovchi chiziq doira bilan ko'rsatiladi.




**Nomenklaturasi va Izomeriyasi.** Benzol qatori uglevodorodlari nomlash uchun benzol asos qilib olinib, undagi nechta vodorod atomlari qanday radikalga almashgan bo'lsa, shu radikal o'qilib, oxiriga benzol so'zi qo'shib yoziladi.




metylbenzol



etilbenzol



propilbenzol




izopropilbenzol

Benzol gomologlari alkilbenzollar deyiladi. Benzol uglevodorodlarni bir atom vodorodga kam yozilsa, bir valentli aromatik radikallar yoki arillar (Ar bilan belgilanadi) hosil bo'ladi.

Masalan, benzoldan  $C_6H_5$  — fenil (uni ph bilan belgilanadi), toluoldan  $CH_3C_6H_4$  — tolil, ksiloldan  $(CH_3)_2C_6H_4$  — ksilillar hosil bo'ladi. Benzolning ikki valentli radikali  $C_6H_5^+$  fenilen deb yurtiladi;  $C_6H_5-CH_2$  — benzil radikali deyiladi.

Benzol halqasidagi hamma uglerod va vodorod atomlari bir xil qiymatga ega bo'lganligi uchun uning bir atom vodorodi o'miga almashigan hosilalari bitta izomerga ega bo'ladi.




Benzol halqasidagi ikkita vodorod atomlari alkillarga o'rn almashsa, ularning joylanishiga qarab uch xil izomer hosil bo'ladi.


Agar alkillar yonma-yon turgan uglerod atomlarida joylashgan bo'lsa, *ortho*-izomer ( $\leftrightarrow\sigma$  harfi bilan belgilanadi) deyiladi.

Agar alkillar bitta uglerod atomi bilan ajralgan uglerod atomlariga joylashgan bo'lsa, *meta*-izomer ( $\leftrightarrow m$  harfi bilan belgilanadi) deyiladi.


Agar alkillar ikkita uglerod atomi bilan ajralgan uglerod atomlariga joylashgan bo'lsa, *para*-izomer ( $\leftrightarrow p$  harfi bilan belgilanadi) deb aytiladi.



**o-ksilol**  
(1,2- dimetilbenzol)



**m-ksilol**  
(1,3- dimetilbenzol)




**p-ksilol**  
(1,4- dimetilbenzol)

**Olinish usullari.** Aromatik uglevodorodlar, asosan, toshko'mir va neftni qayta ishlab olinadi.


Metalluriya sanoatida ishlatiladigan koks olish uchun toshko'mir yuqori temperaturada quruq haydaladi. Natijada koks gazi, toshko'mir smolasi, ammiakli suv va koks hosil bo'ladi. Koks gazi yonilg'i va xomashyo sifatida ishlatiladi. Toshko'mir smolasini maxsus haydaydigan asbobda qayta haydar fraksiyalarga ajratiladi. Fraksiyalarni qayta ishlab benzol, toluol, ksilol, naftalin, antratsen, fenantren va boshqa aromatik uglevodorodlar olinadi.

Arenlar quyidagi usullar bilan sintez qilinadi:


1. 1877- yilda Sh. Fridel — D. Krafts usuli bo'yicha ham laboratoriyyada, ham sanoatda aromatik uglevodorodlar aromatik yadroga aluminiy xlorid ishtirokida alkil xlorid ta'sir ettirib olinadi.



Bu reaksiyada dastlab metil xlorid bilan aluminiy xlorid kompleks birikma hosil qiladi. So'ngra bu birikma benzolga ta'sir etlib, karboniy ioniga, karboniy ioni esa o'zidan vodorod protonini chiqarib metilbenzol yoki toluolga aylanadi:



2. Asetilen uglevodorodni polimerlab olinadi. N. D. Zelinskiy va B. A. Kazanskiy uch molekula asetilendenan benzol olganlar.



3. Aromatik karbon kislotalarning tuzlariga o'yuchi natriy ta'sir ettirib olinadi.



**Fizik xossalari.** Aromatik uglevodorodlarning dastlabki vakillari harakatchan, rangsiz, o'ziga xos hidga ega bo'lgan suyuqlik. Ularning zichligi va sindirish ko'rsatkichi birliklari alkan va alkenlardan yuqori (6-jadval).

Ular suvdan yengil, suvda erimaydi, organik erituvchilarda yaxshi eriydi, tarkibida uglerod miqdori ko'p bo'lgani uchun tutab yonadi.

**Kimyoviy xossalari.** Aromatik uglevodorodlarning birinchi va ikii benzol bo'lib, uning kimyoviy xususiyati to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlardan tubdan farq qiladi. Bu uglevodorodlar to'yingan uglevodorodlardan vodorod atomi 8 taga kam bo'lib, to'yinmagan uglevodorodlar kabi birikish reaksiyasiga kirishsa kerak, deb taxmin qilingan edi. Ammo oddiy sharoitda bromli suv va kaliy permanganat eritmasining rangi benzol ta'sirida o'zgermaydi. Demak, aromatik uglevodorodlarga birikish reaksiyasidan ko'ra, o'r in olish reaksiyasi xarakterlidir. Umuman, aro-

## Aromatik uglevodorodlarning fizik xossalari

Nomi	Formulasi	Suyuqlanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	Zichligi, $d_4^{20}$	$n_{D}^{20}$
Benzol	$C_6H_6$	5,5	80,1	0,8791	1,5067
Toluol	$C_6H_5CH_3$	-95	111	0,8670	1,4900
o-ksilol	$1,2-(CH_3)_2C_6H_4$	-25	144	0,8802	1,5050
P-ksilol	$1,4-(CH_3)_2C_6H_4$	13	138	0,8610	1,4950
m-ksilol	$1,3-(CH_3)_2C_6H_4$	-48	139	0,8642	1,4970
Etilbenzol	$C_6H_5C_2H_5$	-95	137	0,8669	1,4970
Propilbenzol	$C_6H_5C_3H_7$	-102	159	0,8620	1,4920
Naftalin	$C_{10}H_8$	80	218	-	-

matik uglevodorodlar bilan boradigan reaksiyalarni uch tipga bo'lish mumkin: o'rin olish, birikish va oksidlash reaksiyaları.

**O'rin olish reaksiyaları.** Benzol halqasidagi vodorod atomi yoki atomlar gruppasi boshqa atom yoki atomlar gruppasi bilan o'rin olish reaksiyasiga kirishishi ularning tabiatiga qarab uch xil bo'ladi:

a) elektrofil o'rin olish reaksiyasi:



b) nukleofil o'rin olish reaksiyasi:




c) radikal o'rin olish reaksiyasi:




Elektrofil o'rin olish galogenlash, nitrolash va sulfolash reaksiyaları misolda ko'rildi.


1. Katalizator Lyuis kislotasi ( $FeCl_3$ ,  $AlCl_3$ ) ishtirokida benzolga xlor ta'sir ettirilsa, xlorbenzol hosil bo'ladi.




Reaksiya mexanizmi quyidagicha:




2. Benzolga nitrat va sulfat kislotalar aralashmasini ta'sir ettirib, nitrobenzol olinadi.




Reaksiya mexanizmi quyidagicha:




3. Benzolga konsentrangan sulfat kislota ta'sir ettirib benzosulfokislota olinadi.



Reaksiya mexanizmi quyidagicha:




F. Beylshteyn har xil sharoitda toluolga xlor ta'sir ettirib, benzol halqasidagi vodorod atomini va benzol tashqarisidagi radikalning vodorod atomi xlor atomiga o'rin almashganini ko'rsatdi.




*o*- xlortoluol

benzilxonid


Toluolga nitrat va sulfat kislota aralashmasi ta'sir ettirilganda, *o*- va *n*- nitrotoluol hosil bo'ladi:



**Birikish reaksiyasi.** 1) maxsus sharoitda, katalizatorlar (Ni, Pt, Pd) ishtirokida benzol molekulasiga uch molekula vodorod birikib, siklogeksan hosil bo'ladi.




2) quyosh nuri yoki ultrabinafsha nur ostida benzolga xlor ta'sir ettirilganda geksaxlorsiklogeksan (geksaxloran) hosil bo'ladi:




Geksaxloran insektitsid xususiyatiga ega bo'lib, qishloq xo'jaligida zararkunandalarga qarshi kurashishda ishlataladi.



**Oksidlanish reaksiyasi.** Aromatik uglevodorodlar ma'lum sharoitda oksidlanadi: 1) benzolga ozon ta'sir ettirilganda triozonid hosil bo'ladi va u suv ta'sirida uch molekula glioksalga parchalanadi:



2) yuqori temperatura va katalizator V<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, ishtirokida benzol oksidlanib, malein kislota hosil bo'ladi.



3) benzol gomologlari yon zanjir hisobiga kaliy permanganatning suvli eritmasida oson oksidlanib, bir asosli va ikki asosli aromatik kislotalar hosil bo'ladi.



Oksidlanish reaksiyasi yordamida aromatik uglevodorodlarning tuzilish formulasini aniqlash mumkin;


4) benzol va uning gomologlari havoda tutab yonadi.



Benzol gomologlari yoki hosilalari o'rinn olish reaksiyasiga kirishib har xil izomerlar hosil qilishiga sabab, benzol halqasidagi o'rinnbosarlarning yo'naltiruvchi xususiyatidir.

O'rinnbosarlarning yo'naltiruvchanlik xususiyatiga qarab ikki turga bo'linadi: birinchi tur o'rinnbosarlarga -OH, -NH<sub>2</sub>, -NHR, -NR<sub>2</sub>, -OR, -R, -SH, -SR, -NHCOR, -Cl lari kirib, ular o'zidan keyin benzol halqasiga kelayotgan atom yoki atomlar gruppasini halqaning orta- va para- holatlariga yo'naltiradi. Shuning uchun ham ular orta-para- oriyentatlar deb ataladi.

**Ikkinci tur o'rinbosarlarga**  $-NO_2$ ,  $-SO_3H$ ,  $-CHCl_2$ ,  $-CHO$ ,  $-COOH$ ,  $-COOR$ ,  $-CN$  lar kirib, ular kelayotgan atom yoki atomlar gruppasini halqaning *meta*- holatiga yo'naltiradi, shuning uchun ular *meta*- oriyentatlar deyiladi. Benzol halqasidagi o'rinbosarlarni yo'naltirish xususiyatlariga asoslanib, reaksiyaning qanday borishini oldindan bilish va moddalarning kerakli izomerlarni sintez qilish mumkin. Bu ikki tur o'rinbosarlardan foydalanib, nitroxlorbenzolning uchta izomerini hosil qilish mumkin:




Benzol halqasiga birorta o'rinbosar joylanishi bilan benzol molekulasiidagi atomlarning elektron zichligi buziladi va o'rinbosarlarning turiga qarab elektron zichligi qayta taqsimlanadi.

Birinchi tur o'rinbosarlarning just elektronlari ta'sirida benzol halqasining *orta*- va *para*- holatdagi atomlarida elektronlar zichligi ortadi, natijada ularning reaksiyaga kirishish xususiyati kuchayib, atom yoki atomlar gruppasi *orta*- hamda *para*- holatlarga joylashadi.

Benzol halqasida ikkita o'rinbosar bo'lса, u holda uchinchi atom yoki atomlar gruppasini ma'lum holatga yo'naltirish uchun gohida ikki o'rinbosar ma'lum bir holatga yo'naltiriladi, gohida kelishilmagan holda har xil holatga yo'naltiriladi.


Masalan, *m*-dinitrobenzolni nitrolash kelishilgan yo'naltirish bo'lib, 1, 3, 5-trinitrobenzol hosil bo'ladi:



## Ko'p halqali aromatik uglevodorodlar

Molekulada bir necha benzol halqasini saqlagan aromatik birkmalarga ko'p halqali aromatik uglevodorodlar deyiladi. Bu uglevodorodlarning ichida eng ahamiyatligi naftalin, antratsen va fenantren hisoblanadi.

**Naftalin.** Toshko'mir smolasini 210—230°C oralig'ida haydalgan fraksiyasidan olinadi. U yaltiroq kristall modda, 80°C da suyuqlanadi, suvda erimaydi, o'ziga xos hidga ega. Naftalin molekulasiidagi vodorod atomlari reaksiyaga kirishish xususiyatiga qarab ikkita izomerga bo'linadi. Molekuladagi 1,4,5, 8 uglerod atomlaridagi vodorodlar  $\alpha$ -izomer, 2,3,6,7 uglerod atomlaridagi vodorodlar esa  $\beta$ -izomer hisoblanadi.




Naftalin ham galogenlash, sulfolash va nitrolash reaksiyaliga kirishadi.



Naftalining hosilalaridan bo'yqlar va dori-darmonlar olinadi. Naftalin sof holda uy-ro'zg'orda jundan qilingan buyumlamni kuyadan saqlashda ishlatalidi.

**Antratsen.** U  $C_{14}H_{10}$  toshko'mir smolasini 270°C dan yuqori temperaturada haydalgan fraksiyasidan olinadi. Antratsen kristall modda, 217°C da suyuqlanadi. U oksidlanganda antraxinon hosil bo'ladi:



Antraxinon sariq kristall modda, 286°C da suyuqlanadi. U alizarin bo'yoq moddasini olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

Tabiiy gaz, neft, toshko'mir, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi mahsulotlari organik birikmalarni olishda asosiy xomashyo manbalari hisoblanadi.

O'zbekistonda Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari bor. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydalii qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar mavjud.

### **Tabiiy gaz**

Tabiiy gaz sanoati yildan yilga rivojlanib bormoqda. Qidirib topilgan Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi-g'arbiy Hisor, Surxon-daryo va Farg'ona mintaqalaridagi gaz konlari gazining hajmi 2 trillion kubometrga yetadi. Respublikamizda gazni qayta ishlaydig'an ikkita zavod (Sho'rtan va Muborak) ishlab turibdi.

Gazdan polimer materiallar — polietilen, polivinilxlorid, nitril, akril kislota va undan nitron tolasi olish mumkin.

O'zbekistonda gaz sanoatining rivojlanishi juda ko'p shahar va qishloqlarni gazlashtirish, o'nlab sanoat korxonalarini gaz bilan ishlashga o'tkazish, bir necha yirik issiqlik elektr stansiyalarini qurish imkonini berdi. O'zbekiston gazi gaz quvurlari orqali qo'shni respublikalanga ham yetkazib berilmoqda.

Tabiiy gazning 94—98% ini metan, 2—6 % ini etan, propan va butan tashkil etadi. U eng yaxshi yoqilg'i, to'liq yonadi va juda katta issiqlik beradi (11.000—12.000 kkal/kg). Bu jihatdan boshqa yoqilg'ilardan farq qiladi (toshko'mir 7000—8000 kkal, kerosin 10000 kkal).



Hozirgi vaqtida tabiiy gaz kimyo sanoatida har xil sintetik va organik birikmalar olishda asosiy xomashyo bo'lib qolmoqda.

Metanni 1400°C gacha qizdirib asetilen va vodorod olinadi.




Elektrkimyo kombinatlarida asetilenden sirka aldegid, benzol, sirka kislota, etil spirit, kauchuk va boshqa moddalar, vodoroddan esa ammiak, nitrat kislota, kaliy, natriy va ammoniyli selitralar olinadi. Metanni suv bilan 800°C gacha qizdirib is gazi va vodorod olinadi. Bu aralashma sintez gaz deyiladi.



Sanoatda metil spirit sintez gazdan olinadi:



Tabiiy gazni oksidlab formaldegid olinadi.



Formaldegidga fenol ta'sir ettirib fenolformaldegid smola hosil qilinadi. Bu smoladan polimer materiallar olishda foydalaniлади.

Tabiiy gazdan Navoiy va Chirchiq elektrkimyo kombinatlarida qishloq xo'jaligi uchun eng zarur bo'lgan organik o'g'itlar (karbamid-mochevina) olinadi.

**Neft.** Neft to'q jigarrang moysimon suyuqlik bo'lib, uglevodorodlarning asosiy manbayidir. Neft tarkibidagi to'yingan, karbosiklik va aromatik uglevodorodlarning miqdori qazib olinadigan joyiga qarab har xil bo'ladi.

Respublikamizning Farg'ona, Andijon, Namangan, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo va boshqa mintaqalarida 160 dan ortiq neft konlari mavjud.

Yildan yilga avtomobil va aviatsiya transportini ishlab chiqarish rivojlanmoqda. Bu transportlarni benzin va kerosin yonilg'ilarini bilan neft sanoati ta'minlaydi.

Neftni qayta ishlashda kreking usullari qo'llamb, benzin mahsuloti olish oshirildi. Kreking inglizcha so'z bo'lib, «parchalash» demakdir. Demak, bu usulda yuqori molekulali uglevodorodlar kichik molekulalarga parchalanadi:



Sanoatda termik kreking va katalitik kreking usullari qo'llanadi.

Termik krekinglashda yuqori molekulali uglevodorodlar 450°C dan yuqori temperaturada va yuqori bosim ostida parchalanadi.

Katalitik krekinglashda esa uglevodorodlarni parchalash jarayoni alumosilikat katalizatorlari ishtirokida  $450^{\circ}\text{C}$  dan pastroq temperaturada va atmosfera bosimiga yaqin bosim ostida olib boriladi.

Bu usullar bilan benzin miqdori 80 % gacha oshirildi.

Neftni haydash natijasida ( $150^{\circ}\text{C}$  gacha) birinchi fraksiyada gazolin olinadi. Gazolini qayta haydab petroliy esir, aviatson benzin, birinchi va ikkinchi sort benzinlar olinadi. Ikkinchi fraksiyada ( $150$ — $300^{\circ}\text{C}$  gacha) har xil tarkibga ega bo'lgan kerosin olinadi. Uchinchi fraksiyada —  $300^{\circ}\text{C}$  dan yuqori temperaturada mazut olinadi. Mazutni qayta ishlab birinchi navbatda surkov moddasi olinadi. Solyar moyi yonilg'i sifatida va vazelin moyi tayyorlashda ishlatiladi. Surkov moyidan mashina qismlari va mexanizmlarini moylash uchun moylar olinadi. Gudron yo'llarni asfalt qilishda ishlatiladi.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishi respublikaning neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirishga imkon yaratdi.

Neftni qayta ishlash jarayonida ko'p miqdorda etilen, propilen, butilen, amilenlar hosil bo'ladi. Ulardan sintetik materiallar — plastmassa, kauchuk, spirt, aldegid, kislota va yuvuvchi moddalar olinadi.

**Toshko'mir.** O'zbekiston katta ko'mir zaxiralariga ega. U geologik zaxiralar bo'yicha O'rta Osiyoda ikkinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda ko'mir Angren, Shargun va Boysun konlaridan qazib chiqariladi. Ularning umumiy zaxirasi — 2 milliard tonnaga yetadi.

Toshko'miri quruq haydash yo'li bilan smola olinadi. Toshko'mir smolasi tarkibida 400 dan ortiq aromatik va geterosiklik birikmalar bo'ladi. Undagi organik birikmalar fraksiyalarga bo'lib ajratiladi.

Birinchi fraksiyada (yengil moy fraksiyasi  $170^{\circ}\text{C}$  gacha) benzol, toluol, ksilot, tiofen, uglerod sulfid, piridin va boshqa moddalar olinadi.

Ikkinchi fraksiyada (fenol fraksiyasi  $170$ — $210^{\circ}\text{C}$ ) fenol, krezollar, naftalin, inden, kumaron, tarkibida azot va oltingugurt bo'lgan moddalar olinadi.

Uchinchi fraksiyada (naftalin fraksiyasi 210—230°C) naftalin, metilnaftalin, tionasten, indol va boshqa moddalar olinadi.

To'rtinchi fraksiyada (yutib olish fraksiyasi 230—270°C) naftalining hosilalari (asenaften, fluoren, indol va boshqa moddalar) olinadi.

Beshinchi fraksiyada (antratsen fraksiyasi 270—360°C) antratsen, fenantratsen, karbazol, parafin va boshqa moddalar olinadi.

Oltinchi fraksiya (toshko'mir pik fraksiyasi 360°C dan yuqori temperaturada) — parafinlar, piren, xizen va boshqa moddalar olinadi.

Olingan moddalarning ko'pi va ular asosida olingan preparatlar tibbiyotda va qishloq xo'jaligidagi keng ishlatalidi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari.** Qishloq xo'jaligida yetishiriladigan jami mahsulotlar organik birikmalarning asosiy manbayi hisoblanadi.


O'zbekiston paxta, xom ipak, lub ekinlar, qorako'l va guruch yetishtirishda dunyoda yetakchi o'rnlarda turadi.

Paxta tolasining 90—92 % ini kletchatka (selluloza) muddasi, donlarining 65—75 % ini kraxmal, qandlavlagining asosini saxaroza tashkil etadi. Yetishtirilayotgan poliz ekinlari, bog'dorchilik mevalari tarkibida organik kislotalar, uglevodlar, vitaminlar va boshqa organik birikmalar mavjud. Masalan, olmada olma kislota, limonda limon kislota bilan limonen terpen uglevodorodi, uzumda — glukoza, uzum kislota va boshqa moddalar bor.

**O'rmon xo'jaligi mahsuloti** bo'lgan daraxtlarning yog'och qismini maydalab quruq haydash natijasida metil spirit (yog'och spirit), aseton, sırka kislota, fenollar, furfurol va boshqa organik birikmalar olinadi. O'rmon atroflarida bitmas-tuganmas boylikka ega bo'lgan shifobaxsh o'simliklar o'sadi. Ularning bargi, guli, mevasi, urug'i, po'stlog'i va ildizlaridan dori-darmon sifatida foydalanishdan tashqari, ulardan biologik aktiv organik birikmalar — efir moylari, yog'lar, oqsillar, uglevodlar, terpenlar, glikozidlar, alkaloidlar, vitaminlar ajratib olinadi.


Organik modda manbalariga hayvonot olami, suvosti o'simliklari va hayvonlari ham kiradi. Ulardan oqsillar, vitaminlar, azot va galoidli organik moddalar olinadi.

bilan bog'langan bo'lса, birlamchi spirit, ikkilamchi uglerod atomi bilan bog'langan bo'lса, ikkilamchi, uchlamchi uglerod atomi bilan bog'langan bo'lса, uchlamchi spirit deyiladi.




**Tabiatda ushrashi va olinish usullari.** Spirtlardan metanol va etanol kam miqdorda sof holatda, o'simliklardan olinadigan esir moylarda va o'simlik a'zolarida uchraydi. Spirtlar oddiy va murakkab esiflar holatida tabiatda keng tarqalgan. Spirtlar asosan quyidagi usullarda olinadi:

1. Murakkab esiflar gidroliz qilib olinadi:




2. Galoid birikmalarga ishqorlarning suvli eritmasi ta'sir ettirib olinadi:



3. Etilen uglevodorodlarga temperatura va katalizator — rux xlorid ishtirokida suv ta'sir ettirib olinadi:



Sanoatda metanol is gazidan sintez qilib olinadi:



Sanoatda etil spirit kraxmal (guruch, bug'doy, kartoshka va hokazo) va kletchatka (o'rmon xo'jalik chiqindilari, g'o'zapoya) saqlaydigan o'simlik xomashyolarini bijg'itish yo'li bilan olinadi:





Kletchatka saqlaydigan o'simliklardan olingen etil spirit «gidroliz spirit» deb ataladi, chunki uning tarkibida 0,3—0,5% gacha metil spirit bo'ladi. Shuning uchun «gidroliz spirit» sintetik kauchuk olishda ishtatiladi.

**Fizik xossalari.** Spirtlarning birinchi to'rt vakili harakatchan suyuqlik bo'lib o'ziga xos hidga ega. Spirtlarning molekular massasi ortishi bilan qaynash temperaturasi ham ortib boradi (7-jadval).

7- jadval

### Spirtlarning fizik xossalari

Nomi	Formulasi	Su-yuqli-nish tem-pe-ra-turasi, °C	Qay-nash tem-pe-ra-turasi, °C	Nisbiy zichligi d <sub>4</sub>
Metanol	CH <sub>3</sub> OH	-97	65	0,7924
Etanol	C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> OH	-117	78	0,7891
Propanol-1	CH <sub>3</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub> OH	-127	97	0,8044
Propanol-2	CH <sub>3</sub> —CHOH—CH <sub>3</sub>	-88	82	0,7849
Butanol-1	CH <sub>3</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub> OH	-89	118	0,8096
Butanol-2	CH <sub>3</sub> —CH <sub>2</sub> —CHOH—CH <sub>3</sub>	-94	100	0,8078
2-metil-propanol-1	CH <sub>3</sub> —CH(CH <sub>3</sub> )CH <sub>3</sub> OH	-105	108	0,8008
2-metil-propanol-2	CH <sub>3</sub> —C(CH <sub>3</sub> )CH <sub>3</sub> OH	25	83	0,7882


Spirtlarning qaynash temperaturasi, shu spirit molekulasi dagi radikal asosida hosil bo'lgan galoid birikmaning va oddiy esirning qaynash temperaturasidan doimo yuqori bo'ladi. Masalan,

Etil spirit C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>OH 78°C

Dietil esir C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>—O—C<sub>2</sub>H<sub>5</sub> 35°C

Etil xlorid C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>Cl 12,4°C

Spirt molekulasining tuzilishi suvning molekula tuzilishi o'xshash bo'lib, uglevodorod radikali va vodorod atomi kislota atomi bilan bir chiziqda yotmasdan, bir-biri bilan ma'lum bur chak ostida joylashadi. Buning sababi, molekuladagi kislota atomi erkin just elektronlarga ega bo'lishi uchun ikkinchi molekuladagi musbat zaryadli vodorod atomini o'ziga biriktiradi. Bu birikma elektrostatik bo'lib, vodorod bog' hosil qiladi (formulada uchta nuqta bilan ko'rsatiladi). Natijada spirtlar assotsilangan (bir-biriga yopishgan) molekulalarni tashkil etadi:




Shuning uchun ham spirlarning qaynash temperaturasi yuqorib o'ladi. Asosiy energiya vodorod bog'ning uzilishiga va molekulalarning bir-biridan ajralishiga sarflanadi.

**Kimyoviy xossalari.** Spirtlar kislota va asos xossaga ega emas shuning uchun ularning suvli eritmalari neytral reaksiyaga ega.

Spirlarning kimyoviy xossasi molekulani tashkil etgan atom va atomlar gruppasining reaksiyaga kirish xususiyatiga bog'liq.

Masalan, etil spirt molekulasida reaksiyaga kirishadigan atom va atomlar gruppasini uch gruppaga bo'lish mumkin:




1. Gidroksil gruppating vodorod atomi orqali boradigan reaksiyalar.

2. Gidroksil gruppa orqali boradigan reaksiyalar.

3. Radikalagi vodorod atomlari ishtirokida boradigan reaksiyalar.

Gidroksil gruppating vodorod atomi orqali boradigan reaksiyalar. Gidroksil gruppating vodorod atomi harakatchan bo'lgan uchun o'tin olish reaksiyalariga oson kirishadi:


a) gidroksil gruppating vodorod atomi metallga o'rIN almashtib alkagolyatlar hosil qiladi.



Alkagolyatlar beqaror bo'lgani uchun tezda havodagi nam ta'sirida parchalanib spirt va ishqor hosil qiladi.




b) gidroksil gruppating vodorod atomi organik kislota qoldiqlari (radikallar) bilan o'rIN almashib murakkab efirlar hosil qiladi.



### Spirlarning gidroksil gruppasi orqali boradigan reaksiyalar

1. Spirtlar galoid kislotalar yoki fosforining galoidli birikmalari bilan qo'shib qizdirilsa, galoid alkillar hosil bo'ladi:



2. Degidratatsiya reaksiyalar. Ikki molekula spirt konsentrangan sulfat kislota ishtirokida qizdirilsa, bir molekula suv ajralib chiqishi hisobiga oddiy efir hosil bo'ladi:



Bu reaksiyada ham hidroksil gruppasi, ham hidroksil gruppadagi vodorod atomi xususiyatlarini ko'rish mumkin.




Spirtni ko'p miqdordagi konsentrangan sulfat kislota ishtirokida qizdirilsa, bir molekula spirtdan bir molekula suv chiqishi hisobiga to'yinmagan uglevodorod — etilen hosil bo'ladi.



Suv molekulasining ajralib chiqishi bilan ketadigan reaksiyalar degidratatsiya reaksiyasi deyiladi.

**3. Oksidlanish reaksiyasi.** Spirlarning oksidlanish reaksiyasi da ham radikal vodorod atomlari reaksiyada qatnashadi.

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirlar bir xil oksidlansa, birlamchi spirlardan aldegidlar, ikkilamchi spirlar esa oksidlanmaysa. Ammo uchlamchi spirlar kuchli oksidlovchilar ta'sirida oksidlansa, uglerodlar o'rtasidagi bog' uziladi va spirtga nisbatan kichik molekulalar hosil bo'ladi:



### Etil spirtning yonishi



**Ishlatilishi.** Metil spirt asosan, erituvchi sifatida lok-bo'yoq moddalar tayyorlashda, formaldegid olishda va har xil moddalar sintez qilishda xomashyo sifatida ishlatiladi.

Etil spirt xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida ishlatiladi.

Kimyo sanoatida sintetik kauchuk va bo'yoq moddalar olishda, farmatsevtika sanoatida, dietil efir (narkoz uchun), etil xlorid (ayrim joyni og'riq sezmaydigan qilish uchun) larni olishda va parfumeriya sanoatida etil spirt ko'p miqdorda ishlatiladi. Ilmiy-

teleshishah instituti laboratoriyalarda analiz qilish va sintez ishlari uchun suvsizlantirilgan (absolut) spirit ishlatiladi.


Absolut spirit tayyorlash uchun spirit suvsizlantirilgan ohak bilan 6–8 soat davomida qaynatiladi, so'ngra haydaladi.

Oziq-ovqat sanoatida ichimliklar asosini etil spirit tashkil etadi. Etil spirit narkotik bo'lib, organizmga kuchli ta'sir etadi. U ko'p iste'mol qilinganda asab tizimi, ovqat hazm qilish a'zolarini va yurak qon-tomirlarining ish faoliyati ishdan chiqib eg'ir kasalliklarga olib keladi.


### Ikki atomli spirtlar

To'yingan uglevodorodlar tarkibidagi ikkita uglerod atomida-  
gi ikkita vodorod atomi o'miga gidroksil gruppasi joylashsa, ikki atomli spirlar yoki glikollar hosil bo'ladi. «Glikol» — grekcha su'z bo'lib, shirin demakdir.

**Olinish usullari.** 1. 1856- yilda fransuz kimyogari A. Vyurs dixloretanni gidroliz qilib etandiol olgan:



2. Rus kimyogari E.E. Wagner olefinlarga katalizator ( $\text{Cr}_2\text{O}_3$ ) ishtirokida peroksid ta'sir ettihib, ikki atomli spirit olgan



**Fizik va kimyoviy xossalari.** Glikollar rangsiz, hidsiz, shirinroq ta'mga ega bo'lgan quyuq suyuqlikdir. Ular suv va spirit bilan yaxshi aralashadi. Bir atomli spirlarnikiga nisbatan ikki atomli spirlarning qaynash temperaturasi doimo yuqori bo'ladi.


Masalan, etil spirit  $78^{\circ}\text{C}$  da qaynasa, etilenglikol  $197^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi.

Ikki atomli spirlarning kimyoviy xossalari bir atomli spirlarnikiga o'xshash bo'lib, faqat reaksiya ikki bosqichda ketadi.

Glikollar ishqoniy metallar bilan ikki xil glikolatlarni hosil qiladi.

Trinitroglitserinning portlovchilik xususiyatidan foydalanib, dina mitlar tayyorlanadi.


Glitserin  $\text{KHSO}_4$  ta'sirida yuqori temperaturada degidratlanib ikki molekula suv ajralib chiqishi natijasida akrolein hosil bo'ladidi.




Glitserin gidroskopik bo'lgani uchun kosmetikada, ko'n va to'qmachilik sanoatida materiallarni yumshoq va elastik bo'lishi uchun ishlataladi. Farmatsevtikada undan har xil surkov moylari va doridarmonlar tayyorlanadi. Glitserindan olingen smolalar lok-bo'yosanoatida ishlataladi. Avtomobil sanoatida glitserin «antifriz» tarkibiga kiritiladi.

### Fenollar


Benzol halqasini tashkil etgan uglerod atomlarida gidroksil gruppasiqlagan birikmalar fenollar deyiladi. Fenollar gidroksil gruppasi soniga qarab, bir atomli, ikki atomli va uch atomli fenollarga bo'linadi:



bir atomli




ikki atomli




uch atomli

Fenol va uning gomologlari yog'och va toshko'mirni quruq haydalganda hosil bo'lgan smolalardan olinadi.


Fenol benzolsulfokislota tuzlariga yuqori temperaturada ishqot'a'sir ettirib olinadi:



Sanoatda fenol xlorbenzolni katalizator (mis tuzlari) ishtirokida o'yuvchi natriy eritmasi ta'sirida gidrolizlab olinadi.




Alkil benzollarni oksidlab gidroperoksidlar hosil qilinadi, so'ngra ujar kislota ta'sirida fenol va asetonga parchalanadi.




**Fizik xossalari.** Fenol o'tkir hidli suvda yomon eriydigan, rangiz kristall bo'lib,  $42,3^\circ\text{C}$  da suyuqlanib,  $182^\circ\text{C}$  da qaynaydi. U havoda turganda bir qismi oksidlanib kristall pushti, so'ngra qo'ng'ir rangga ega bo'ladi.


Fenol suvda eritilganda ikkita qatlam hosil bo'ladi: pastki qatlam — suvning fenolda erigan qismi, yuqori qatlam — fenolning suvda erigan qismi. Temperatura ostida bu ikki qatlam qo'shilib ketadi. Fenol temir (III) xlorid bilan binafsharang hosil qiladi, shuning uchun bu reaksiya fenolning sifat analizida ishlataladi.




**Kimyoviy xossalari.** Fenol kislota xususiyatiga ega, buning sababi kislorod atomidagi erkin just elektronlar benzol yadrosiga tortilishi



natijasida kislorod atomida elektronlar zichligi kamayadi va gidroksil gruppadagi vodorod atomi harakatchan holatda bo'lib qoladi. Shuning uchun, ularning dissotsilanish konstantasi suvnikidan yuqori bo'lib, o'yuvchi natriy eritmasi bilan fenolatlar hosil qiladi.




Molekulada kislorod atomidagi erkin juft elektronlarning benzol yadrosiga siljishi natijasida benzol halqasining *orta-* va *para*-holatlarida elektron zichligi ortadi, shuning hisobiga o'rinn olish reaksiyalari ro'y beradi.



Pikrin kislota, kislota kuchi bo'yicha xlorid kislotaga yaqin turadi, bunga sabab molekuladagi nitrogruppalar kislorod atomidan elektronlarni benzol yadrosiga tortadi. Oqibatda gidroksil gruppadagi kislorod bilan vodorod o'rtasidagi oddiy bog' kuchsizlanib qoladi. Natijada, molekula oson dissotsilanadi.


Pikrin kislota asos xususiyatiga ega bo'lgan moddalar bilan tuz hosil qiladi. Ayniqsa, alkaloidlarni identifikasiya qilishda katta ahamiyatga ega.

Fenol oksidlanganda, dastlab gidroxinon, so'ngra benzoxinon hosil bo'ladi:




Fenolga formaldegid ta'sir ettirilganda miqdoriga qarab reaksiya ikki xil yo'nalishda ketadi.


Fenol miqdori ko'p bo'lsa, novolak smolasini hosil bo'ladi:




Formaldegid miqdori ko'p bo'lsa, rezol smolasini hosil qiladi:




Polikondensatlanish jarayoni qizdirish bilan davom ettirilisa, rezol molekulalari kondensatlanadi va qattiq polimer — rezit hosil bo'ladi.




**Ikki atomli fenollar quyidagi uch xil izomerga ega:**



pirokatexin  
(*o*-dioksibenzol)




rezorsin  
(*m*-dioksibenzol)




hidroxinon  
(*p*-dioksibenzol)


**Uch atomli fenol uch xil izomerga ega:**



pirogallol  
(1,2,3-trioksibenzol)  
 $t_{\text{mp}} = 133^{\circ}\text{C}$




oksigidroxinon  
(1,2,4-trioksibenzol)  
 $t_{\text{mp}} = 140,5^{\circ}\text{C}$



floroglutsin  
(1,3,5-trioksibenzol)  
 $t_{\text{mp}} = 219^{\circ}\text{C}$

**Ishlatilishi.** Fenol ko'p mikroorganizmlarni o'ldiradigan modda. Tibbiyotda uning 3–5% li eritmasi (karbol kislota) dezinfeksiya vositasi sifatida ishlatiladi. Ko'pgina plastmassa va polimerlar olishda xomashyo hisoblanadi. Fenol asosida olingan preparat fenolftalein laboratoriya da indikator sifatida, tibbiyotda esa ichni yumshatuvchi (sungi) dari sifatida ishlatiladi.



7-rasm. Etanoldan brometan olish.

Pirokatexning hosilalari — gvayakol, evgenol, izoevgjenol va adrenalinlur tibbiyotda keng ishlatiladi. Gidroxinon va pirogallol fotografiyada ochiltirgich sifatida ishlatiladi.

### Laboratoriya ishlari

#### Etanoldan brometan olish

Vyurs kolbasiga 6,5 g kaliy yoki natriy bromid solib, uning ustiga 10 ml distillangan suv va 3 ml etil sperti qo'shing. Havo sovigichning uchini muzli suv solingan kolbaga tushiring. So'ng ra aralashmaga 3 ml kons.  $\text{H}_2\text{SO}_4$  tomizing va ohistalik bilan qizdiring. Suv ostida yig'ilgan moysimon brometanni bo'lувчи votonka orqali ajratib oling (7-rasm).

#### Etil spirtdan yodoform olish

Probirkaga 10 % li natriy gidroksid eritmasidan 5 ml quyib, yodning spirtdagi eritmasidan 1–2 ml qo'shing va aralashmani qizdiring. Yodning rangi yo'qoladi va sovigandan so'ng yodosiform kristallari hosil bo'ladi.

#### Mis glitserat olish

Probirkaga mis kuperosi eritmasidan 0,5–1 ml quyib, unga 10% li natriy ishqoridan 1 ml qo'shing. Bunda mis (II) gidrosidning favorang cho'kmasi hosil bo'ladi. Olingan bu aralashmaga 1 tomchi glitserin qo'shib chayqatilsa, mis (II) gidroksid cho'kmasi yo'qolib, eritma zangori rangga bo'yaladi. Bu mis glitseratning hosil bo'liganligini ko'rsatadi.

#### Dietil efir olish

Gaz chiqarish nayi o'matilgan probirkaga 2 ml etil sperti va ehtiyyotlik bilan 2 ml konsevtlangan sulfat kislota quying. Aralashmani qaynaguncha ehtiyyotlik bilan qizdiring va yengil hidlab ko'ring, dietil efir hidini sezasiz.

#### Fenolga natriy ishqorining ta'siri

0,1 g fenolni probirkaga solib, uning ustiga 2–3 ml 10% natriy ishqor eritmasi quying va chayqating, natijada fenol natriy fenolat hosil qilib eriydi. Hosil bo'lgan fenolat ustiga 10% HCl eritmasidan biroz qo'shilsa, fenol qaytadan yog'simon tomchi holida ajralib chiqadi.

#### Tribromfenol olish

Probirkaga 3–4 ml brom suvi eritmasidan quyib, unga tomchilib fenol eritmasidan oq cho'kma paydo bo'lunga qadar qo'shing. Hosil bo'lgan cho'kma 2, 4, 6 - tribromfenoldir.

**Fenolga temir (III) xloridning ta'siri.** Probirkaga fenol masidan 2–3 ml quyib, unga 1% li temir (III) xlorid eritmasidan 1–2 tomchi tomizilganda fenol uchun xarakterli binafsiz rang bo'yali sherk bo'y beradi. Bunda temirning murakkab kompleks birikmasi hosil bo'ladi.



### Savol va mashqlar

1. Qanday birikmalarga spirtlar deb aytildi?
2. Spirtlarning nomenklaturasi va izomeriyasi.
3.  $C_4H_9OH$  spirtning izomerlarini yozing va sistematik nomenklatura bo'y nomlang.
4. To'yingan bir atomli spirtlar qanday olinadi?
5. Bir atomli to'yingan spirtlarning fizik va kimyoviy xossalari ayta bering.
6. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlar qaysi reaksiyalar orqali aniqlanadi?
7. Spirtlar xalq xo'jaligining qaysi sohasida ishlataladi?
8. Qanday birikmalarga ko'p atomli spirtlar deb aytildi?
9. Etilenglikol qanday olinadi, formulasini yozing.
10. Etilenglikol va glitscrinlarning fizik xossalari ta'riflab bering.
11. Ikki va uch atomli spirtlarning ishlatalishi.
12. Qanday birikmalar fenollar deb aytildi?
13. Fenolning kimyoviy xossalari aytab bering.
14. Fenollar xalq xo'jaligining qaysi sohasida ishlataladi?

X bob.

Oddiy efirlar

Umumiy formulasi  $R-O-R'$  bo'lgan kislorod saqllovchi organik birikmalarga *oddiy efirlar* deyiladi. Oddiy efirlarga spirt gidsroxsil gruppalarining vodorod atomi o'rniiga radikal almashigan yoki suv molekulasidagi ikki vodorod atomi o'rniiga radikallar almashigan deb qarash ham mumkin.



Efirlar radikallarning xiliga qarab ikkiga bo'linadi. Efir molekulasidagi radikallar bir xil bo'lsa, simmetrik oddiy efirlar deyiladi:

$\text{CH}_3 - \text{O} - \text{CH}_3$ , dimetil efir

$\text{C}_2\text{H}_5 - \text{O} - \text{C}_2\text{H}_5$ , dietil efir

Molekulasi dagi radikallar har xil bo'lsa, aralash efirlar  
deyiladi:

$\text{CH}_3 - \text{O} - \text{C}_2\text{H}_5$ , metil etil efir

$\text{CH}_3 - \text{O} - \text{C}_3\text{H}_7$ , metil propil efir

Nomenklaturasi va izomeriyasi. Sistematik (IYUPAK)  
nomenklatura bo'yicha oddiy efirlarning nomi katta radikalni  
to'yingan uglevodorod deb qaralib, uning nomi oldiga ikkinchi  
radikal ( $\text{R}-\text{O}-$  alkaksi gruppa) nomi qo'shiladi.

Masalan:

$\text{CH}_3 - \text{O} - \text{C}_2\text{H}_5$ , metoksiutan

$\text{C}_2\text{H}_5 - \text{O} - \text{C}_2\text{H}_5$ , etoksibutan

$\text{CH}_3 - \text{O} - \text{C}_3\text{H}_7$ , metoksioktan

$\text{C}_2\text{H}_5 - \text{O} - \text{C}_3\text{H}_7$ , etoksiutan

Oddiy efirlarda izomeriya faqatgina radikallar hisobiga bo'ladi.

Masalan:

$\text{C}_2\text{H}_5 - \text{O} - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{CH}_3$ ,  $\text{C}_2\text{H}_5 - \text{O} - \text{CH}(\text{CH}_3) - \text{CH}_3$ ,


etilpropil efir

$\text{CH}_3$

etilizopropil efir

Efirlarda radikal izomeriyadan tashqari yangi — metamer izomeriya ham bo'ladi. Bu holda umumiy formula bir xil, ammo tuzilish formulalari har xildir.


Masalan:



Olinish usullari. Umumiy usullardan biri alkogolatlarga galogen alkillar ta'sir ettirib olishdir:



Ikkinci umumiy usul spirtlarga konsentrlangan sulfat kislota (zuv tortib oluvchi katalizator) ta'sir ettirib oddiy efirlar olinadi:





**Fizik xossalari.** Dimetil va etilmetyl efirlar gaz, o'rta vakillari suyuqlik, yuqori molekulalari qattiq moddalardir.


Oddiy efirlarning qaynash temperaturasi va zichligi tegishli spirtlarnikidan doimo past bo'ladi.

Efirlar	Qayn.t, °C	Spirtlar	Qayn.t, °C
$(CH_3)_2O$	-24	$CH_3OH$	+65
$(C_2H_5)_2O$	+35,6	$C_2H_5OH$	+78
$(C_3H_7)_2O$	+90	$C_3H_7OH$	+97

Efirlarda qaynash temperaturasi past bo'lishining asosiy sabablar, birinchidan, efir molekulalari vodorod bog'lanishga ega emas, ikkinchidan, molekulalar o'zaro assotsilanmagan.

**Kimyoviy xossalari.** Efirlar oddiy sharoitda reaksiyaga kirishmaydigan barqaror moddalardir. Ular ishqor va suyultirilgan kislotalar ta'sirida o'zgarmaydi, shuning uchun ko'pgina kimyoviy reaksiyalarda erituvchi sifatida ishlatiladi.

Oddiy efirlar konsentrangan kislotalar ta'sirida tuzga o'xshash moddalarni hosil qiladi. Ular beqaror bo'lib, oksoniy birikmalar deb yuritiladi:



oksoniy ioni

Oddiy efirlar konsentrangan yodid kislota ta'sirida spirt bilan galogenalkilga parchalanadi.



Agarda shu reaksiya qizdirish bilan olib borilsa, ikki molekula galogen alkil hosil bo'ladi.




Bu reaksiya analitik kimyoda —  $OCH_3$ , va —  $OC_2H_5$ , funksional gruppalami aniqlashda ishlatiladi. Oddiy sharoitda efirlarga ishqoriy metallar ta'sir etmaydi. Shuning uchun efirlar natriy metali bilan quritiladi.

Yuqori temperaturada efir natriy ta'sirida alkogolat va metall-organik birikmalarga parchalanadi:




**Ayrim vakillari.** Dietil efir (etil efir, efir, sulfat efiri) sanoatda etil spirti bilan konsentrangan sulfat kislota aralashmasini maxsus apparat — efirizatorda 130—140°C da qizdirib olinadi.




Dietil efir 35,6°C da qaynaydigan, rangsiz, o'ziga xos hidga bo'lgan yengil alanganuvchi, uehuvchan suyuqlikdir.

Dietil efir „efir“ nomi bilan tibbiyotda (ko'p miqdorda) narkoz uchun ishlataladi. Narkoz uchun ishlataladigan efir mutluqo toza bo'lishi kerak. Efir vaqt o'tishi bilan yorug'lik ta'sirida havo kislorodida oksidlanib, quyidagi moddalarga parchalanadi (bunday efirni ishlatib bo'lmaydi).




Hosil bo'lgan moddalar ichida dioksietilperoksid zararli hamda portlovchidir. Shuning uchun bunday efirlarni tozalamasdan ishlatib bo'lmaydi. Peroksidlardan tozalash uchun temir (II) sulfat eritmasi bilan yuviladi, so'ngra quritiladi va haydaladi.


**Oddiy aromatik efirlar yoki oddiy fenol efirlar.** Oddiy aromatik efirlar fenolning gidroksil gruppasi dagi vodorod atomining radikallariga o'rinn almashinishidan hosil bo'ladi.




fenol



difenil efir



metilsenil efir



etilsenil efir

Fenolatga galoid alkillar ta'sir ettirib aromatik efirlar olinadi.



Aromatik efirlardan dimedrol tibbiyotda ko'p ishlataladi.

## X I bob.

## Aldegid va ketonlar (oksobirikmalar)

Tarkibida karbonil gruppasi  $>\text{C}=\text{O}$  tutgan birikmalar oksobirikmalar deyiladi. Oksobirikmalar sinfiga aldegid va ketonlar kiradi.

Uglevodorod molekulasidan bir yoki bir necha vodorodni gruppaga almashinishidan hosil bo'lgan birikmalarga aldegidlar deyiladi (chumoli aldegid bundan mustasno). Aldegidlarning umumiy




Ikkiti uglevodorod radikali bilan bog'langan, o'zida karbonil gruppasi saqlagan birikmalarga ketonlar deyiladi.

Aldegid va ketonlar ochiq zanjirli alifatik, halqali (siklik) yoki aromatik, to'yingan va to'yinmagan bo'lishi mumkin.

### To'yingan aldegid va ketonlar


To'yingan alifatik aldegid va ketonlarning umumiy formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n}\text{O}$ , ya'ni bir xil uglerod atomlariga ega bo'lgan aldegid va ketonlar bir-biriga nisbatan izomer moddalardir. Masalan,  $\text{C}_2\text{H}_4\text{O}$  formulaga quyidagi aldegid va keton javob beradi.



**Nomenklaturasi.** Aldegid va ketonlarni nomlashda trivial nomenklatura keng qo'llaniladi. Bu nomenklaturaga ko'ra, aldegidlarning nomi ularning oksidlanishidan hosil bo'lgan tegishli karbon kislota nomidagi kislota so'zini aldegidga almashtirish orqali hosil qilinadi. IYPAK nomenklurasiga ko'ra, aldegid gruppasining borligi *al-suffaksi* bilan ko'rsatiladi:




chumoli aldegid (formaldegid) yoki metanal



sirka aldegid yoki etanal



dimetilsirka aldegid yoki  
2- metilpropanal

Agaarda, modda molekulasi tarkibida aldegid gruppadan boshqa kattaroq grupper asosiy zanjirga kirsa, u holda aldegid gruppasi (formil-prefiksi bilan ifodalananadi). Masalan:



3- metil - 2- formilbutan  
kislota


Oddiy ketonlarning nomlari karbonil grupper bilan bog'langan radikallar nomiga keton so'zini qo'shish bilan hosil qilinadi. IYPAK nomenklaturasiga binoan tegishli to'yingan uglevodordlar nomiga «on» qo'shimchasi qo'shiladi. Misollar:




etylizopropil keton yoki 2-metilpentanon-3

### Olinish usullari.

**I. Spirtlarni oksidlash.** Birlamchi spirtlar oksidlanganda aldegidlar, ikkilamchi spirtlar oksidlanganda esa ketonlar hosil bo'ladi.





**2. Karbon kislota tezlarining pirolizi.** Karbon kislotalarning Ba, Ca va Mn tuzlarini quruq haydash (piroliz) orqali aldegid va ketonlar olinadi.




Reaksiya uchun olingan tuzlarning tuzilishiga qarab simmetrik (agarda  $R = R'$  bo'lsa) yoki nosimmetrik ( $R \neq R'$ ) ketonlar olish mumkin. Agarda kislotalarning biri chumoli kislota  $R' = H$  bo'lsa, aldegidlar hosil bo'ladi.

**3. Digaloidlarni gidrolizlash.** Ikkita galoid atomi bir uglerod atomida joylashgan  $R - CHCl_2$ , turdag'i galoidlarni hidroliz qilib aldegidlar;  $R - CCl_2 - R'$  dan esa ketonlar olinadi:



**4. Alkinlarning hidratlanishi.** Asetilen gomologlarini tuzlar ishtirokida hidratlanishidan ketonlar, asetilenning o'zidan esa sirkalik aldegid hosil bo'ladi (Kucherov reaksiyasi):



**Fizik xossalari.** Aldegid va ketonlarni fizik va kimyoviy xossalari ularning molekulalaridagi karbonil gruppating xususiyati bilan belgilanadi. Karbonil gruppa  $>C=O$  dagi kislorod uglerodga nisbatan katta elektrmansiylikka ega bo'lgani uchun elektron bulutlarni kuchli tortadi va uning atrofida elektron bulut zinchligi ortadi. Natijada uglerod atomida zinchlik kamayadi. Kislorod qisman manfiy, uglerod esa qisman musbat zaryadlanadi:




Demak, aldegid va ketonlardagi uglerod bilan kislorod o'rta-sidagi bog' kuchli qutblangan bo'lib, ular polyar moddalardir, ularning dipol momentlari 2,5 D orasida bo'ladi.

Aldegid va ketonlarda molekulalararo vodorod bog'lanish bo'lganligi sababli, ularning qaynash temperaturasi tegishli spirtlar va karbon kislotalarning qaynash temperurasidan ancha past (8-jadval) bo'ladi.



Aldegid va ketonlarning quiyi vakillari suvda yaxshi eriydi va o'ziga xos yoqimsiz hidga ega bo'ladi.

**Kimyoviy xossalari.** Aldegid va ketonlarning reaksiyaga kiri-shish xususiyati kuchli bo'lib, ular uchun birikish, o'tin olish, kondensatlanish va oksidlanish reaksiyalari xosdir.

**Birikish reaksiyalari.** 1. Aldegid va ketonlar Ni katalizatori ishtirokida vodorodni biriktirib olishi mumkin. Bunda aldegid-lardan birlamchi, ketonlardan ikkilamchi spirtlar hosil bo'ladi:



2. Aldeigidlar va metil gruppasi karbonil gruppa bilan bog'lan-gan ( $\text{CH}_3, -C-$ ) ketonlar natriy bisulfitni biriktirib bisulfitlarni hosil qiladi:




Bisulfit birikmalar kristall moddalar bo'lib, aldegid va keton-larni turli aralashmalardan toza holda ajratib olishda ishlataladi.

3. Aldegid va ketonlar sianid kislotani biriktirib oksinitriliga aylanadi:


## To'yingan aldegid va ketonlarning fizik xossalari

Nomi	Formulası	Suyoglanish temperaturasi, °C	Quynash temperaturasi, °C	Nisbiy zichligi, $d_4^{20}$	Di pol momenti (20° C da, benzolda)
Chumoli aldegid	HCHO	-92,0	-21,0	0,815	2,27
	CH <sub>3</sub> CHO	-123,5	20,8	0,781	2,49
Sirka aldegid	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CHO	-81,0	48,8	0,807	2,56
Propion aldegid	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CHO	-97,0	74,7	0,817	2,57
Moy aldegid	CH <sub>3</sub> -(CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> CHO	-91,5	103,4	0,819	2,57
n-Valerian aldegid	CH <sub>3</sub> -(CH <sub>2</sub> ) <sub>3</sub> CHO	-	129	0,834	-
Kapron aldegid	CH <sub>3</sub> -(CH <sub>2</sub> ) <sub>5</sub> CHO	-95,0	56,6	0,792	2,72 (18°Cda)
Dimetilketon (aseton)	CH <sub>3</sub> -C(=O)-CH <sub>3</sub>	-86,4	79,6	0,805	2,79 (15°Cda)
Metiletiketon	CH <sub>3</sub> -C(=O)-C <sub>2</sub> H <sub>5</sub>	-77,8	102	0,812	2,72 (15°Cda)
Metylpropiketon	CH <sub>3</sub> -C(=O)-C <sub>3</sub> H <sub>7</sub>	-			
Dietilketon	C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> -C(=O)-C <sub>2</sub> H <sub>5</sub>	-42,0	101,7	0,814	2,73
Di-n-propilketon	C <sub>3</sub> H <sub>7</sub> -C(=O)-C <sub>3</sub> H <sub>7</sub>	-34,0	144,2	0,821	-
Palmiton	C <sub>15</sub> H <sub>31</sub> -C(=O)-C <sub>11</sub> H <sub>23</sub>	-			





Oksinitrildan oksikislota va aminokislotalar sintez qilinishi mumkin. Aldegid va ketonlarga magniy-organik birikmalar ham birikishi mumkin. Bu haqda spirlarni olish usullari bilan tanishmizda to'xtalib o'tgan edik.

4. Aldegidlardan katalizator (masalan, suvsiz CuSO<sub>4</sub>) ishtirokida spirlar bilan ta'sir etib asetallar hosil qiladi:



O'rin olish reaksiyalar. Quyidagi aldegid va ketonlarning karbonil gruppasi dagi kislorodning ba'zi birikmalar bilan o'rin olish reaksiyalarini ko'rib chiqamiz:



1. Aldegid va ketonlar hidroksilamin NH<sub>2</sub>OH bilan oksimlar hosil qiladi.



aseton oksimi


Yuqoridagi usul bo'yicha fenilgidrazon va semeikabazonlar olinadi.

**Karbonil gruppaga nisbatan  $\alpha$ -bolatda turgan vodorod reaksiyalar.** 1. Aldegid va ketonlardagi karbonil gruppasi bilan bezosita o'q'langan ugleroddagi  $\alpha$ -vodorod atomlari juda faol bo'lib, ular halogenlar bilan osongina o'rin almashinishi mumkin. Masalan:



Karbonil gruppaga nisbatan  $\alpha$ -holatda joylashgan vodorod atomlari bilan almashigan, galogenlar ham o'z navbatida, turli xil kimyoviy reaksiyalarga kirishadi.  $\alpha$ -galogenli aldegid va ketonlar kuchli lakrimatorlar hisoblanadi (lacrima so'zi lotincha «ko'z yoshi» demakdir), chunki ularning bug'i burun va ko'zni yallig'lantiradi.


2. Aldegid va ketonlarda ishqor yoki kislotalar ta'sirida boradigan kondensatsiya reaksiyalari katta ahamiyatga ega. Masalan, sırka aldeгidi molekulalari ishqorning kuchsiz eritmasi ishtirokida o'zaro kondensatlanib aldolga aylanadi:




Ishqor sırka aldeгidlar katalitik ta'sir etib karbanion hosil qiladi:




Hosil bo'lgan karbanion ikkinchi sırka aldeгid molekulasidagi  $-\overset{\text{O}}{\underset{\text{H}}{\text{C}}}$  gruppaga birikadi:




Formuladan ko'rinib turibdiki, reaksiya mahsuloti aldegid va hidroksil gruppa tutadi. Shuning uchun bu birikmani aldol, bunday reaksiyalarni esa *aldol kondensatsiya* deyiladi. Aldol kondensatsiya karbonil gruppaga nisbatan  $\alpha$ -holatda turgan vodord hisobiga boradi. Aldollar qarorsiz birikmalar bo'lib, qizdirilganda osongina bir molekula suv ajralib chiqaradi:




Aldegidlardan suv ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyalar - *kroton kondensatsiyasi* deyiladi. Bunday kondensatsiya sirka aldegidning  $>\text{CH}_2$  gruppaga tutgan gomologlari bilan oson boradi. Masalan,



Ketonlar aldegidlar kabi aldol va kraton kondensatsiyaga kirishadi. Masalan, asetondan diaseton spirt hosil bo'ladi.





Konsentrangan sulfat kislota yoki ishqorlar ta'sirida bu reaksiya kraton kondensatsiya tipida boradi:



(4- metil-penten-3-on-2)

**Aldegid va ketonlarning oksidlanishi.** Aldegidlar oson oksidlanadigan birikmalardir. Ular hatto havo kislороди yoki kuchsiz oksidlovchilar, masalan, kumush oksidining ammiakli eritmasi va mis (II) gidroksid ta'sirida oson oksidlanadi. Aldegidlarning kumush oksidining ammiakli eritmasi bilan oksidlanishi «kumush ko'zgu» reaksiyasi deyiladi. Bu reaksiyadan aldegidlarning sifat analizida keng foydalaniлади:




Yangi hosil qilingan  $\text{Cu}(\text{OH})_2$ , cho'kmasisiga aldegid eritmasi qo'shib qizdirilganda aldegid karbon kislotagacha oksidlanadi.

$\text{Cu}(\text{OH})_2$ , esa  $\text{CuOH}$  ga qaytarilib, so'ngra  $\text{Cu}_2\text{O}$  ning qizilsariq cho'kmasini hosil qiladi:




Bu reaksiya ham «kumush ko'zgu» reaksiyasi kabi aldegidlarga xos sifat reaksiyasidir. Ketonlar oksidlovchilar ta'siriga ancha chidamlidir. Ular havo kislороди va kuchsiz oksidlovchi, masalan, kumush oksidining ammiakli eritmasi ta'sirida oksidlanmaydi.


Ketonlar faqat ishqoriy va kislotali muhitda  $\text{KMnO}_4$ , yoki  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ , kabi kuchli oksidlovchilar ta'siridagina oksidlanadi. Oksidlanish jarayonida molekulalar parchalanib, ikki molekula kislotasi yoki keton karbonil gruppaga nisbatan  $\alpha$ -holatda joylashgan uchlamchi uglerod atomini tutsa, u holda bir molekula kislotasi hamda bir molekula yangi keton hosil bo'ladi:



**Polimerlanish reaksiyaları.** Bunday reaksiyalar faqat aldegidler uchun xarakterlidir. Aldegidlar polimerlanib, siklik va chiziqsimon tuzlilishi polimerlarni hosil qiladi. Masalan, chumoli aldegid yugultirilgan kislotalar ta'sirida trimerlanib, trioksimetilenni hosil qiladi:




Quruq gazsimon chumoli aldegid ayrim katalizatorlar ishtirokida polimerlanib, yuqori molekular poliformaldegidga aylanadi:




Poliformaldegid qattiq modda bo'lib, oddiy sharoitda hech bir erituvchida erimaydi. Sintetik tolalar va turli buyumlar (trubalar, mashina detallari) ni tayyorlashda ishlataladi.


**Aldegid va ketonlarning ayrim vakillari.** Chumoli aldegid oddiy sharoitda gazsimon modda bo'lib, o'ziga xos hidga ega, suvda yaxshi eriydi. Sanoatda formaldegid metanolni 550–600°C da havo kislорди bilan gaz fazada (Cu yoki Ng ishtirokida) olibdash yo'li bilan olinadi:



Kimyoviy xususiyatlariga ko'ra, chumoli aldegid boshqa aldeigidlardan keskin farq qiladi. Masalan, kuchli ishqorlar ta'sirida boshqa aldeigidlar smolaga aylanadi, chumoli aldegid esa metil-pirt va chumoli kislota tuzini hosil qiladi (Kannissaro reaksiyasi):



Bunda aldegidning bir molekulasi qaytariladi, ikkinchisi oksidlanadi. Chumoli aldegid ammiak bilan o'ziga xos reaksiya kirishib, murakkab birikma — urotropinga aylanadi:



urotropin (geksametilen tetramin)

Urotropinning  $\text{CaCl}_2$ , bilan hosil qilgan kompleks tuzi kalseks tibbiyotda gri pppga qarshi dori sifatida ishlatiladi.

Formaldegidning ko'p miqdori fenolformaldegid, karbamid va boshqa sintetik smolalarini olishda ishlatiladi. Chumoli aldegidning 40% li suvli eritmasi «formalin» deb atalib, kuchli zaharlovchi moddadir. U hasharoqlarga qarshi xonalarni va har xil o'simliklar urug'ini (donni) qorakuya kasalligi sporasiga qarshi dezinfeksiyalash uchun ishlatiladi.

**Sirka aldegid**  $\text{CH}_2 = \text{C} \begin{array}{l} \diagup \\ \text{H} \\ \diagdown \end{array} \text{O}$  o'ziga xos hidli  $218^\circ\text{C}$  da qaynay-


digan rangsiz suyuqlik. Sirka aldegid sanoatda bir necha usulda olinadi. M. G. Kucherov reaksiyasiga asoslanib, asetylenden  $\text{Hg}^{+2}$  tuzlari ishtirokida sirka aldegid olish mumkin.

Hozirda sirka aldegid, asosan, etilenden ikki xil usulda olinadi:

1. Etilenden etil spirit olgandan so'ng spiritni katalizatorlar ( $\text{Cu}$ ,  $\text{Ag}$ ,  $\text{Ni}$ ,  $\text{Pt}$ ) ishtirokida degidrogenlash yo'li bilan:



2. Etilen PdCl<sub>2</sub> katalizatori ishtirokida kislород bilan to'g'ri dan to'g'ri oksidlash natijasida ham sirka aldegid olish mumkin. Bunday samarali usul juda qisqa vaqt ichida sanoat miqyosida qoriy qilindi:



Sirka aldegid texnikada sirka kislota, sirka angidrid, etil spirit tilasetat kabi moddalarni olish uchun ko'p miqdorda ishlataladi.

O

Aseton CH<sub>3</sub>-C-CH<sub>3</sub> 56,5°C da qaynaydigan, o'ziga xos hidli, rangsiz suyuqlik. Aseton yog'ochni quruq haydashdan hosil bo'lgan sirka kislotaning kalsiyili tuzidan olinadi. Ilgari bu usul aseton olishda yagona hisoblanar edi. Hozirda sanoatda aseton olishning bir necha samarali usullari kashf qilingan. Masalan, asetonnini to'g'ridan to'g'ri sirka kislotaning o'zidan ham olish mumkin. Buning uchun CH<sub>3</sub>COOH bug'lari (Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, yoki ThO<sub>2</sub>) katalizatorlar ustidan o'tkaziladi. Aseton sanoatda keng qo'llaniladi. Undan xloroform va yodoform olishda, lok. kislotalar, asetat ipagi ishlab chiqarishda erituvchi sifatida ko'p miqdorda foydalanganladi.



### Laboratoriya ishlari

#### 1. Etanolni oksidlab sirka aldegid olish

Probirkaga 1—2 ml etil spirit va 1 ml KMnO<sub>4</sub> ning suyultilgan ishqoriy eritmasidan solib qizdiriladi. Bunda KMnO<sub>4</sub> ning rangi yo'qolib, qo'ng'ir rangli cho'kma MnO<sub>2</sub> hamda sirka aldegid hosil bo'ladi. Sirka aldegid 21'da qaynaydi. Uning hosil bo'lganligini o'ziga xos hididan bilish mumkin.

#### 2. «Kumush ko'zgu» reaksiyasini bosil qilish

Ishqor bilan qaynatib, distillangan suv bilan chayqalgan probirkaga 2—3 ml 2% li kumush nitrat eritmasidan solib, ustiga ammoniy gidroksid eritmasining 2% li eritmasidan tomchilab qo'shing. Bunda avval kumush gidroksid cho'kmasi hosil bo'ladi, ammoniy gidroksididan yana biroz qo'shilsa, cho'kma erib ketib, kumush oksidining ammiakli eritmasi hosil bo'ladi. Shu eritma

ustiga suyultirilgan formalin eritmasidan 1 ml qo'shib, bir marotaba aralashdiring va ohistolik bilan qizdiring. Bunda qaytarilgan kumush probirkaga devorlariga yopishib, kumush ko'zgu hosil qiladi.

### 3. «Mis ko'zgu» reaksiysi

Probirkaga sırka aldegididan 1 ml olib, unga biroz NaOH eritmasidan qo'shing. So'ngra shu probirkadagi aralashma ustiga mis (II) sulfat eritmasidan to quyqa hosil bo'lguncha tomizib probirkani qizdira boshlang. Bunda, avvalo, sariq cho'kma Cu(OH)<sub>2</sub> so'ngra qizg'ish cho'kma Cu<sub>2</sub>O hosil bo'ladi. Agar tajriba uchun ko'proq aldegid olingan bo'lsa, reaksiya oxirida mis (II) sulfat misgacha qaytariladi va yaltiroq mis ko'zgu hosil qiladi.



### Savol va mashqlar

1. Qanday birikmalarga aldegid va ketonlar deyiladi?
2. C<sub>4</sub>H<sub>8</sub>O tarkibga ega bo'lgan aldegid va ketonlarning struktura formulasini yozing va sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.
3. Qanday usullar bilan eritmadagi aldegidni aniqlash mumkin?
4. Kucherov reaksiysi bo'yicha aldegid va ketonning olinishini yozing.
5. Aldegid va ketonlarning kimyoiy xossalariini aytib bering.
6. Aldegidning ketonlardan farq qiluvchi o'ziga xos reaksiyalariiga misollar keltiring.
7. Chumoli va sırka aldegidlarning olinishi va ishlatalishini gapirib bering.


XII bob.

Karbon kislotalar

### To'yangan monokarbon kislotalar

Molekulasida karboksil gruppasi — COOH bo'lgan moddalar karbon kislotalar deb ataladi. Karbon kislotalar karboksil gruppalarning soniga ko'ra bir asosli, ikki asosli va ko'p asosli bo'ladi. Masalan, sırka kislota CH<sub>3</sub>COOH va moy kislota C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>COOH — bir asosli, oksalat kislota HOOC — COOH va malon kislota HOOC—CH<sub>2</sub>—COOH ikki asosli kislotalardir. Karbon kislotalar to'yangan va to'yinmagan, shuningdek, ochiq zanjirli va halqali

tuzilishga ega bo'ladi. Kislotalar molekulasidagi karboksil gruppasi karbonil  $>\text{C}=\text{O}$  va hidroksi — OH gruppalardan tashkil topgan. Karbon kislotalar, ularning tuzlari hamda elektron formulasi quyidagicha ifodalangan:



**Nomenklaturasi va Izomeriyasi.** To'yingan bir asosli karbon kislotalar yog' kislotalar deb ham ataladi, chunki bu kislotalarning birinchi vakili yog'lardan olingan.

To'yingan bir asosli yog' kislotalarni nomlashda, ko'pincha ularning trivial nomlaridan foydalilaniladi. Bu nom kislotalar qanday xomashyodan olinganligini ko'rsatadi, masalan, ularning birinchi vakili  $\text{H}-\text{COOH}$  chumoli kislotalar deb ataladi, chunki dastlab chumolidan ajratib olingan. Xuddi shunga o'xshash, valerian kislotasi — valeriana o'simligining ildizidan olingan.

Sistematik nomenklaturaga ko'ra, kislotalarning nomi tegishli uglevodorod nomiga kislotasi so'zini qo'shish bilan hosil qilinadi:



metan kislotasi



etan kislotasi



propan kislotasi



2- metilpropan kislotasi


Buruvchanligi  $[\alpha]_D +81^\circ\text{C}$  ga teng. D- galaktoza qaytarilganda olti atomli spirit — dulsit, oksidlanishi natijasida suvda yomon egyligani, optik aktiv emas, shilliq kislota hosil bo'ldi.



D-fruktoza yoki meva shakari quyidagicha tuzilishga ega:





Ü shirin mevalar, qamish shakari (saxaroza) va asal tarkibida koza bilan bingalikda uchraydi. Fruktoza tabiiy polisaxarid—inutarkibiga ham kiradi. Uni asosan gidrolizlab olinadi.

D-fruktoza odadagi sharoitda  $2C_6H_{12}O_6 \cdot \frac{1}{2}H_2O$  tarkibli krisnosil qiladi va  $102-104^{\circ}C$  da suyuqlanadi.

**Monosaxaridlarniog suvli eritmalaridagi tautomeriya.** Ma'lum-  
ki, glukoza ikki xil tautomeriya shaklda: ochiq zanjirli aldegid (ok-  
so) va yopiq zanjirli siklik ( $\sigma$ -oksid) shaklda mavjud. Eritmada bu

ikki shakl muvozanat holatida bo'ladi. Monosaxarid tuzilishini quyidagicha siklik tuzilish formulalarini yozish mumkin:





I

II


Glukozada gidropiran halqasi bor. Shuning uchun olti a'zoli halqadan iborat monosaxaridlari piranozalar, I formula bilan ifodalangan glukoza esa glukopiranoza deyiladi. Besh a'zoli siklik halqadan tuzilgan monosaxaridlari molekulasiida tetragidrofuran halqasi bo'lganligi uchun furanozalar, II tuzilishga ega bo'lgan glukoza esa glukofuranoza deyiladi. Besh a'zoli siklik halqadan iborat bo'lgan fruktoza fruktofuranoza deyiladi. Fruktozaning besh a'zoli halqadan va glukozanining olti a'zoli halqadan iborat shakllari ancha barqaror bo'lib, qattiq holatda ular ana shunday shaklda bo'ladi. Glukozanining besh a'zoli halqasi beqaror, ular erkin holda ajratib olinmagan. Siklik tuzilishli piranozalar tarkibiga kiruvchi glukozid hidroksilini fazoda joylanishiga qarab  $\alpha$ - yoki  $\beta$ -izomerlari olingan. Monosaxaridlarda bunday shakllarning mavjudligini glukoza misolida ko'rish mumkin. Glukozanining yangi tayyorlangan eritmasini solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D^{20} + 113^\circ$  ga teng, birozdan keyin uning solishtirma buruvchanligi asta kamayib boradi va nihoyat  $[\alpha]_D^{20} + 52,5^\circ$  ga yetgandan keyin o'zgarmaydi. Buning sababi, eritmada glukoza ochiq zanjirlari aldegid shaklda bo'lib, so'ngra qaytadan glukozanining siklik tuzilishidagi  $\alpha$ - va  $\beta$ -D-shakllari hosil bo'ladi ( $\alpha$ -D-glukoza —  $[\alpha]_D^{20} + 113^\circ$ ;  $\beta$ -D-glukoza  $[\alpha]_D^{20} + 19^\circ$ ). Vaqt o'tishi bilan ( $\alpha$ -D-glukoza molekula sonlari kamayadi,  $\beta$ -D-glukoza molekulasining soni ko'payadi.

Bu unday hodisa mutarotsiya deb ataladi. Demak, glukoza o'simgan boshqa izomerga aylanadi. Tekshirishlar D-glukozaning,  $\alpha$ -izomeri xil stereoizomeri borligini ko'rsatadi. Bu izomerlar  $\alpha$ -glukoza (I) va  $\beta$ -D-glukozadir (II):




Yuqoridagi formulalardan ko'rinish turibdiki, D-glukoza molekulasiidagi glukozid hidroksilining holati siklik shakl hosil qilishda ishtirok etayotgan hidroksil holati bilan bir xil bo'lsa, bunday shakl  $\alpha$ -izomer, aksincha bo'lsa,  $\beta$ -izomer deyiladi.

D-glukozaning  $\alpha$ - va  $\beta$ -izomerlarini ingliz olimi Xeuorsning quyidagi formulalari bilan ifodalash mumkin:




$\alpha$ -D-glukopiraniza



$\beta$ -D-glukopiraniza

**Monosaxaridlarning tabiatda uchrashi va olinish usullari.**  
Uglewodlar tirik organizmda sof holda va ayniqsa, spirtlar, fenollar va boshqa organik moddalar bilan glukozid holatida keng tarajigan. Ular o'simliklarda quyosh energiyasi ta'sirida va xlorofill

pigmenti ishtirokida karbonat angidriddan hosil bo'ladı, b  
reaksiyani fotosintez jarayoni deb ataladi:




Monosaxaridlar quyidagi usullar bo'yicha olinadi:


1. Sanoatda glukoza, asosan, kartoshka yoki arpa kraxmali mineral kislotalar ishtirokida gidrolizlash yo'li bilan olinadi:




2. Shakarsimon moddalarini birinchi marta A. M. Butlerov 1861-yilda chumoli aldegiddan sintez qilgan. Bu reaksiya b  
inecha bosqichda boradi. Dastlab ikki molekula chumoli aldegid kalsiy gidroksid ishtirokida aldol kondensatlanganda glikol aldegid hosil bo'ladı:



Glikol aldegid yana bir molekula chumoli aldegid bilan birikib, glitserin aldegid hosil qiladi:




Xuddi shu tarzda 4,5 va 6 molekula chumoli aldegidni birikishi yoki ikki molekula glitserin aldegidning kondensatlanishidan geksozalar hosil bo'ladı:




Lekin bu reaksiya bir necha bosqichda va turli yo'nalishda borchani uchun monosaxaridlarning murakkab aralashmasi hosil bo'ladi.

3. Ko'p atomli spirtlar ohista oksidlab ham olinadi. Masalan, atomli spirtni oksidlash natijasida glukoza olish mumkin:




**Monosaxaridlarning fizik va kimyoviy xossalari.** Monosaxaridlarni moddalar bo'lib, suvdagi eritmasi shirin mazaga ega.

1. Monosaxaridlars oson oksidlanadi. Ular ishqoriy yoki neytral muhitda sekin oksidlantirilganda faqat aldegid gruppa oksidlanib, oksikislota hosil bo'ladi:




Aldozalar kuchli oksidlovchilar ta'sirida oksidlanganda ikki asosli oksikislotalar hosil bo'ladi:



Monosaxaridlar aldegidlar kabi «kumush ko'zgu» reaksiyasini beradi va Feling suyuqligini oson qaytaradi.


2. Monosaxaridlar qaytarilganda ko'p atomli spirit hosil qiladi:



3. Monosaxaridlarning eng muhim kimyoviy xossalardan bir ularning mikroorganizm chiqaradigan fermentlar ta'sirida bijg'ishidir. Hosil bo'ladijan mahsulotlarning nomiga qarab, monosaxaridlarning bijg'ishi bir necha turga bo'linadi:

a) spiritli bijg'ish. Bunday bijg'ish bilan biz etil spiritni olish usullarini o'rganganda tanishib chiqqan edik;

b) sut kislotali bijg'ish. Bunday bijg'ish glukozaning su achituvchi bakteriyalarning fermentlari ishtirokida sodir bo'ladi




sut kislota

d) moy kislotali bijg'ish:



e) limon kislotali bijg'ish:




Bijg'ish jarayoni sanoatda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, spiritli bijg'ish jarayoni texnikada spirit olishda keng qo'llaniladi.

**Glikozidlar.** Monosaxarid tarkibidagi glikozid gidroksilining vodorodli biror radikal bilan almashinishi natijasida hosil bo'lgan moddalar glikozidlar deb ataladi. Glikozidlar hayvonot, ayniqsa, o'simlik dunyosida keng tarqalgan bo'lib, fiziologik aktiv moddalardir. Tabiiy glikozidlar kislotalar yoki enzimlar ta'sirida gidrolizlanganda monosaxarid hamda uglevod bo'lmagan birikma qoldig'i — aglukonga parchalanadi.

Tabiiy glikozidlar tarkibidagi aglukonlarning tabiatiga qarab necha gruppaga bo'linadi. Masalan, fenolglikozidlar, kumarin, flavon, antosian, sterin, sianofor glikozidlar va sianofor. Sianofor glikozidlar o'zida azot atomini saqlavchi glikozidlar bo'lib, ular gidrolizlanganda sianid kislota ajralib qolsadi. Bu gruppaga glikozidlarga amigdalina va trunazinlar misol la oladi.

Amigdalina  $C_{20}H_{27}O_{11}N \cdot H_2O$  ko'pgina o'simliklar tarkibida, masalan, achchiq bodomda (2,5–3,5%), olcha (0,8%), shaftoli (2–3%), olxo'ri, o'rik danaklarida (1–1,8%) bo'ladi. Tabiiy (urutib olingan) suvsiz amigdalina 215°C da suyuqlanadigan achchiq bodom mazali kristall modda. Qutblanish tekisligini ~~happga~~ buradi  $[\alpha]_D -40^\circ$ .

Amigdalina kislotalar ta'sirida gidrolizlanganda ikki molekula glukoza, benzoy aldegid hamda vodorod sianidga parchalanadi:



Demak, amigdalina molekulasi quyidagicha tuzilishga ega:

**Ishlatilishi.** Glukoza qimmatli oziqa sifatida va tibbiyotda quvvat beruvchi dori sifatida ishlatiladi.

Uni organizmda oksidlanib energiya hosil qilishi quyidagi reaksiya yicha sodir bo'ladi:



**Disaxaridlar.** Disaxaridlar (biozalar) suvda yaxshi eriydi, shirin ta'mga ega. Ularning ko'pchiligi yaxshi kristallanadi va aniq molekular massaga ega. Tabiatda keng tarqalgan saxaroza (*gumish* yoki lavlagi shakari), maltoza (solod shakari), sellobioza

va laktzoza (sut shakari)lar disaxaridlarga misol bo'ladi. Bu disaxaridlarning hammasi  $C_{12}H_{22}O_{11}$  umumiy formula bilan ifodalanadi. Disaxaridlar gidrolizlanganda bir xil yoki ikki xil monosaxarid molekulasi hosil bo'lishi mumkin. Masalan, saxaroza gidrolizlanganda D-glukoza va D-fruktoza, maltoza gidrolizlanganda esa ikki molekula D-glukoza hosil bo'ladi. Disaxaridlar hosil bo'lishida doimo birinchi monosaxarid o'zining yarimasetal gidroksili bilan qatnashadi, ikkinchi monosaxarid molekulasi ham yarimasetal gidroksili yoki qolgan gidroksillari bilan qatnashadi.

Ikkala molekula monosaxaridlarni yarimasetal gidroksidlar ishtirok etishi natijasida hosil bo'lgan disaxaridlar glukozid-glukozid (tregaloza) gruppasiga kiruvchi disaxaridlar bo'lib, ularning molekulasida karbonil gruppaga oson o'ta oladigan gruppalanish yo'q. Bunday disaxaridlar qaytaruvchi xo'ssaga ega emas, ya'ni aldegidlarga xos reaksiyalarni bermaydi. Ular oksim va gidazonlar hosil qilmaydi. Shuning uchun ham bunday disaxaridlar *qaytarmaydigan disaxaridlar* deb ataladi. Bunday disaxaridlarga saxaroza va tregaloza misol bo'ladi.

Agar disaxaridlar molekulasini hosil bo'lishida bitta molekula monosaxaridning yarimasetal gidroksili, ikkinchi monosaxarid molekulasining spirt gidroksili qatnashsa, bunday saxaridlar *qaytaruvchi* (yoki glukozid-glukoza) *disaxaridlar* deyiladi. Ular Feling suyuqligini oson qaytarib, fenilgidrazin va oksimlar hosil qiladi. Demak, ular molekulasida aldegid holatga oson o'ta oladigan gruppalanish bor. Maltoza, laktzoza va sellobioza shu gruppalar disaxaridlari kiradi. Quyida biz eng muhim disaxaridlarning ayrim vakillari bilan tanishib chiqamiz.


**Saxaroza.** Qamish shakari yoki lavlagi shakari deb ataladigan saxaroza o'simliklar dunyosida juda ko'p tarqalgan. U qandlavlagida 16—20% ni va shakar qamishda 14—20% ni tashkil etadi. Bundan tashqari, u palma daraxtida (palma shirasi) va makkajo'xori tarkibida ham ko'p miqdorda uchraydi. Saxaroza eng zarur oziqa bo'lib, inson hayotida katta ahamiyatga ega. Bu odatdag'i keng qo'llaniladigan shakardir.

Saxaroza rangsiz kristall modda, uning suyuqlanish temperaturasi 160°C. Suyuqlantirilgan saxaroza amorf massa — karamel holida qotadi. Yuqorida ko'rGANIMIZDEK, bu disaxarid gidrolizlanganida D-glukoza va D-fruktoza hosil bo'ladi.




### D- glukoza D- fruktoza

Saxaroza qaytarmaydigan disaxaridlarga kiradi. U Feling suyugidigini qaytarmaydi va semlgidrazin hamda fenilgidrazon hosil alinmaydi. Demak, saxaroza molekulasida osonlikcha karbonil gruppaga o'tadigan yarimasetal gidroksil gruppasi yo'q. Saxaroza molekulasingin hosil bo'lishida D- glukoza molekulasi bilan D- fruktoza molekulalari tarkibidagi yarimasetal gidroksillaridan suv uralib chiqadi, ya'ni glukozid-glukozid bog' hosil bo'ladi:



Saxarozaning Xeuors bo'yicha tuzilish formulasi quyidagicha ifodalanadi:




### 2- β- D- glukopiranozil-β- D- fruktufuranozid

Saxaroza eritmasi qutblanish tekisligini o'ngga buradi. Uning navdagi eritmasining solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D^{20} + 66,5^\circ$  ga teng. Ma'lumki, saxaroza gidrolizlanganda teng miqdorda D- glukoza va D- fruktoza hosil bo'ladi.


D- fruktoza qutblanish tekisligini chapga kuchliroq buradi,  $[\alpha]_D^{20} - 92^\circ$ , glukoza esa o'ngga buradi,  $[\alpha]_D^{20} + 52,5^\circ$ . Shuning uchun ekvimolekular miqdordagi glukoza va fruktoza aralashmasi qutblanish tekisligini chapga buradi. Demak, saxarozaning gidroliz-

lanishida qutblanish tekisligining yo'nalishi o'zgaradi va bunday o'zgarish saxarozaning inversiyasi deyiladi. Qamish shakarining gidrolizi (inversiyasi) natijasida hosil bo'lgan teng miqdordagi glukoza va fruktozalar inversiyalangan shakar deyiladi. Asal taliyy inversiyalangan shakarga misol bo'la oladi, chunki uning asosiy tarkibi teng miqdordagi glukoza bilan fruktozadan iborat.

**Maltoza** (solod shakari). Kraxmalga solod tarkibidagi diastaz ta'sir ettirilganda maltoza hosil bo'ladi. Shuning uchun ham maltoza solod shakari deb yuritiladi. Maltoza gidrolizlanganda ikki molekula glukozaga parchalanadi. U qaytaruvchi disaxaridlar gruppasiiga kiradi, chunki Feling suyuqligini qaytaradi, natijada fenilgidrazi bilan fenilgidrazon hosil bo'ladi. Bu hol maltoza molekulasida osonlikcha aldegid gruppasiiga o'ta oladigan gruppaborligini, ya'ni maltoza molekulasida bitta erkin yarimasetal gidroksil (glukozid gidroksili) borligini ko'rsatadi.



Demak, maltoza molekulasini hosil bo'lishida glukozaning birinchi molekulasidagi yarimasetal gidroksil bilan ikkinchi molekulasidagi spirt xarakteridagi gidroksil ishtirok etadi. Uning Xeuors bo'yicha tuzilish formulasi quyidagicha ifodalanadi:




$\alpha$ - glukoza qoldig'i

4-( $\alpha$ -D- glukopiranozil)—D- glukoza


$\alpha$ - glukoza qoldig'i

Maltozaning suvdagi eritmasi qutblanish tekisligini o'ngga buradi. Uning shirinligi qandga nisbatan 40 % cha kam. Maltoza, marmalad, pivo ishlab chiqarish sanoatida oraliq mahsulot hisoblanadi.


**Laktoza** (sut shakari). Laktoza sut tarkibida (sigir sutida 3–5,5 %, ayollar sutida 5,5–8,4 %) bo'ladi, shuning uchun u sut shakari deb ham ataladi. Laktoza gidrolizlanganda glukoza va uning izomeri — galaktoza hosil bo'ladi:



Laktoza qaytaruvchi disaxaridlarga kiradi, ya'ni uning molekulasida erkin yarimasetal gidroksil gruppasi bor. Uning Xeuors bo'yicha tuzilish formulasi quyidagicha:



**β- galaktoza qoldig'i**




**α- glukoza qoldig'i**

#### 4-(β- D- galaktopiranozil)- D- glukoza

Laktozaning tuzilish formulasidan ko'rilib turibdiki, uning molekulasida galaktoza molekulasidagi yarimasetal gidroksil bilan glukoza molekulasidagi spirt gidroksilidan suv ajralib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. Laktoza eritmasi qutblanish tekisligini o'ngga buradi. Uning solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D^{20} + 52,5^\circ$ . Sut hakari tibbiyotda katta ahamiyatga ega, u yosh bolalar uchun mosiy oziq modda hisoblanadi.

**Sellobioza**. Uning tuzilishi maltozaga o'xshash bo'lib, faqat surqi shundaki, maltozada birinchi qoldiq α-D- glukoza qoldig'i bolsa, sellobiozada esa β-D-galaktoza qoldig'idir. Bunday β- monomerga ega disaxaridlarni ferment emulsiya ta'sirida monosaxaridlarga parchalanadi.



4- β- D- glukopiranozil- D- glukoza

### Polisaxaridlar

**Polisaxaridlar (poliozlar)** tabiiy yuqori molekular moddalar bo'lib, tabiatda juda ko'p tarqalgan hamda inson va hayvonlar hayotida muhim rol o'yaydi. Masalan, ulardan biri — kraxmal asosiy oziq modda, boshqalari — selluloza organizm uchun nihoyatda muhim moddadir. Polisaxaridlar yuzlab va minglab monosaxaridlar qoldiqlaridan tashkil topgan bo'lib, ular kislotalar yoki enzimlar ta'sirida gidrolizlanganda monosaxaridlar hosil bo'lsa, bunday polisaxaridlar gomopolisaxaridlar deyiladi. Ularga kraxmal va sellulozalar misol bo'ladi. Gidrolizlanganda har xil monosaxaridlar hosil bo'lsa, bunday polisaxaridlar geteropolisaxaridlar deb ataladi. Gemiselluloza geteropolisaxaridlar jumlasiga kiradi.

Polisaxaridlar o'ziga xos xossalarga ega bo'lib, mono- va oligosaxaridlarning xossalardan farq qiladi. Ularning ko'pchiligi suvda erimaydi, ba'zilari issiq suvda bo'kib kolloid eritmalar hosil qiladi. Ular shirin ta'mga ega bo'lmasligi amorf moddalardir. Ularning molekular massasi 20 000 — 1 000 000 oralig'ida.


Quyida biz polisaxaridlarning eng asosiy vakillari bilan tanishib chiqamiz.

**Kraxmal.** Kraxmal ( $C_6H_{10}O_5$ ), tabiiy polimer modda bo'lib, asosiy zaxira oziq modda sifatida o'simliklar tarkibida uchraydi. U kartoshka tugunaklarida 20 % ga yaqin, makkajo'xori donida 70 % gacha, guruchda 80 % ga yaqin kraxmal bor.

Kraxmal suvda erimaydigan oq kukun modda, uni suvgaga solib ivtilsa, kolloid eritma — *kleyster* hosil bo'ladi. Kraxmal yod ta'sirida ko'k rangga kiradi. U qaytaruvchi xossasiga ega emas, ya'ni Feling suyuqligini qaytarmaydi.

Kraxmal mineral kislotalar ishtirokida qizdirilganda uning katta molekulalari suvda eriydigan kichikroq molekulalari ( $C_6H_{10}O_5$ ).

dekstrinlarga parchalanadi. Kraxmal enzimlar, ya'ni solod tarkibiga diastaza va so'lakdag'i ptialin fermentlari ta'sirida ham parchainib dekstrinlar hosil qiladi. Ammo shu bilan kraxmalni gidretkiz tamom bo'lmaydi. Dekstrinlar o'z navbatida gidrolizlanib maltozaga, maltoza molekulasi esa ikki molekula D- glukozaga parchalanadi. Kraxmalning asta gidrolizlanib, glukoza hosil qilish jarayonini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:



Kraxmalning bunday kislotali va fermentativ gidrolizini 1814-yilda rus olimi K. S. Kirxgof kashf etgan.

Kraxmal murakkab tuzilishga ega bo'lib, u o'z navbatida ikki moddadan — amilaza va amilopektindan iborat. Kraxmalda amilaza 20—30 % ni, amilopektin esa 70—80 % ni tashkil etadi.


**Amilaza.** Amilaza molekulasi 1000—6000 glukoza qoldiqlaridan tashkil topgan uglevod bo'lib, ular chiziqli tuzilishga ega. Uning molekular massasi 160 000 — 1 000 000 oralig'ida bo'ladi. Amilaza suvda eriydi, ammo uning eritmasi beqaror, chunki vaqt o'tishi bilan eritmada amilaza cho'kmasi hosil bo'ladi. Amilaza yod bilan ko'k rang beradi.

**Amilopektin.** Amilopektin molekulalari amilaza molekulalari kabi glukoza qoldiqlaridan iborat bo'lib, ular tarmoqlangan tuzilishga ega. Amilaza uglevod bo'lsa, amilopektin biror uglevodning fosfat kislotali esridir. Amilopektin molekulasida glukoza qoldiqlarining soni amilazaga qaraganda ko'p. Shuning uchun ham uning molekular massasi amilazaning molekular massasidan ancha katta. Molekular massasi 1 000 000 bo'lgan amilopektin ma'lum. Amilopektin suvda erimaydi, bo'kib kleyster hosil qiladi. Yod bilan qizg'ish binafsha rang beradi.

**Selluloza** ( $\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5)_n$ . Selluloza ham tabiiy yuqori molekular polisaxarid bo'lib, barcha o'simliklar tarkibiga kiradi va ularda hujayra qobiqlarini hosil qiladi. Uning nomi «sellula» — hujayra shundan kelib chiqqan. Selluloza, odatda, o'simliklarda semiselluloza, lignin va pektin moddalar bilan birga bo'ladi. Eng toza tabiiy paxta tolasi tarkibida 92—96 % gacha, yog'och tarkibida esa 40—60 % gacha selluloza bo'ladi. Eng toza selluloza paxtadan qilinadi. Buning uchun paxta 1 % li NaOH eritmasi bilan bir

necha bor ishlanib, 99,85 % li toza selluloza olinadi. Toza selluloza qog'oz ishlab chiqarishda ko'p ishlatiladi. Bu maqsadlarda ishlatiladigan sellulozalar, asosan, archa yog'ochidan olinadi. Sellulozani yog'ochdan olishning bir necha usullari mavjud bo'lib, bulardan sulsit usuli keng tarqalgandir. Bu usulda selluloza ishlab chiqarish uchun yog'och qipiqlari kalsiy bisulfit  $\text{Ca}(\text{HSO}_4)_2$  eritmasi bilan yuqori bosim ostida katta avtoklavlarda qaynatiladi. Bunda yog'och parchalanib, qisman eritmaga o'tadi va eritma tarkibidagi selluloza tolasimon massaga aylanadi. Qaynash jaravoni tugagach, massa suzgichdan — tubi teshik rezervuarlardan, ya'ni elakdan o'tkaziladi. Suzgichda selluloza eritmadan ajratiladi va bir necha bor suv bilan yuviladi. Ajratib olingan selluloza presslanadi, quritiladi, so'ngra qog'oz ishlab chiqarish uchun fabrikalarga jo'natiladi.

Selluloza bilan kraxmal o'z tarkibiga ko'ra bir xil molekul formula ( $\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5$ )<sub>n</sub> ga ega. Ammo bu birikmalar o'z xossalari jihatidan bir-biridan tamoman farq qiladi. Buning sababi kraxmal molekulalari chiziqsimon (amilaza) hamda tarmoqlangan (amilopektin) strukturaga ega. Selluloza molekulalari chiziqsimon tuzilgan. Bundan tashqari kraxmal tarkibiga kiruvchi chiziqli tuzilishga ega bo'lgan amilaza makromolekulalari  $\alpha$ -glukoz qoldiqlaridan tuzilgan. Selluloza molekulalari esa  $\beta$ -glukoz molekulusining qoldig'idan tashkil topgan. Shunday qilib, sellulozada glukoza qoldiqlari  $\beta$ -1,4 glukozid bog' hosil qiladi:



$\beta$ -1,4-glukozid bog'lanish

Sellulozaning paxta, zig'ir va kanop kabi materiallarni hosil qilishining sababi, uning chiziqli tuzilishidir. Selluloza molekulasida glukoza qoldiqlarining soni o'ttacha 6000—12000 bo'lib, molekular massasi 1 000 000—2 000 000 ga teng.

Sellulozadagi har bir glukoza qoldig'ida uchtadan erkin gidsoksil gruppa bo'ladi.




Selluloza — mazasiz, hidsiz, tolasimon oq modda. Suvda, efirda sonda erimaydi. U Shveyser reaktivi  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4(\text{OH})_2]$  da va selluloza kislotalarda eritilganda qisman gidrolizlanadi. Bunda usqichli gidroliz borib oxirida glukoza hosil bo'ldi:



Suvda sellulozani (yog'ochdan olingen) gidrolizlash va hosil bo'lgan glukozani bijg'itish yo'li bilan etil spirit olinadi. Selluloza kislotalarga nisbatan ishqorlar ta'siriga chidamlidir. U ishqor bilan  $[(\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5)(\text{ONa})_n]$  tarkibli birikma — selluloza alkogolatini hosil qildi. Hosil bo'lgan birikmani ishqordan tozalash maqsadida spirit bilan yuviladi. Selluloza alkogolati suv ta'sirida osongina parchab, selluloza gideratni hosil qiladi.

Sellulozaning tuzilish formulasidan ko'rilib turibdiki, uning har bir  $\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5$  zvenosida uchta gidroksil gruppasi bor. Ana shu gidroksil gruppalar hisobiga selluloza bir qator oddiy va murakkab e'rtilar hosil qiladi. Sellulozaning bunday hosilalaridan nitrat kislota, sirtka kislota va ksantogen kislota efirlari katta ahamiyatga ega.

Sellulozaning nitrat efirlari sellulozaga nitrat va sulfat kislota aralashmasini ta'sir ettirib olinadi. Reaksiya uchun olingen kislotalarning miqdori va boshqa sharoitlarga qarab selluloza molekula ning har bir zvenosidagi bitta, ikkita va uchta gidroksil gruppasi hammasi eterifikatsiya reaksiyasiga kirishadi.





mono- va dinitrosellulozalar aralashmasi koloksilin deb ataladi. Uning spirit va efir bilan aralashmasidan tayyorlangan eritmasi obiyotda kollodiy nomi bilan ishlataladi. Koloksilinga kamfora va spirit aralashtirilib, plastik massa — selluloid hosil qilinadi.

Selluloiddan kinolentalar, tez quriydiqan, arzon va mustahkam emal ishlab chiqarishda foydalani ladi. Ammo selluloid yonuvchan modda bo'lgani uchun hozirgi vaqtida uning o'rniiga yangi — yonmaydigan plastmassalar ishlatilmoqda.


Trinitroselluloza piroksilin nomi bilan tutunsiz porox ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Selluloza sirka kislota bilan bir qator murakkab esirlar, ya'nji mono-, di- va triasetilsellulozalar hosil qiladi. Bular orasida di- va triasetilsellulozalar sun'iy ipak — asetat ipagi olish uchun ishlatiladi.



Asetat ipak olish uchun bu asetilsellulozalar asetonda eritiladi va hosil bo'lgan eritma issiq filerlar (kichik teshikchalar bor metall qalpoqchalar)dan bosim ostida o'tkazilsa, aseton uchib ketib, sun'iy ipaktolasi hosil bo'ladi. Plastifikator qo'shilgan selluloza asetatlari plastmassalar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Sellulozaning yana bir hosilasi selluloza ksantogenati viskoz ipak olishda katta ahamiyatga ega. Sellulozaning ishqor bilan ishlanishi natijasida hosil bo'lgan selluloza alkogolatiga uglerod sulfid ta'sir ettirilganda selluloza ksantogenati hosil bo'ladi:



Selluloza ksantogenati suyultirilgan ishqorda yaxshi eriydi. Bu eritma viskoza eritma deyiladi. Viskoza eritmasi filerlardan o'tkazilib sulfat kislotali vannaga tushirilsa, viskoza ipagi hosil bo'ladi. Viskoza eritmasidan hosil qilingan pylonka sellofan deb ataladi.

Selluloza murakkab esirlardan tashqari oddiy esirlar ham hosil qiladi. Sellulozaning ishqordagi eritmasiga dialkilsulfat yoki

*selluloida* kil ta'sir ettirilsa, sellulozaning oddiy esirlari hosil bo'ledi. Sellulozaning oddiy esirlaridan trimetilselluloza, trietilselluloza to'qimachilik va bo'yoqchilik sanoatida keng ishlatiladi.



### *Laboratoriya ishlari*

#### **1. Glukoza aldegid gruppasining reaksiyasi**

Probirkaga 2—3 ml Feling suyuqligidan quyib, 0,5 ml glukozaning 1 foizli eritmasidan qo'shing va aralashmani biroz qizdiring. Bunda glukoza oksidlanadi, Feling suyuqligi esa qaytariladi va mis (1) oksidining qizil-qo'ng'ir cho'kmasi paydo bo'ladi.

#### **2. Kraxmalning sisat reaksiyasi**

Probirkaga 1 % li kraxmal kleysteridan 2 ml soling va unga yodning kaliy yodiddagi eritmasidan 2 tomchi qo'shing. Bunda aralashma ko'k rangga bo'yaladi.

#### **3. Kraxmalning gidrolizlanishi**

1. Stakanga 2 % li kraxmal kleysteridan 50 ml quyib, 10 % li sulfat kislotadan 20 ml qo'shing va 2 minut davomida qaynating. Bu eritmadañ ozginasini suvli probirkaga quyib, ishqor bilan neytrallang va yodni kaliy yodiddagi eritmasidan qo'shganda binafsha bo'yalish ro'y berishi amilodekstrin hosil bo'lganini ko'rsatadi.

2. Stakanda qolgan aralashmani yana 3—5 minut davomida qizdiring, soviting, ishqor bilan neytrallang va Feling suyuqligidan qo'shib yana qizdiring. Bunda qizil rangli Cu<sub>2</sub>O cho'kmasingining paydo bo'lishi kraxmalni glukozaga aylanganligini ko'rsatadi.

#### **4. Sellulozaning gidrolizlanishi**

50 ml konussimon kolbaga 2 g maydalab qirqilgan filtr qog'ozni soling va unga 3 ml konsentrangan sulfat kislota qo'shib, shisha tayogcha bilan aralashtiring. So'ngra 15 minutdan keyin unga 30 ml distillangan suv qo'shing va suv hammomida 20 minut qizdiring.

Gidrolizatni soda bilan neytrallab filtrlang. Filtratda  $\beta$ -D-glukoza borligini Feling suyuqligi bilan aniqlang, shunda mis (I) oksidi qizil cho'kmaga tushadi.

### 5. Triasetilsellulozaning sintezi

50 ml konussimon kolbaga 10 ml sirkə angidrid, 10 ml konsentrangan sirkə va 5 tomchi sulfat kislotalar soling. So'ngra uning ustiga 1 g namlangan paxtani bo'lakchalar qilib solib, shisha tayoqcha bilan ohista aralashtiring va isib ketgan kolbar sovit. Aralashmaning qizishini to'xtating. Kolbani suv hammomida qizdiring va shisha tayoqcha bilan aralashtirib turin va paxta — crib ketgandan so'ng, reaksiya mahsulotini stakanda 500 ml suv ustiga ohistalik bilan quying. Tushgan triasetilsellulozani Buxner voronkasida filtrlab, chinni kosacha solib quritish shkafida quriting.



### Savol va mashqlar


1. Nima uchun uglevodlar deyiladi?
2. Uglevodlar qanday sinflarga bo'linadi?
3. Glukoza bilan mannozaning tuzilishidagi farq nimada?
4. Fruktozaning qaytarilish reaksiyasini yozing.
5. Glukozani Feling suyuqligi bilan bo'lgan reaksiyasini yozing.
6. Glukoza va fruktoza oksidlangunda qanday moddalar hosil bo'ladi?
7. O'simlikda sodir bo'ladigan fotosintezning mohiyati.
8. Qanday bijg'ish reaksiyalarini bilasiz?
9. Glukozid deb nimaga aytildi?
10. Maltoza va laktozani gidrolizlanishini yozing.
11. Qanday disaxaridlarga qaytaruvchi disaxaridlar deyiladi?
12. Tarkibida 20% kraxmal bo'lgan 1 t kartoshkadan qancha glukoza olish mumkin?
13. Kraxmal, uning tabiatda tarqalishi.
14. Sellulozaning gidrolizlanish reaksiya tenglamasini yozing.
15. Triasetilsellulozaning olinish reaksiyasini yozing.

Azotli organik birikmalar deb, molekulasida azot elementi igan organik moddalarga aytildi.

### Aminlar


Aminlar deb, ammiakning vodorodlari uglevodorod radikallariga mashishidan hosil bo'lgan birikmalarga aytildi. Aminlar vodorod qismiga qarab to'yangan, to'yinmagan va aromatik aminlarga bo'linni. Ular aminogruppaning soniga qarab, mono-, va poliaminlar holida bo'ladi.

Aminlarning tuzilishiga qarab, ular ammiakning hosilasi iganligini ko'rish mumkin. Ammiak molekulasidagi bitta vodorod atomi radikalga o'rIN almashsa — birlamchi, ikkita vodorod atomi ikkilamchi radikalga o'rIN almashsa — ikkilamchi, uchta vodorod atomi uchlamchi radikalga o'rIN almashsa — uchlamchi aminlarni hosil qiladi:



Birlamchi amindagi —  $\text{NH}_2$  gruppasi — *aminograppa*, ikkilamchi amindagi  $>\text{NH}$  gruppasi — *imin grappa* deb ataladi.


**Nomenklaturasi va izomeriyasi.** Ratsional nomenklatura yicha aminlarni nomi radikallar nomiga «amin» so'zini qo'shib qishdan kelib chiqadi:



Sistematiq nomenklatura bo'yicha aminlar nomi uglevodorodlar nomi oldiga «amino» so'zini qo'shib va  $-\text{NH}_2$  aminograppa yashgan uglerod atomini raqam bilan ko'rsatib o'qiladi:




Izomeriya aminlarda molekulaning uglevodorod qismini tarmoqlanishiga va aminogruppaning joylanishiga bog'liq.



Aminlardagi radikallarni miqdor jihatdan o'zgarib, izomerlarni hosil bo'lishiga *metamerlanish* deyiladi.


Masalan,  $\text{C}_3\text{H}_9\text{N}$  tarkibli amin uch xil izomerga ega:




### Olinish usullari.

1. Nemis kimyogari A. V. Gofman galoidalkillarga ammiak ta'sit ettirib, quyidagi sxema bo'yicha birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi aminlar va to'rtlamchi ammoniy asoslarini olishga muvaffaq bo'ldi. Shuning uchun bu reaksiyani Gofman reaksiyasi deb yuritiladi.


#### I bosqich




#### II bosqich



### III bosqich





### IV bosqich




Bu reaksiya organik birikmalarning tuzilishini aniqlashda ishladi.

2. Nitrobirikmalarni, nitrillarni, oksimlarni va gidrozonlarni vodorod atomlari bilan nikel katalizatori ishtirokida qaytarilganda aminlar hosil bo'ladi:



3. Kislota amidlariga ishqoriy muhitda gi poxlorit ta'sir ettirib uramchi aminlar olinadi:



4. Aminokislolar chirituvchi bakteriyalar ta'sirida o'zida karbonat angidrid ajratib-chiqarib aminlarni hosil qiladi:



**Fizik xossalari.** Aminlarning birinchi vakillari — metilamin, dimetilamin va trimetilamin gaz, qolganlari suyuqlik bo'lib, yuqori molekulaga ega bo'lganlari esa qattiq moddalardir. Ularning molekulalar massalari ortishi bilan qaynash temperaturasi va solishtirma zichligi ortib boradi (11-jadval). Oddiy vakillarining hidi ammiak hidiga yaqin bo'lib, molekular massasi ortib borishi bilan bu hidrokarbonyl kamayadi (yuqori molekulaga ega bo'lganlari hidsiz).


11-jadval

#### Aminlarning fizik xossalari

Nomi	Formulasi	Suyuqlanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	$d_4^{20}$
Metilamin	$\text{CH}_3\text{NH}_2$	-92	-7	-
Etilamin	$\text{C}_2\text{H}_5\text{NH}_2$	-83	17	0,706
n-propilamin	$\text{C}_3\text{H}_7\text{NH}_2$	-81	48	0,741
n-butilamin	$\text{C}_4\text{H}_9\text{NH}_2$	-51	78	0,764
n-dodetsilamin	$\text{C}_{12}\text{H}_{25}\text{NH}_2$	28	249	-

**Kimyoviy xossalari.** 1. Asosli xususiyatlari. Aminlar organik asoslar bo'lib, ularning suvli eritmalari lakkus qog'ozini ko'ktiradi.


Ayniqsa, to'yingan uglevodorodlarning aminlari ammiakka nisbatan kuchli asoslardir. Chunki ular suvli eritmada kuchli dissotsilanadi va natijada eritmada yuqori konsentrasiyaligi hidroksil ionlari hosil bo'ladi:



Aminlarning bu xususiyatini ammiak va ayrim aminlarning elektrolitik dissotsilanish konstantlarida ko'rish mumkin:

ammiak	NH <sub>3</sub>	$1,79 \cdot 10^{-5}$
metilamin	CH <sub>3</sub> NH <sub>2</sub>	$4,38 \cdot 10^{-4}$
dimetilamin	(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> NH	$5,20 \cdot 10^{-4}$
trimetilamin	(CH <sub>3</sub> ) <sub>3</sub> N	$5,45 \cdot 10^{-4}$
etilamin	C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> NH <sub>2</sub>	$5,60 \cdot 10^{-4}$


2. Tuz bosil qilishi. Aminlarga kislotalar ta'sir ettirib tuzlar olinadi. Bu reaksiyada vodorod ioni azot atomidagi bir juft erkin elektronlarga birikib, musbat zaryadli ammoniy ionini hosil qiladi:




Ammoniy va metilammoniy ionlardagi vodorod atomlarini qaysi biri kislotaning vodorod atomi ekanligini va qaysi biri xlor ionini, qaysi vodorod atomiga tegishli ekanini aniqlash qiyin. Shuning uchun aminlarning tuzlari kompleks birikma ko'rnishida yoziladi:



Galoidalkillarni uchlamchi aminlarga birikishi natijasida ham tuzlar hosil bo'ladi:



Bu tuzlarga o'yuvchi ishqorlar ta'sir ettirib, to'rtlamchi ammoniy asosi olinadi.



**3. Nitrit kislotaning ta'siri.** Bu reaksiya natijasida aminlarning tuzilishi qisman aniqlanadi, chunki nitrit kislota ta'sirida hosil bo'layotgan moddalarga qarab, aminlarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi ekanligi aniqlanadi.

Birlamchi aminlar nitrit kislota ta'sirida spirit, azot va suvga parchalanadi.




Ikkilamchi aminlar nitrit kislota ta'sirida nitrozaminlarni hosil qiladi. Ular quyuq moysimon suyuqlik bo'lib, suvda yomon eriydi va o'ziga xos qo'lansa hidga ega:




Nitrozaminlarga kuchli kislotalar ta'sir ettirilsa, qaytadan ikkilamchi amin hosil bo'ladi.

Uchlamchi aminlar nitrit kislota ta'siriga chidamli bo'lib, faqat tuz hosil bo'ladi:



Uchlamchi aminlar peroksidlar ta'sirida oksidlanib, N— oksibirkimalarni hosil qiladi.




Uchlamchi aminlarni N-oxsi shakllari tabiatda alkaloidlar tarkibida keng uchraydi.

**4. Aminlarning alkillaishi.** Aminlar galoidalkillar bilan reaksiya yaxshi kirishadi, natijada aminogruppadagi vodorod radi-kalianga o'nin almashadi.



Bu reaksiya Gofman reaksiyasida batafsil ko'rsatilgan.

**5. Aminlarning asillanishi.** Birlamchi va ikkilamchi aminlarga organik kislotalarning hosilalari (kislota angidridlar, galogenangidridlar) ta'sirida aminlar hosil bo'ladi. Bu reaksiya azotdagi vodorod hisobiga boradi, shuning uchun uchlamchi aminlarda asillanish reaksiyasi sodir bo'lmaydi.



**Ayrim vakillari.** Metilamin  $\text{CH}_3\text{NH}_2$ , dimetilamin  $(\text{CH}_3)_2\text{NH}$  va trimetilamin  $(\text{CH}_3)_3\text{N}$  lar gaz, ular ammiak hidiga ega.

Ularni ammoniy xloridga yuqori temperaturada formaldegid ta'sir ettirib olinadi.



Aminlar ko'pgina moddalarni sintez qilishda katalizator sifatida ishlataladi.

### Diaminlar

Molekulasida ikkita  $-\text{NH}_2$  gruppasi saqlagan uglevodorodlarga diaminlar deyiladi. Ularning vakillaridan biri etilendiamin  $-\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{NH}_2$ . U 1,2-dibrometanga ammiak ta'sir ettirib olinadi:



Putressin (tetrametilendiamin) —




Kristall modda,  $27^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi.

**Kadaverin (pentametilendiamin)** —  $\text{NH}_2 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{NH}_2$ , suyuqlik bo'lib,  $170^\circ\text{C}$  da qaynaydi.


Putressin va kadaverin oqsil moddalarni chirishidan, ya'ni diaminokislotalarni karboksilsizlanishidan hosil bo'ladi. Shuning so'zdan olingan bo'lib «murda» demakdir. Ular kuchli asos bo'lgani uchun nafas yo'llariga kuchli ta'sir etadi, shu sababli ularni «murda zahari» deb ataladi. Geksametilendiaminin  $\text{NH}_2 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{NH}_2$  adipin kislota dan quyidagi sxema bo'yicha olinadi:

Geksametilen diamin Rossiyada anid, Amerikada neylon deb yuritiladigan sintetik tolalarni olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.




### Aromatik aminlar

Aromatik aminlar deb, benzol halqasidagi vodorod atomi o'miga aminogruppa yoki ammiakdag'i vodorod atomlari o'miga aromatik radikallar o'r'in almashgan moddalarga aytildi.




Dirov mashinishi natijasida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aromatik aminlar hosil bo'ladi.



Molekuladagi aminogruppa soniga qarab, aromatik aminlar mono-, di- va poliaminlarga bo'linadi:




**Nomenklaturasi.** Aromatik aminlarning nomi radikallar nomiga amin so'zini qo'shib o'qishdan kelib chiqadi:




**Izomeriya.** Aromatik aminlarda izomeriya soni amino-gruppaning benzol halqasida yoki benzol halqanining tashqarisida zanjirga joylashishiga bog'liqidir.


Masalan,  $\text{C}_6\text{H}_5\text{N}$  formulali aromatik amin to'rtta izomerga ega:



**Olinish usullari.** I. Nitrobirkmalarni qaytarish bilan aromatik aminlarni olinish usulini birinchi bo'lib, 1842-yilda rus olimi N. N. Zinin kashf etdi:




Sanoatda qaytaruvchi reagent sifatida kislota va Fe, Sn, Zn metallari ishlataladi. Nitrobirkimlar kislotali muhitda qaytaruvchi ganda aminlar hosil bo'lunga qadar oraliq moddalar - nitrozobirkma va gidroksilaminlar hosil bo'ladi:



2. Galogenli aromatik birikmalarga yuqori temperatura va bosimda katalizatorlar yordamida ammiak ta'sir ettirish bilan aminlar olinadi:



3. Ikkilamchi aromatik aminlarni olish uchun birlamchi aminlarni kislotali muhitda qizdiriladi:




4. Uchlamchi aminlar esa ikkilamchi aromatik aminlarga mis katalizatori ishtirokida galoidarillar ta'sir ettirib olinadi:




**Fizik xossalari.** Kichik molekulalari aromatik aminlar suyuq, yuqori molekulalari aromatik aminlar esa qattiq moddalardir. ularning ko'pchiligi qo'lansa hidga ega bo'lib, suvda yomon eriydi. Masalan, anilin rangsiz moy Simon suyuqlik, 185°C da qaynaydi. 3,3 g anilin 100 g suvda eriydi.

**Kimyoviy xossalari.** Aromatik aminlarning kimyoviy xossalari molekuladagi aminogruppa bilan benzol halqasining xossalalarini o'z ichiga oladi.

1. To'yingan uglevodorod aminlariga nisbatan aromatik aminlar kuchsiz asos hisoblanadi. Buning sababi molekuladagi azot atomining juft elektronlari benzol halqasidagi  $\pi$ -elektronlar tomon siljigan bo'ladi:




Buning natijasida azot atomida elektron zinchligi kamayib, benzol halqasining *orta* va *para* holatlarda elektron zinchligi ortadi va elektrofil almashinish reaksiyasi oson ketadi:




Demak, molekulada benzol halqasining ko'payishi asos xossasining kamayishiga olib keladi. Masalan, difenilaminda asos xossasi kamaysa, trifenilaminda undan ham kam bo'ladi.

2. Aromatik aminlar to'yingan uglevodorodlarning aminlariga o'rashish alkillanish va asillanish reaksiyalariga ega:



Acetamidni ishqor yoki kislota ishtirokida qizdirilsa, qaytadan amin va kislota hosil bo'ladi:


Ularning nomi kislota nomiga «amid» so‘zi qo‘shib o‘qishdan hosil bo‘ladi.



chumoli kislota  
amidi




sirka kislota  
amidi




moy kislota amidi

Kislota hosilalariga ammiak ta’sir ettirib, amidlar olinadi:



sirka kislota  
xlorangidridi



etilasetat


Kislotalarning ammoniy tuzlarini qizdirib kislota amidlari olinadi.:




Kislota nitrillarini gidroliz qilish bilan kislota amidlari olinadi:




**Mochevina.** Karbonat kislotaning amidlari katta ahamiyatga ega.



karbonat  
kislota




karbamin  
kislota



karbamid

Karbamin kislota efirlari uretan preparatlar deb atalib, tibbiyotda uxlatuvchi va og‘riqni qoldiruvchi dori sifatida ishlataladi.

Mochevina (karbamid)  $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ , kuchsiz asos xususiyatiga bo'lgan kristall modda,  $133^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi. Uni birinchi bo'lib nemis olimi F. Vyoler ammoniy sianiddan olgan:




Mochevina tirik organizmda oqsil moddalardan so'nggi halangan mahsulot sifatida siyidik orgali chiqadi.


Hozirgi vaqtida mochevinani sanoatda temperatura va bosim ( $30^\circ\text{C}$ , 50 atm.) ostida karbonat angidridga ammiak ta'sir ettirib qilinadi:



Mochevinani  $140^\circ\text{C}$  gacha qizdirish bilan biuret hosil qilinadi:




Mochevina suv bilan qizdirilganda ammiak bilan karbonat angidridga parchalanadi:



Hozirgi vaqtida mochevina qishloq xo'jaligida asosiy organik o'g'it va qozmollarga oziq sifatida keng ishlatalmoqda.

**Poliakrilamid.** Akrilamidni polimerlash bilan poliakrilamid hosil qilinadi. Akrilamid esa kislotali muhitda, temperatura ta'sirida aknili kislota nitrilini gidroliz qilib olinadi:




**Aminokislotalar**


Molekulasida amino — NH<sub>2</sub> va karboksil — COOH gruppalarini bor organik birikmalarga aminokislotalar deyiladi. Ular quyidagi umumiy formulaga ega:



Aminokislotalar — NH<sub>2</sub> va — COOH gruppalarining soniga qarab ikkiga bo'linadi: 1) molekulasida ikkita — NH<sub>2</sub> va bitta — COOH gruppalarini bo'lgan aminokislotalar diaminokislotalar deyiladi.




2) molekulasida ikkita — COOH va bitta — NH<sub>2</sub> gruppalarini bo'lsa, ikki asosli aminokislotalar deyiladi.




Aminokislotalar juda muhim ahamiyatga ega, ular hayot uchun zarur bo'lgan oqsil moddalarining asosini tashkil etadi.


**Nomenklaturasi.** Aminokislotalar kelib chiqish turiga ko'ra alohida nomlarga ega. Masalan,  $\alpha$ -aminosirka kislota yoki (grekcha — «glukos» shirin so'zidan olingan) glitsin deb ataladi:




Ratsional nomenklaturaga ko'ra, aminokislotalarning nomi kislota nomiga amino — NH<sub>2</sub> gruppani ko'rsatuvchi *amino* so'zini qo'shib o'qish bilan hosil qilinadi:




Qhematik nomenklaturaga ko'ra, kislota molekulasining amino gruppasi qolgan — NH<sub>2</sub> — gruppasiiga amino so'zini qo'shib qoladigan atomlari sonlar bilan ko'rsatiladi.



Izomeriyasi. Aminokislotalarning izomeriyasi, birinchidan, funksional gruppalarining bir-biriga nisbatan joylashgan holatiga va ularning tarmoqlangan yoki tarmoqlanmaganligiga bog'liq:




Ikkinchidan, molekulada amino — NH<sub>2</sub>, gruppating karboksil — COOH gruppaga nisbatan joylashishiga bog'liq:




Uchinchidan, aminokislotalar molekulasidagi asimmetrik underod atomi hisobiga ko'zgu (optik) izomeriyaga ega. Masalan,  $\alpha$ -aminopropion kislota (alanin) D va L-shakllarda bo'lib, L-shakli tabiatda keng tarqalgan.

**Aminokislotalar**

Molekulasida amino — NH<sub>2</sub> va karboksil — COOH gruppalarini bor organik birikmalarga aminokislotalar deyiladi. Ular quyidagi umumiy formulaga ega:



Aminokislotalar — NH<sub>2</sub> va — COOH gruppalarning soniga qarab ikkiga bo'linadi: 1) molekulasida ikkita — NH<sub>2</sub> va bitta — COOH gruppalari bo'lgan aminokislotalar diaminokislotalar deyiladi.




2) molekulasida ikkita — COOH va bitta — NH<sub>2</sub> gruppalarini bo'lsa, ikki asosli aminokislotalar deyiladi.




Aminokislotalar juda muhim ahamiyatga ega, ular hayot uchun zarur bo'lgan oqsil moddalarning asosini tashkil etadi.


**Nomenklaturasi.** Aminokislotalar kelib chiqish turiga ko'ra alohida nomlarga ega. Masalan,  $\alpha$ -aminosirka kislota yoki (grekcha — «glukos» shirin so'zidan olingan) glitsin deb ataladi:




Ratsional nomenklaturaga ko'ra, aminokislotaning nomi kislota nomiga amino — NH<sub>2</sub> gruppani ko'rsatuvchi *amino* so'zini qo'shib o'qish bilan hosil qilinadi:




Sistemmatik nomenklaturaga ko'ra, kislota molekulasining amino gruppasi saqlagan  $-\text{NH}_2$  — gruppasiiga amino so'zini qo'shib o'sqib uglerod atomlari sonlar bilan ko'rsatiladi.




Izomeriyasi. Aminokislotalarning izomeriyasi, birinchidan, funksional gruppalarning bir-biriga nisbatan joylashgan holatiga va ularning tarmoqlangan yoki tarmoqlanmaganligiga bog'liq:




Ikkinchidan, molekulada amino  $-\text{NH}_2$  gruppining karboksil  $-\text{COOH}$  gruppaga nisbatan joylashishiga bog'liq:



Uchinchidan, aminokislotalar molekulasi dagi asimmetrik uglerod atomi hisobiga ko'zgu (optik) izomeriyaga ega. Masalan,  $\alpha$ -aminopropion kislota (alanin) D va L-shakllarda bo'lib, L-shakli tabiatda keng tarqalgan.



**Aminokislolarning ayrim vakillari.** Glikokol grekcha «likos» — shirin, «kolla» — yelim yoki glitsin deb ataluvchi aminosirkalik kislota  $\text{NH}_2 - \text{CH}_2\text{COOH}$  tuban hayvonlarning muskullarida uchraydi. Ipak oqsilini gidroliz qilib (36% gacha) olinadi. Gippur kislotani gidrolizlab ham olish mumkin.




gippur kislota

benzoy  
kislota


glitsin

L(+)—Alanin  $\text{CH}_3 - \text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$   $\alpha$ -aminopropion kislota yoki 2-aminopropan kislota. Ipak fibrionini gidrolizlab olinadi. Oqsil moddalar gidrolizlanganda ham kam miqdorda alanin olish mumkin.

L(+)—Valin( $\alpha$ -aminoizovalerian kislota) kazein, gemoglobin va albumin, oqsillar tarkibiga kiradi. Agar bunday mahsulotlar achisa, valin izobutil spiritga aylanadi:



L(+)—leysin ( $\alpha$ -aminoizokapron kislota)



Uni qon gemoglobini, kazein, tuxum albuminidan gidroliz yo'li bilan ajratish mumkin.

L(+)—izoleysin (2-amino-3 metilpentan kislota)



Oqsil moddalar gidrolizlanganda leysin bilan birgalikda ajraladi.


## Peptidlar va oqsil moddalar

Peptidlar deb, oqsillarning asosini tashkil etuvchi, ikki yoki undan ortiq aminokislotalarni polikondensatlanishidan hosil bo'lgan moddalarga aytildi. Ular ikki aminokislota qoldig'idan tashkil topgan bo'lsa — dipeptid, uchtadan — tripeptid, to'rtadan — tetrapeptid va hokazo deyiladi.

Har qanday peptidlarni molekulalari uzun zanjirdan tashkil lopib, ikki uchga ega, birinchi uehi amino gruppasi — NH<sub>2</sub>, hisobiga azot bilan tugaydi, ikkinchi uchi esa karboksil gruppasi — COOH hisobiga uglerod — C bilan tugaydi.

Peptidlarning nomi ularni tashkil etgan aminokislotalarni nomidan kelib chiqib, aminogruppadan boshlangan aminokislotalarning nomlaridan «in» qo'shimchasi o'rnga «il» qo'shimcha qo'shib o'qilib, hosil bo'lgan nomlarga oxirgi karboksil gruppasi bilan tamomlangan aminokislota nomini qo'shib o'qish bilan hosil bo'ladi.

Masalan:



Peptidlarning qo'shilishidan polipeptidlар, polipeptidlardan peptonlar va peptonlardan oqsil moddalar hosil bo'ladi.

Demak, oqsillar  $\alpha$ -aminokislotalarning qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekular murakkab organik birikmalardir.

**Tabiatda tarqalishi.** Oqsillar barcha o'simlik va hayvonlar organizmi uchun juda zarur moddalardan biridir. Oqsillar o'simlik protoplazmasining asosini tashkil etadi. Ular hayvonlarning qoni, suti, muskuli va tog'ayi tarkibida bo'lib muhim hayotiy rol o'ynaydi. Oqsillar soch, tirnoq, teri, pat, jun, ipak tarkibiga ham kiradi. Shuningdek, tuxumning asosiy qismini tashkil etadi.


Ko'pgina oqsillar tarkibiga 4 ta element kiradi: uglerod, vodorod, kislorod, azot. Ba'zi oqsillar tarkibiga esa beshinchchi element S — oltingugurt kiradi.

Oqsillarda elementlar miqdori doimiy bo'lmaydi. Uglerod 50—55%, vodorod 6,6—7,3%, azot 15—18%, kislorod 19—24%, oltingugurt 0,2—2,4% miqdorda saqlaydi.

Ayrim oqsillar fosfor, temir va yod elementlarini ham saqlaydi. Oqsillar katta molekular massaga ega  $10^4$ — $10^7$ .


**Oqsil molekulasining tuzilishi** 20 ga yaqin  $\alpha$ -aminokislotadan amalda son-sanoqsiz oqsillar hosil bo'lishi mumkin.

Polipeptid zanjirida aminokislota zvenolarining ketma-ket kelishi oqsil molekulasining birlamchi struktura zvenosi deyiladi.



Mana shunday cho'ziq zanjirli oqsillar soni uncha ko'p emas (masalan, tabiiy ipak oqsili — fibroin strukturasi). Fibroion molekulasining 50% ini glitsin aminokislotalar qoldig'i tashkil etadi. Qolgan ko'pchilik oqsillar spiral shaklda o'ralgan bo'ladi. Vodorod bog'lar tufayli hosil bo'ladigan polipeptid zanjirlarning fazoda joylashgan spiral konfiguratsiyasi oqsillarning ikkilamchi strukturasi deyiladi.

Polipeptid va oqsillarni  $\alpha$ -spiral tuzilishga ega bo'lishligini L.Poling va Kyurilar isbotlab berdilar (9-rasm). Bunday struktura spiralni bir-biriga qo'shni o'rmlarda joylashgan —CO va NH gruppalar o'rtaida ko'p miqdordagi vodorod bog'lanishlar tufayli saqlanib qoladi. Polipeptid zanjirda spiral holatda o'ralgan aminokislota radikallari spiralning tashqi tomoniga yo'nalgan bo'ladi. Bu esa uchlamchi strukturani hosil bo'lishi uchun ahamiyatli. Uchlamchi struktura polipeptid zanjiriga birikkan funksional gruppalarining o'zaro ta'siri natijasida saqlanib turadi. Masalan, karboksil — COOH gruppalar bilan amino — NH<sub>2</sub> gruppalar tuz ko'prigini, oltinguguri atomlari disulfid ko'priklarni hosil qiladi. Gidroksil (—OH) va karboksil (—COOH) gruppalar murakkab esir ko'priklarni hosil qiladi. Demak, yuqoridagi kimyoviy bog'lar ishtirokida va har xil kuch ta'sirida spiral holidagi polipeptid zanjirlar fazoda ma'lum shaklni egallab, oqsilning uchlamchi strukturasini (10- rasm, a) hosil qiladi.



9-rasm. Oqsil molekulasining ikkilamchi strukturasi

Uchlamchi strukturaning fazoda joylashuvi o'ziga xos biologik aktivlikni ifodalaydi.

Dqsillarda turli xil funksional gruppalar bo'lganligi sababli, ularni organik birikmalar sinsining birortasiga ham kiritish mumkin emas. Ularda turli sinflarning xossalari umumlashib, bunlay yangi sifatni paydo qiladi. To'rtlamchi tuzilishli oqsilar deb, bir nechta uchlamchi tuzilishga ega bo'lgan polipeptidlardan tashkil topgan birikmalarga aytildi (10-rasm, b). Molekuladagi hamma uchlamchi tuzilishli polipeptid zanjirlari qolikda yagona oqsil moddani xususiyatini aks ettiradi. Bunday uchlamchi tuzilishga ega bo'lgan oqsillarni *oligomerlar* deb ataladi. Oqsillar — organik birikmalarning rivojlanishini yuqori tasnidir.



10-rasm. Oqsil molekulasining: a—uchlamchi, b—to'rtlamchi strukturasi.

**Oqsillarning sifat reaksiyaları.** Oqsillar uchun xarakterli reaksiyalar quyidagilardir:

a) biuret reaksiyasi: ishqoriy muhitda mis (II) sulfatning eritmasi binafsha rangga bo'yaladi. Biuret reaksiyasi —CO—NH—bog'lar yoki peptid bog'lar uchun xos reaksiyadir. Masalan, di-peptid — ko'k, tripeptid binafsha, yuqori peptidlар esa qizil rang beradi.

b) ksantoprotein reaksiyasi kons.  $\text{HNO}_3$ , kislota ta'sirida sariq rangga bo'yaladi, kons. (25%)  $\text{NH}_4\text{OH}$  ta'sirida esa sariq rang to'q sariq rangga o'tadi.

d) milon reaksiyasi — oqsilni simob nitrat tuzining nitrat va nitrit kislotalardagi eritmasi bilan qizdirilganda oqsil qizil-qo'ng'ir cho'kma beradi, bu reaksiya tirozin va triptofanlar uchun xos.

e) ningidrin reaksiyasi — ningidrin eritmasi bilan qo'shib qizdirilsa, ko'k bo'yalish beradi.



### Laboratoriya ishlari

1. Probirkaga 2–3 ml oqsil modda eritmasidan (bu eritma 1 dona tuxum oqini 150 ml suvda eritib tayyorlanadi) olib unga konsentrangan  $\text{HNO}_3$  dan 1–2 ml qo'shing va bu aralashmani ohistalik bilan qizdiring. Bunda oqsil moddasi bir joyga to'planib oladi va sariq bo'yalish ro'y beradi. Probirkadagi aralashmaga ammiak eritmasidan qo'shganda sariq rangli eritma to'q sariq rangga bo'yaladi. Bunday bo'yalish oqsil moddalar tarkibida aromatik yadrolari (fenil-alanin, tirozin, triptofan) borligini ko'rsatadi.

## 2. Biuret reaksiyasi

Probirkaga 2—3 ml oqsil modda eritmasidan quyib, 1—2 ml 10% li ishqor, 1—2 tomchi 2% li mis kuporosi eritmasidan qo'shganda qizil-binafsha bo'yalish ro'y bersa, oqsil moddasi tarkibida peptid bog'i ( $-CO-NH-$ ) borligini ko'rsatadi.

## 3. Milon reaksiyasi

Milon reaktivini tayyorlash uchun bir qism simob, 2 qism HNO<sub>3</sub>, da (kons.) eritilib, hosil bo'lgan eritmaning hajmiga ikki barobar ko'p suv qo'shiladi.

Probirkaga 2—3 ml oqsil modda eritmasidan quyib, 1—2 ml Milon reaktividan qo'shing va qizdiring. Bunda oqsil moddasi bir joyga to'planib, pushti rangga bo'yaladi. Bu reaksiya oqsil moddasida tirozin gruppasi borligini ko'rsatadi.

## 4. Oqsil moddasini spirit bilan cho'ktirish

Oqsil modda eritmasiga etil spiritidan ozgina qo'shilsa, cho'kma bosil bo'ladi. Agar bu cho'kmaga tezlik bilan suv qo'shilsa, cho'kma erib ketadi. Agar shu reaksiyani mis kuporosi eritmasi tomizib olib borilsa ham cho'kma hosil bo'ladi.

Oqsil moddalari kuchsiz ishqoriy sharoitda simob tuzlari va qo'rg'oshin tuzlari ta'sirida ham cho'kma hosil qiladi. Lekin bunday cho'kmalar suv qo'shganda erimaydi.

## 5. Oqsillardagi oltingugurtni aniqlash

Probirkaga qo'rg'oshin (II) asetat eritmasidan 0,5 ml quyib, o'suvchi natriy eritmasidan qo'shiladi. Bunda qo'rg'oshin (II) hidroksid cho'kmaga tushadi. Ikkinci probirkaga 2—3 ml oqsil eritmasi va shuncha plumbit eritmasi quyiladi. Probirkalardagi eritmalarni aralashtirib, qaynaguncha 2—3 minut qizdirilsa, qora cho'kma hosil bo'ladi. Bu qo'rg'oshin (II) sulfid hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

### Savol va mashqlar

1. Aminokislolar deb qanday birikmalarga aytildi?
2. α-aminokislolarini olish usullarini yozing.
3. Aminokislalamning amfoterik xossalasini ko'rsatuvchi reaksiyalarni yozing.
4. α-, β- va γ-aminomoy kislotasini qizdirish natijasida qanday birikmalar hosil bo'ladi?

- Uch molekula glitsindan hosil bo'lgan tripeptidning formulasini yozing va peptid bog'ini ko'rsating.
- Oqsillarning tabiatida tarqalishi.
- Oqsillarga xos bo'lgan sifat reaksiyalari.
- Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi oqsilning tuzilish formulalarini yozing.

## XVII bob.

## Geterosiklik birikmalar


Molekulasi dagi uglerod va boshqa element atomlaridan tuzilgan halqalar (sikllar) ni saqlagan birikmalarga geterosiklik birikmalar deb ataladi. Uglerod atomidan tashqari geterosikl tarkibiga kirgan element atomlarini geteroatomlar deyiladi. Tar-kibida azot, kislorod, oltingugurt kabi geteroatom bo'lgan ge-terosiklik birikmalar muhim ahamiyatga ega.

Geterosiklik birikmalar sikldagi zvenolarning va geteroatom-larning soniga, geteroatomning tabiatiga va boshqa belgilariغا qarab klassifikatsiyalanadi. Geterosiklik birikmalar 3, 4, 5 va 6 a'zoli sikllardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. 5 va 6 a'zoli halqalardan tashkil topgan geterosiklik birikmalar keng tarqalgan. Geterosikllarda bir, ikki va bir necha geteroatom hosil bo'lishi mumkin. Ular ikki va bir necha sikllarni qo'shilishidan ham hosil bo'lishi mumkin.


Geterosiklik birikmalar tuzilishi va xossalari jihatidan karbosiklik birikmalardan farq qiladi. Geterosiklik birikmalar barqarorligi, ba'zilari o'zlarining xossalari jihatidan benzolga yaqin turadi, ya'ni aromatik xarakterga ega bo'ladilar.

Geterosiklik birikmalarning asosiy sinflari quyidagicha:


### 1. 5 a'zoli 1 ta geteroatomli birikmalar.



furan






tiofen






pirrol





**2. 5 a'zoli 2 ta geteroatomli birikmalar.**





**3. 6 a'zoli 1 ta geteroatomli birikmalar.**




**4. 6 a'zoli 2 ta geteroatomli birikmalar.**




**5. Ikki halqali geterosiklik birikmalar.**



**Nomenklaturasi.** Bir geteroatomli geterosiklik birikmalarni rasional nomenklaturaga ko'ra, nomlashda ham tegishli geterosikllarning trivial nomlari asos qilib olinadi. Yon zanjinda functional gruppalar saqlagan birikmalarning nomi esa tegishli geterosiklik radikallarning nomidan foydalaniib tuziladi. Besh a'zoli geterosiklik birikmalarda o'rinnbosarlarning holati  $\alpha$ ,  $\alpha'$ ,  $\beta$ ,  $\beta'$  va olti a'zoli geterosiklik birikmalarda —  $\alpha$ ,  $\alpha'$ ,  $\beta$ ,  $\beta'$ ,  $\gamma$  harflari bilan belgilanadi:




Sistematik nomenklaturasiga ko'ra nomlashda geterosiklning trivial nomi asos qilib olinadi. Halqadagi o'rinnbosarlarning holati esa raqam bilan ko'rsatiladi.




4-nitro-2-aminopyridin

Quyida eng muhim 5 va 6 a'zoli geterosiklik birikmalar hamda ularning hosilalari bilan tanishib chiqamiz.


Pirrol rangsiz, havoda tez oksidlanadigan beqaror suyuqlikdir. Uning qaynash temperaturasi 131°C. Pirrol suvda yomon, lekin spirt va efirda oson eriydi. Uning ta'sirida xlorid kislota bilan ho'ilangan cho'p qizil rangga bo'yaladi. Pirrol kislorod va oltingu-gurt saqlaydigan besh a'zoli geterosikllar bilan genetik bog'langan. Y. K. Yuryevning ko'rsatishicha, 300°C da Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> katalizatori ishtirokida ular o'zaro bir-biriga o'tib turadi.




Pirrol juda kuchsiz asos, uning imino gruppa vodorodi kuchsiz kislota xossasiga ega. Na va K kabi ishqoriy metallar bilan oson gidrolizlanadigan natriy yoki kaliyli tuzlarini hosil qiladi:



Pirrol va uning hosilalari aromatik xossalarni yaqqol namoyon qiladi. U o'z xossalari jihatidan fenolga ham o'xshaydi. Pirrol xlor, brom, hattoki, yod bilan oson elektrofil o'rinni almashinish reaksiyasiga kirishadi. Masalan, ishqoriy muhitda yodlashda pirrolning to'rtta vodorodi yodga almashinadi, natijada 2,3,4,5-tetrayodpirrol hosil bo'ladi:



Pirrol rux kukuni va suyultirilgan xlorid kislota ( $Zn+HCl$ ) bilan gidrogenlanib pirrolin, Pt yoki Ni katalizatori ishtirokida vodorod yoki  $HI$  bilan gidrogenlanganda pirrolidining aylanadi:




Pirrolning gidrogenlanishidan hosil bo'lgan pirrolin va pirrolidinlar kuchli asos xossasiga ega. Pirrol va pirrolidin halqalari tabiatda ko'pgina alkaloidlar tarkibida uchraydi: nikotin, atropin, kokain va hokazo. Oqsillar tarkibidagi pirolin, oksiprolin va triptofan, qon gemoglobinini, yashil o'simliklarning pigmenti — xlorofill pirrol va uning hosilalaridir.

**Piridin** — bir geteroatomli olti a'zoli geterosikllarning eng muhim vakili bo'lib, o'ziga xos yoqimsiz hidli suyuqlik.


Qaynash temperaturasi 115°C. Suv bilan har qanday nisbatda aralashadi.

Piridin yadrosi ko'pgina tabiiy birikmalar — alkaloidlar, vitaminlar tarkibida uchraydi. Sanoatda piridin va uning gomologlari toshko'mir smolasidan ajratib olinadi.


Piridin asos xossasiga ega, uning suvli eritmasi laksusni ko'ktiradi. Piridin suv bilan ammoniy gidroksidga o'xshash birikma hosil qiladi:



Piridin kuchli kislotalar bilan oson kristallanadigan tuzlar hosil qiladi. Piridin yadrosi xuddi benzol singari oksidlovchilar va kislotalarga nisbatan barqaror bo'lib, aromatik xossalarni yaqqol namoyon qiladi. Piridin yadrosida elektronlarning taqsimlanishi elektrofil almashinish reaksiyalar  $\beta$ - vodorod ishtirokida, nukleofil reaksiyalar esa  $\alpha$ - va  $\gamma$ - vodorod ishtirokida ketishini ko'rsatadi:




Piridin elektrofil o'rinni olish reaksiyalariga benzolga nisbatan qiyin (kislotali muhitda) kirishadi. Bunday muhitda piridin kation holatida bo'ladi.




Azotdagi musbat zaryad yadroning umumiy elektron zichligini yanada kamaytiradi, natijada elektrofil reagentlarning hujumi qiyinlashadi. Piridin nitrolash, galogenlash va vodorod bilan


qaytarish reaksiyalari yuqori temperaturada va katalizator ishtirotida boradi. Bunda reaksiya mahsulotlarining unumi yuqori bo'lmaydi:




Aksincha, nukleofil o'rın olish reaksiyalari piridinda oson boradi. Masalan, 2-xlorpiridin ishqoriy muhitda osongina 2-oksipiridining qadar gidrolizlanadi:




2-oxi piridinning tautomer shakli 2-oksopiridindir:




Bu yerda muvozanat o'ngga kuchli siljigandir. Piridinning hosilalari tirik organizmda sodir bo'ladigan biokimyoviy jarayonlarda muhim rol o'yнaydi. Vitamin PP — nikotin kislotaning amidi bo'lib, pellagra kasalligini davolashda ishlatalindi.



adenin  
(6-aminopurin)



guanin (6-окси-  
2-аминопурин)



siyidik kislota  
(2, 6, 7-триоксипурин)

Barcha oksi- va aminopurinlar yuqori temperaturada suyuqlanuvchi ( $300^{\circ}\text{C}$  dan yuqori), rangsiz kristall moddalar bo'lib, suvda yomon eriydi. Siyidik kislota, mochevina bilan birga siyidik tarkibiga kiradi va tirik organizmdan siyidik tarzida birga ajraladi. Qush va sudralib yuruvchilar, bo'g'ma ilonlar chiqindisida uning miqdori 90% gacha bo'ladi.

Adenin va guanin nuklein kislotalarning asosiy qismini tashkil etib, bular choy, qandlavlagi tarkibida ko'p miqdorda bo'ladi.

### **Alkaloidlar**

**Alkaloidlar** — tarkibida azot atomi tutgan, asos xossalariiga ega bo'lgan, ayrim o'simliklar tarkibida uchraydigan, odam va hayvon organizmiga kuchli fiziologik ta'sir qiladigan murakkab organik birikmalardir.

Ko'pgina o'simlik ekstraktlarining shifobaxsh va zaharli xususiyatlari juda qadim zamonalardan ma'lum. Fransuz farmatsevti Sege (1804-yili) tozalanmagan morfinni, nemis farmatsevti Sertyurner (1906-yili) toza morfinni, rus olimlaridan F. I. Gize (1815-yili) xininni, A. A. Voskresenskiy (1842-yili) teobrominni ajratib oldilar. Alkaloid konining tuzilishi 1886-yilda aniqlangan-dan so'ng alkaloidlar kimyosi keng rivojlanib ketdi. Hamma o'simliklar alkaloid saqlamaydi. Ko'knoridoshlar, dukkaklilar, ayiqtovonguldoshlar, zirkdoshlar kabi oilalarga kiruvchi o'simliklar alkaloidlarga boydir.


Alkaloidlarni toza holatda o'simliklardan ajratib olish ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladi. Ular o'simliklarda, asosan, tuz holida uchraydi. Alkaloidlarni erkin asos holida ajratib olish uchun o'simlik maydalaniadi, so'ngra ammiak yoki soda eritmalari bilan ho'llanadi va biror erituvchi (efir, xlorosform,

spirit) bilan ekstraksiya qilinadi. Olingan ekstrakt suyultirilgan kislotalarning, masalan, 10% li  $H_2SO_4$  eritmasi bilan ishlanadi. So'ngra kislotali eritmaga eritma ishqoriy muhitga o'tgunga qadar ishqor yoki ammiak eritmasi qo'shiladi va alkaloidlar tegishli erituvchilar yordamida ekstraksiyalab ajratib olinadi. Bu usulda alkaloidlar aralashma holida olinadi. Hozirgi vaqtida alkaloidlar aralashmasidan toza individual alkaloidlarni ajratib olish uchun xromatografiya usullarining barcha turlari (adsorbsion, ion-al-mashuvchi, yupqa qatlama xromatografiya, gaz— suyuqlik xromatografiya) va hozirgi zamon analistik usullar keng qo'llaniladi.


Rus olimi akademik A. P. Orexov Rossiyada alkaloidlar kim-yosiga asos soladi.

O'zbek olimlari, mehnat qahramonlari, akademiklar S. Y. Yunusov va O. S. Sodiqovlar alkaloidlar kimyosi matablarini yaratib, o'zlarining shogirdlari bilan birgalikda o'zbek alkaloidlar kimyosini dunyo miqyosiga olib chiqishga tuyassar bo'ldilar.

**Nikotin.** Tamaki (*Nicotiana tabacum*) o'simligining bargi va ildizida uchraydigan, suvda yaxshi eriydigan moysimon suyuqlik. U eng zaharli alkaloidlardan biri bo'lib, qishloq xo'jaligida kontakt insektitsidi sifatida ishlatiladi.



**Anabazin.** O'rta Osiyoda o'sadigan „Anabasis aphylla“ zaharli o'simlikning asosiy alkaloidi bo'lib, rangsiz, moysimon, kuchli zaharli suyuqlikdir. 1929-yilda anabazinning tulishini A. P. Orexov aniqlagan.



Anabazin nikotin singari qishloq xo'jaligida kontakt insektitsidi sifatida ishlatiladi.

## XVIII bob.

## Element - organik birikmalar


Molekul asida uglerod atomi bilan to'g'ridan to'g'ni bog'langan metall yoki metallmas atomlari bor birikmalar element-organik birikmalar deyiladi.

Birinchi bo'lib element - organik birikmalarni 1849-yilda ingлиз олими E. Frankland kashf etdi, u etil yodidga rux ta'sir ettirib dietil ruxni sintez qildi va uglerod atomlari metallar bilan bevosita bog'lanishi mumkinligini ko'rsatdi:



Element-organik birikmalar metall-organik birikmalar va metall-mas-organik birikmalarga bo'linadi. Ular tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Sof element-organik birikmalar. Bunday birikmalarda element atomlari faqat uglevodorod radikal bilan bevosita bog'lanadi:



2. Aralash element-organik birikmalar. Bularda element atomlari uglevodorod radikal bilan birga boshqa element bilan birikan bo'ladi. Misol:



### Metall - organik birikmalar

D. I. Mendeleyev davriy sistemasidagi elementlarni ko'pi metallar bo'lgani uchun, element-organik birikmalarining asosiy qismini metall-organik birikmalar tashkil etadi. Davriy sistemaning I gruppasi metali bo'lgan Li, Na, Cu, II gruppasi metali Zn, Mg.

Hg, III gruppadan Al ning, IV gruppaga metallaridan Sn, Pb ning hamda oraliq metallarning (Fe, Cr, Co, Ni, Pd, Pt) organik birikmalari ko'plab olingen bo'lib, quyida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan metallarning organik birikmalari bilan tanishamiz.

**Magniy-organik birikmalar.** Magniy - organik birikmalar galoid alkillarning suvsizlantirilgan (absolut) esirdagi eritmasiga magniy metali ta'sir ettirib olinadi:



Bu reaksiyani birinchi bo'lib 1861-yilda fransuz kimyogari F. Grinyar ochgan, shu sababli uni Grinyar reaksiyasi deb atalib, hosil qilingan magniy-organik birikmani Grinyar reaktivini deb ataladi.

Grinyar reaktivini eritmasida aralash va sof magniy-organik birikmalar muvozanat holatda bo'lib, bu muvozanat reaksiyaning tabiatiga qarab u yoki bu tomoniga siljigan bo'ladi:



Odatda, Grinyar reaktivini bilan olib boriladigan reaksiyalarda Grinyar reaktivini aralash  $R - MgX$  ko'rinishda yoziladi, chunki bu shakl reaktivda ko'p miqdorda bo'ladi.


Grinyar reaktivini ko'pgina moddalarini sintez qilishda foydalaniladi. Odatda, hosil qilingan magniy-organik birikma esirdan ajratib o'tirilmaydi, chunki uning reaksiyaga kirishish xususiyatiga esfiring ta'siri bo'lmaydi.

Tarkibida harakatchan vodorod bo'lgan moddalar (spirtlar, suv, aminlar va hokazo) magniy-organik birikmalar bilan o'rincalmashinish reaksiyasiga kirishadi va reaksiya natijasida alkanlar hosil bo'ladi:



Agar reaksiyada  $CH_3Mgl$  dan foydalansilsa, metan gazi hosil bo'ladi. Reaksiya natijasida ajralib chiqqan metanning hajmini o'lchab, tekshirilayotgan modda tarkibidagi faol vodorodni miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin (Chugayev — Serevitinov usuli).


Magniy-organik birikmalari (Grinyar reaktiv) qutblangan qo'sh va uch bog'li birikmalar bilan oson birikish reaksiyasiga kirishadi:



magniy alkoksid



magnit iminat



karbon kislotaning  
magniyli tuzi

Grinyar reaktivining etilen oksidi, uglerod (IV) oksidi, nitril, aldegid va ketonlar bilan reaksiyalari organik sintezda keng ishlataladi. Bu reaktiv yordamida turli tuzilishga ega bo'lgan karbon kislotalar, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirlarni sintez qilish mumkin.

O'simlik bargining yashil pigmenti — xlorofill molekulasida pirrol halqasi saqlagan murakkab porfinning magniyli kompleks birikmasi hisoblanadi. Xlorofill o'simlik hayotida muhim biologik ahamiyatga ega bo'lib, u o'simliklarda boradigan fotosintez jarayonida ishtirok etadi.

**Aluminiy-organik birikmalar.** Davriy sistemasining III gruppasi elementlari ichida aluminiyning organik birikmalari muhim ahamiyatga ega. Aluminiy-organik birikmalar litiy yoki magniy-organik birikmalar asosida olinadi:



Nemis olimi K. Siglerning ishlari aluminiy-organik birikmalar kimyosida yangilik bo'ldi. K. Sigler (1955) vodorod ishtirokida alkenlarga aluminiy ta'sir ettirib (3—20 MPa, 60—100°C da) trietyl aluminiyni sintez qildi:




Bu reaksiya natijasida olingan  $\text{Al}(\text{C}_2\text{H}_5)_3$ , stereoregular polimerlanish reaksiyalari uchun eng arzon va muhim kompleks katalizatorlaridan biri hisoblanadi.

**Oraliq metallar** ( $\text{Ti}$ ,  $\text{Cr}$ ,  $\text{Mn}$ ,  $\text{Fe}$ ,  $\text{Co}$ ,  $\text{Ni}$ ,  $\text{Pd}$ ,  $\text{Pt}$ ) ning  $\sigma-\sigma$  bog'lanishli ( $\text{Me}-\text{C}_6$ ) organik birikmalari juda beqaror bo'lib, ular tezda ozod uglevodorod radikallariga parchalanib ketadi.

Lekin oraliq metallar bir qator organik moddalar, ionlar va radikallar bilan barqaror birikmalar hosil qiladiki, bularning tuzilishini odatdag'i valentlik nazariyasi asosida tushuntirib bo'lmaydi. Bunday birikmalarga  $\pi$ -kompleks deyiladi.  $\pi$ -komplekslar da turli oksidlanish darajasiga ega bo'lgan metall elektroakseptor, organik molekula, ion yoki radikallar esa elektrodonor hisoblanadi va ularni ligandlar deyiladi. Uglerod (II) oksidi, alkinlar, allil va siklopentadiyenil radikallari hamda tropiliy kationlari ligandlar bo'lishi mumkin.

Birinchi bo'lib platina  $\text{Pt(II)}$  ning  $\pi$ -kompleksi 1827-yilda V. Seyze tomonidan olingan:



$\text{PdCl}_2$  ning etilen bilan suvsiz muhitda dimerli  $\pi$ -kompleksi hosil qilingan:



$\pi$ -komplekslarning tuzilishlari rentgen struktur tahlili usuli bo'yicha to'liq o'r ganilgan. Sanoatda sirka aldegidini olinishi, etilenning  $\text{PdCl}_2$  bilan  $\pi$ -kompleks hosil qilish orqali sodir bo'ladi.

### Kremniyli organik birikmalar

Davriy sistemada kremniy bilan uglerod bitta gruppada joylashgan bo'lsa ham, ularning birikmalari orasida farq mavjud. Bu, ayniqsa kremniyning organik hosilalariga tegishlidir.

Silanlar —  $\text{SiH}_4$ ,  $\text{Si}_2\text{H}_6$  kremniyning vodorod bilan hosil qilgan birikmalari bo'lib, ular tuzilishiga ko'ra alkanlarga o'xshash, ammo xossalari jihatidan ulardan farq qiladi. Silanlarda  $\text{Si}-\text{Si}$  bog'i mustahkam emasligi tufayli, alkanlar kabi silanlarning soni ko'p emas.

Silanlar  $\text{SiO}_2$  bilan magniy metalidan hosil bo'lgan qotishmani kislota bilan parchalab olinadi:



Uglevodorodlardan farqli o'laroq silanlar turg'un bo'lmay suv ta'sirida oson parchalanadi:



Galogenlar ta'sir ettirilganda silanlar, metan kabi o'rinn olish reaksiyasiga kirishadi:




Alkilsilanlar va ularning galogenli hosilalari ancha barqaror. Sanoatda bunday birikmalarni olish uchun  $300^\circ - 350^\circ\text{C}$  da kremniy va mis aralashmasidan o'tkaziladi:




Ushbu reaksiyada alkilgalogensilanlarning aralashmasi hosil bo'ladi. So'ngra aralashma fraksiyalab ajratiladi. Bu birikmalar oson uchuvchan suyuqliklardir.  $\text{Si}(\text{CH}_3)_4$  — tetrametilsilan va  $\text{Si}(\text{C}_2\text{H}_5)_4$  tetraetilsilanlar kremniyning to'liq alkillangan hosilasining vakillari bo'lib, kimyoviy inertligi jihatidan alkanlarga o'xshaydi.

Alkilxorsilanlar — kimyoviy faol birikmalar, ular oson gidrolizlanadi:



Bu misoldan ko'rinish turibdiki, gidroliz natijasida hosil bo'lgan silanollar — spirtlarning analoglari bo'lib, beqaror va tezda suv ajratib chiqarib osongina siloksanlarga — oddiy efirlarga o'tadi.

Dialkildixlorsilanlarning gidrolizlanishidan hosil bo'lgan silandiollar polikondensatlanib, polimer xarakteridagi polisilaksanlarga o'tadi:



Kremniy-organik polimerlar bir qator qimmatli xususiyatlarga ega. Ular issiqqa chidamli, yonmaydi, sovuqda qotmaydi, suvni shimmaydi, organik erituvchilarda erimaydi, agressiv suyuqliklar ta'siriga barqaror birikmalardir. Shuning uchun ularidan maxsus xususiyatlari silikon rezinalar, yelimlar, mashina moylari, pylonkalar, hatto tolalar ham tayyorlanadi. Bulardan tashqari kremniy-organik polimerlardan radiotexnika, samolyotsozlikda va boshqa sohalarda ham keng foydalaniildi.

Kremniy-organik birikmalar kimyosini rivojlanishida va bu birikmalarning xalq va qishloq xo'jaligining turli sohalariga keng joriy etishda akademiklar K. A. Andrianov va M. G. Voronkovlar katta hissa qo'shganlar.

Hozirgi vaqtida kremniy-organik birikmalar tarkibiga turli elementlar (azot, aluminiy, titan va hokazo) kiritilib, ularning xossalari yana ham yaxshilanmoqda.

Akademik M. G. Voronkov kremniy-organik birikmalarning alohida katta sinfi silatraniarni kashf etdi. Bu birikmalar keng doirali, o'ziga xos biologik faoliikkiga egaligi bilan qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega.

### Fosfor va mishyakli organik birikmalar

Fosfor va mishyak davriy sistemaning beshinchisi gruppa elementlari bo'lib, azot analoglaridir. Bu elementlarning organik hosilalari o'rtaida ham qisman o'xshashlik kuzatiladi. Bu ayniqsa ularning tuzilishlari o'xshashligida namoyon bo'ladi. Masalan:



Kimyoviy xossalari jihatidan o'xshashligi shundaki, fosfinlar asos xossasiga ega, ular aminlar kabi kislotalar bilan tuz hosil qiladi:



Silanlar  $\text{SiO}_2$  bilan magniy metalidan hosil bo'lgan qotishmani kislota bilan parchalab olinadi:



Uglevodorodlardan farqli o'laroq silanlar turg'un bo'lmay suv ta'sirida oson parchalanadi:



Galogenlar ta'sir ettirilganda silanlar, metan kabi o'rinn olish reaksiyasiga kirishadi:




Alkilsilanlar va ularning galogenli hosilalari ancha barqaror. Sanoatda bunday birikmalarni olish uchun  $300^{\circ}\text{--}350^{\circ}\text{C}$  da kremniy va mis aralashmasidan o'tkaziladi:




Ushbu reaksiyada alkilgalogensilanlarning aralashmasi hosil bo'ladi. So'ngra aralashma fraksiyalab ajratiladi. Bu birikmalar oson uchuvchan suyuqliklardir.  $\text{Si}(\text{CH}_3)_4$  — tetrametilsilan va  $\text{Si}(\text{C}_2\text{H}_5)_4$  tetraetilsilanlar kremniyning to'liq alkillangan hosilasining vakillari bo'lib, kimyoviy inertligi jihatidan alkanlarga o'xshaydi.

Alkilxorsilanlar — kimyoviy faol birikmalar, ular oson gidrolizlanadi:



Bu misoldan ko'rinish turibdiki, gidroliz natijasida hosil bo'lgan silanollar — spirlarning analoglari bo'lib, beqaror va tezda suv ajratib chiqarib osongina siloksanlarga — oddiy efirlarga o'tadi.

Dialkildixlorsilanlarning gidrolizlanishidan hosil bo'lgan silandiollar polikondensatlanib, polimer xarakteridagi polisilaksanlarga o'tadi:



Kremniy-organik polimerlar bir qator qimmatli xususiyatlariga ega. Ular issiqqa chidamli, yonmaydi, sovuqda qotmaydi, suvni shimmaydi, organik erituvchilarda erimaydi, aggressiv suyuqliklar ta'siriga barqaror birikmalardir. Shuning uchun ularidan maxsus xususiyatlari silikon rezinalar, yelimlar, mashina moylari, pylonkalar, hatto tolalar ham tayyorlanadi. Bulardan tashqari kremniy-organik polimerlardan radiotexnika, samolyotsozlikda va boshqa sohalarda ham keng foydalaniladi.


Kremniy-organik birikmalar kimyosini rivojlanishida va bu birikmalarning xalq va qishloq xo'jaligining turli sohalariga keng joriy etishda akademiklar K. A. Andrianov va M. G. Voronkovlar katta hissa qo'shganlar.

Hozirgi vaqtida kremniy-organik birikmalar tarkibiga turli elementlar (azot, aluminiy, titan va hokazo) kiritilib. ularning xossalari yana ham yaxshilanmoqda.

Akademik M. G. Voronkov kremniy-organik birikmalarning alohida katta sinfi silatranlarni kashf etdi. Bu birikmalar keng doirali, o'ziga xos biologik faoliyetta egaligi bilan qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega.

### Fosfor va mishyakli organik birikmalar

Fosfor va mishyak davriy sistemaning beshinchi gruppa elementlari bo'lib, azot analoglaridir. Bu elementlarning organik hosilalari o'rtasida ham qisman o'xshashlik kuzatiladi. Bu ayniqsa ularning tuzilishlari o'xshashligida namoyon bo'ladi. Masalan:




Kimyoviy xossalari jihatidan o'xshashligi shundaki, fosfinlar asos xossasiga ega, ular aminlar kabi kislotalar bilan tuz hosil qiladi:




Fosfinlarning asosli xossasi aminlarga nisbatan kuchsizroq. Arsinlar esa kislotalar bilan tuz hosil qilmaydi.

Fosfor va mishyakli organik birikmalarning azotli birikmalar dan farqi asosan, fosfin va arsinlarning elektromansiy elementlar (kislorod, galogenlar) bilan oson reaksiyaga kirishishi bilan bog'liq. Masalan, birlamchi va ikkilamchi fosfinlar oksidlanib, tegishli alkil va dialkil fosfin kislotalarni hosil qiladi.




Fosfor-organik birikmalar kimyosining rivojlanishida rus kim-yogari A. E. Arbuzov matabining hissasi katta. Bu matabda alkil fosfin kislotalaning juda ko'p hosilalari sintez qilindi va ularning xossalari tekshirildi.


A. E. Arbuzov birinchi marta uchlamchi alkilosfatga galoid alkil ta'sir ettirib, alkilosfin kislota esirini sintez qildi (Arbuzov reaksiyasi).




Mishyak ham xuddi fosfor kabi tuzilishga ega birikmalar hosil qiladi. Fosfor va mishyakning organik birikmali orasida kuchli biologik faol moddalar topilgan. Masalan:



xlorofos



tiosfos



Stovarsol (spirosid)


Stovarsol — uyqu kasalligini davolashda ishlataladigan preparatdir.



## Savol va mashqalar

1. Aralash va sof element-organik birikmalar orasida qanday o'xshashlik va farq bor?
2. Element-organik birikmalar molekulasida qanday kimyoviy bog'lanishning turi mavjud?
3. Element-organik birikmalar qanday sinflarga bo'linadi?
4. Metall-organik birikmalarning kimyoviy faol bo'lishiga sabab nima?
5. Quyidagi moddalarni nomlang:  
 $(C_2H_5)_2Zn$ ;  $(CH_3)_3P$ ;  $(CH_3)_4Si$ ;  $C_2H_5AsH_3$
6. Dietilruxni olish reaksiya tenglamasini yozing.
7. Grinyar reaktivi yordamida trimetil karbonil hosil bo'lish reaksiya tenglamasini yozing.
8. Quyidagi reaksiyalarni tugallang.
  - a)  $CH_3MgBr + CO_2 \longrightarrow A \longrightarrow B$
  - b)  $CH_3 - CH_2MgBr + CH_2 - \overset{O}{\underset{|}{\text{CH}_2}} \longrightarrow A \longrightarrow B$
  - c)  $CH_3 - CH_2MgBr + (CH_3)_2CO \longrightarrow A \longrightarrow B$
9. 0,176 g moddadan 14,8 ml metan (n.sh. da) olindi. Tekshirilayotgan modda tarkibida harakatchan vodorodning miqdorini aniqlang.
10. 9,5 g metil bromiddan olingan metil magniy bromidga suv ta'sir ettilganda qanday gaz va qancha hajmda ajralib chiqadi?
11. Trietyl aluminiiyning hosil bo'lish reaksiya tenglamasini yozing va ishlatalish sohasini bayon qiling.
12. Tetraethylqo'rgoshin qanday usullarda olinadi va qanday maqsadda ishlataladi?
13. Qanday birikmalarga  $\pi$ -kompleks deyiladi?
14. Texnikada kremniy-organik birikmalar qaysi usulda olinadi?
15. Dimetildixlorsilanni olish reaksiya tenglamasini yozing.
16. Kremniy-organik birikmalarning ishlatalish sohasini bayon qiling.
17. Nima uchun fosfinlarning asosiligi aminlarga qaraganda kuchsiz? Asosli javob bering.
18. Fosfor va mishyakli birikmalarning azotli organik birikmalardan farqini misollar asosida izohlang.
19. Arbuzov reaksiyasida butilsosfin kislotaning dietilefirini olish reaksiya tenglamasini yozing.
20. Fosfor va mishyakli organik birikmalarning ishlatalish sohalarini bayon qiling.


bo'lib, ular juda beqaror, kimyoviy faoldir. Ular tezda monomer, masalan, etilen molekulasi bilan reaksiyaga kirishadi. Natijada etilendan toq elektronga ega bo'lgan yangi radikal hosil bo'ladi va shu tariqa polimer zanjiri o'sa borib makromolekulaga aylanadi:




**Ionli polimerlanishda** faol markaz ion hosil bo'lish bilan boshlanadi va katalizator ishtirokida sodir bo'ladi. Shu sababli ionli polimerlanishni katalitik polimerlanish deb ham ataladi. Bu jarayonda uchrayotgan zanjir uchida kation yoki anion hosil bo'ladi. Ular o'zining musbat yoki manfiy zaryadlarini zanjir bo'ylab uzatishi orqali molekulaning o'sishiga imkoniyat yaratadi. Katalitik polimerlanish zanjir uchida katalizatorning qanday ion hosil qilishiga qarab kationli va anionli bo'ladi.


Kationli polimerlanish kuchli kislotalar yoki Lyuis kislotalari ( $BF_3$ ,  $AlCl_3$ ,  $TiCl_4$ ,  $SnCl_4$ ) ishtirokida boradi. Bunday polimerlanishni izobutilen misolida quyidagicha yozish mumkin.

### 1. Faol markazning hosil bo'lishi:



### 2. Zanjirming o'sishi:





Hosil bo'lgan makrokationga  $\text{BF}_3\text{OH}$  anionini birikishi yoki makromolekuladan protonning ( $\text{N}^+$ )ajralishi natijasida zanjir uzilishi sodir bo'ladi.

**Sopolimerlanish.** Ikki yoki undan ortiq monomerlarning birgalikda polimerlanish reaksiyasi sopolimerlanish reaksiyasi deb, hosil bo'lgan polimerga esa sopolimer deb ataladi. Bunday reaksiyalar natijasida o'ziga xos yangi sifatli sopolimerlarni sintez qilish mumkin. Ajoyib xossalarga ega butadiyen-stirol, butadiyen-nitril kauchuklar va sintetik tolalar olishda sopolimerlanish reaksiyalardan foydalaniladi.

**Polikondensatlanish reaksiyaları.** Ko'pchilik sintetik YMB lar polikondensatlanish reaksiyaları asosida hosil qilinadi. Bu reaksiyalarda asosiy mahsulot YMB hosil bo'lish bilan bir qatorda ikkilamchi mahsulot (suv,  $\text{HCl}$ , ammiak, spirt kabi)lar ajralib chiqadi. Shuning uchun ham polikondensatlanish reaksiyasi orqali olinadigan YMB larning molekular massasi dastlabki olingan monomerlarning molekular massasining yig'indisidan kichik bo'ladi. Polimerlar makromolekulalarning tuzilishiga ko'ra chiziqlimon, tarmoqlangan va fazoviy tuzilishga ega polimerlarga bo'linadi.

Chiziqli polimerlar makromolekulalarda har bir struktura birligi (A) faqat ikkita qo'shni birlik bilan bog'lanib, tarmoqlanmagan to'g'ri zanjirni hosil qiladi:



Tarmoqlangan polimerlarning asosiy zanjirida ba'zi bir struktura birliklar uchta qo'shni birlik bilan bog'lanib yon zanjir hosil qiladi:



Bunday polimerlarning termoplastikligi oshadi, mexanik mustahkamligi kamayadi. Yon tarmoqlar qancha uzun bo'lsa,

polimer shuncha past temperaturada yumshaydi, yaxshi eriydi, yumshoq va elastik bo'ladi.

Fazoviy tuzilishli polimerlarda uzun chiziqsimon makromolekulalarning zanjirlari bir-biri bilan ko'p kimyoviy bog'lar orqali bog'langan («tikilgan») bo'ladi:



Bunday polimerlar hech qanday erituvchida erimaydi, qizdirilganda parchalanmasdan suyuqlanmaydi, qattiq va mo'rt bo'ladi. Kauchukni vulkanlash orqali olinadigan rezina, fenol-formaldegid smolalar fazoviy tuzilishli polimerlarga misol bo'ladi.

### YMB lar plastmassa sifatida

*Plastmassalar* (plastik massalar) deb tarkibi, asosan, polimer moddalardan iborat materiallarga aytildi.

Plastmassalar qizdirishga nisbatan o'z holatini turlicha o'zgartiradi. Masalan, polietilen parchasi qizdirilsa, u yumshaydi va qovushqoq-oquvchan holatga o'tib, o'z shaklini oson o'zgartiradi. Lekin, u sovitulganda qotadi va unga qanday shakl berilgan bo'lsa, o'sha shaklini saqlab qoladi.

Moddalar qizdirilganda o'z shaklini o'zgartirib, sovitulganda o'sha o'zgartirilgan shaklini saqlab qolish xossasi *termoplastiklik* deb ataladi.

Plastmassalarning bunday termoplastiklik xossasi ularni qayta ishlashda katta ahamiyatga ega. Termoplastiklik xossaga ega bo'lган polimerlar termoplastik polimerlar deb, ularga polietilen, poli propilen, polistirol, poliakril efirlari va hokazolar misol bo'ladi.

Ba'zi plastmassalar qizdirilganda oldin suyuqlanadi, so'ngra esa yumshaydigan va suyuqlanib ketmaydigan qattiq holatga o'tadi. Polimerlarning bunday xossasi *termoreaktivlik* deb ataladi. Yuqori temperatura va bosimda termoreaktiv polimerlarning tarmoqlangan molekulalari o'zaro kimyoviy reaksiyaga kirishib, fazoviy

tuzilishga ega bo'lgan polimer hosil bo'ladi. Bu jarayon qaytmasdir, ya'ni polimerning dastlabki holati qayta tiklanmaydi. Bunday materiallar o'zini termoplastlikligini yo'qotadi va yanada mustahkam bo'lib qoladi. Termoreaktiv polimerlarga fenolformaldegid va mochevina-formaldegid smolalar misol bo'ladi.

Plastmassalar tarkibiga ko'ra oddiy va kompozitsiyali bo'lishi mumkin.

Oddiy plastmassalar faqat polimer molekulalaridan tashkil topgan bo'ladi (polietilen, polistirol, poli propilen va boshqalar). Kompozitsiyali plastmassalar ko'p komponentli bo'lib, ularda polimerlardan tashqari to'ldiruvchi, plastifikatorlar, stabilizator, bo'yoqlar va hokazolar bo'ladi.

To'ldiruvchilar plastmassalarning qattiqligi, mexanikaviy puxtaligi, organik erituvchilar, kislota va ishqorlar singari aggressiv moddalar ta'siriga barqarorligini oshirish va ularning tannarxini arzonlashtirish maqsadida qo'shiladigan moddalaridir.

To'ldiruvchilar sifatida gips, kaolin, taxta va paxta chiqindilari, shisha tolasi, qurum va boshqa arzon mahsulotlar ishlatalidi.

*Plastifikatorlar* plastmassalarning erish temperaturasini pasaytiradigan, plastikligini oshiradigan, ulardan buyumlar tayyorlashni osonlashtiradigan moddalardir. Plastifikator sifatida ko'pgina yuqori temperaturada qaynovchi quyi molekular suyuqliklar, ya'ni murakkab esirlar, uglevodorodlarning galoidli hosilalari ishlataladi.

*Stabilizatorlar* — plastmassalarning havodagi kislород, yoruglik va boshqa omillar ta'sirida parchalanish va oksidlanish reaksiyalariga chidamliligini oshiradigan, ya'ni ularning boshlang'ich fizik-mexanik ko'rsatkichlarini saqlab qolishga yordam beradigan birikmalardir.

Eng muhim plastmassalarning olinishi va ishlatalishi 12-jadvalda keltirilgan.

### **YMB tolalar sifatida**


Hayot tajribasidan biz tabiiy tolalarmi (paxta, ipak, zig'ir, jun tolalarmi) juda yaxshi bilamiz. Sellulozaning kimyoviy xossalalarini o'rganish davomida sun'iy tolalarning vakili — asetilselluloza (asetat ipagi) bilan tanishilgan.

## Eng muhim plastmassalarga umumiy tafsif


Nomi	Dastlabki modda (monomer)	Polymer formulasi (olinish usuli)	Ishlatilishi
1	2	3	4
Polietilen	$\text{CH}_2=\text{CH}_2$ etilen	$(-\text{CH}_2-\text{CH}_2-)_n$ polimerlanish	Turli apparatlarning detallari, vodoprovod quvurlari, turli plyonkalar (issiqxonalar uchun plyonkalar), uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlashda ishlataladi
Polipropilen	$\text{CH}_3\text{CH}=\text{CH}_2$ propilen	$\text{CH}_3$ $(-\text{CH}_2-\text{CH}-)_n$ polimerlanish	Polietilenga qaraganda juda ham pishiq. Turli apparatlarning detallari, yupqa plyonkalar, argon, quvur, yuqori darajadagi izolatsion materiallar tayyorlashda ishlataladi.
Polivinil xlorid	$\text{CH}_2=\text{CHCl}$ vinil xlorid	$(-\text{CH}_2-\text{CH}-)_n$ Cl polimerlanish	Suniy charm, plash, kleyonka, quvurlar ishlab chiqarishda, elektr simlar uchun izolatsion material sifatida ishlataladi.
Polistirol	 -CH=CH <sub>2</sub> stirol	$(-\text{CH}-\text{CH}_2-)_n$  polimerlanish	Elektr-izolatsion materiallar, kislotaga chidamli quvurlar, turli uy-ro'zg'or buyumlari, penoplastilar (yengil quvur materiallar) tayyorlashda ishlataladi.

## Davomi

1	2	3	4
Politetraflor- etilen (teflon)	$\text{CF}_2=\text{CF}_2$ , tetraflor etilen	$(-\text{CF}_2-\text{CF}_2-)_n$ polimerlanish	Kimyoiy barqarorligi, yuqori temperaturaga chidamliligi, dielektrik xossalari yaxshiligidan foydalanih, undan vintellar, qonigich valvari, nasoslar, kimyo sanoatining kuchli aggressiv sharoitida ishlaydigan asbob-uskunalar va kabel tayyorlanadi.
Polimetilmek- akrilat	$\text{CH}_2=\text{C}(\text{CHO})\text{C}-\text{OCH}_3$ metilmekakrilat	$[\text{---CH}_2-\text{CH}-\text{COOCH}_3]_n$ polimerlanish	Shaffos plastmassa, silikat shishadan ancha musibakm bo'lgan organik shisha ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Organik shisha samolyot va turli apparat hamda boshqa asboblarda (himoy qiluvchi shi-sha sifatida) ishlataladi.
Fenolformal- degid smola	$\text{C}_6\text{H}_5\text{OH}$ va $\text{H}-\text{C}(=\text{O})\text{H}$ fenol formaldegid	$[\text{---CH}_2-\text{C}_6\text{H}_4-\text{CH}_2-\text{C}(=\text{O})\text{H}]_n$ polikondensallash	Fenolformaldegid smolasidan turli qimmatli xususiyatga ega bo'lgan fenoplastlar tayyorlanadi. Ulardan avtomashinalar uchun sharikli podshipniklar, shesternalar, tormozlaydigan ustamalar, eskalator zina-poyalari, telefon apparatlari tayyorlanadi.




Bu murakkab efir polikondensatlanganda YMB — lavsan hosil bo'ladi:



lavsan tolasi

Lavsan tolalariga tabiiy tolalar (paxta tolasi) qo'shilganda yuqori sifatli gazlama—trikotajlar hosil bo'ladi. Bunday gazlamalar yaxshi, sifatli, g'ijim bo'lmaydi. Lavsan shuningdek, transportir lentalari, kamar, pardalar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CN}$  — akrilonitrilning polimerlanishi natijasida nitron tolasi olinadi:



### YMB kauchuk sifatida

Tabiiy kauchuklar — elastik YMB bo'lib, kauchuk saqlaydigan o'simliklar, masalan, Braziliya geveyasidan olinadi. Kauchuk olish uchun daraxtning po'stlog'i kesiladi va undan sutsimon shira (lateks) ajralib chiqadi. Sutsimon shira kauchukning suvdagi kolloid eritmasi bo'lib, bu eritmaga ozroq mineral kislotalar qo'shish orqali kauchuk koagulatsiyaga uchratiladi, natijada shiradagi kauchuk mayda zarrachalar holida ajralib chiqadi. Eritma uchun ajratib olingan xom kauchuk quritiladi va oksidlanishdan saqlash uchun dudlanadi. Kauchuk xloroform, benzol, uglerod sulfidda va benzinlarda yaxshi, spirtda bir oz, suvda esa amalda erimaydi. Uning eng qimmatli xossalardan elastikligi, suv va gaz o'tkazmasligi hamda u eng yaxshi elektroizolator hisoblanadi.


Angliyalik muhandis K. Makintosh (1823) birinchi bo'lib kauchukni amaliyotda ishlatalishni topdi va kauchuk eritmasida shimidirilgan gazmoldan suv o'tkazmaydigan buyumlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi. Lekin, bu sof kauchukdan tayyorlangan materiallar past temperaturada mo'rt, yuqori temperaturada esa yumshab, yopishqoq bo'lib qoladi. Shu sababli kauchukning sanoatda keng miqyosda ishlatalinishi 1849-yilda amerikalik savdogar Charlz Gudyar tomonidan vulkanizatsiya jarayoni, ya'ni rezina kashf qilinganidan so'ng boshlandi.

Hozirgi vaqtida kauchuk va rezina mahsulotlarining ahamiyati xalq xo'jaligida bebahodir. Kauchukdan aviatsiya, avtomobil shinalari, elektroizolatsiya buyumlari, keng iste'mol mollari (poyabzal, sport mollari, o'yinchoqlar), turli xil tibbiyot buyumlari, laboratoriyada qo'llaniladigan noyob asboblar va ko'plab boshqa buyumlar tayyorlanadi.

**Tuzilishi.** Tabiiy kauchukning tuzilishini aniqlash hamda sintetik kauchuklarni sintez qilish 100 yildan ortiq yilni o'z ichiga oladi.

1826-yilda M. Faradey kauchuk molekulasi uglerod va vodorod atomlaridan iborat to'yinmagan uglevodorod ekanligini aniqladi. 1860-yilda ingлиз олими G. Vilyams kauchukni «quruq haydash» natijasida  $C_5H_8$ , tarkibli izoprenni oladi. Oradan 22 yil o'tgach, ingлиз kimyogari U. Tilden izoprenni polimerlab kauchuksimon moddani hosil qiladi va tabiiy kauchuk bilan izopren o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

Tabiiy kauchuk izoprenni polimerlash mahsuloti ekanligi va uning to'liq tuzilishi 1924-yilda nemis kimyogari G. Shtaudinger tomonidan aniqlandi:



## Eng muhim sintetik kauchuklar, ularning xossalari va ishlatalishi


Nomi	Dastlabki moddalar (monomerlar)	Polimerning formulasi (olinish usuli)	Eng muhim xossasi va qo'llanishi
Butadiyen kauchuk	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ , butadiyen-1,3	$\left[ \begin{array}{c} \text{H} & & \text{CH}_2- \\ & \diagdown \quad \diagup & \\ & \text{C} = \text{C} & \\ & \diagup \quad \diagdown & \\ -\text{CH}_2 & & \text{H} \end{array} \right]_n$ noregular tuzilishli (polimerlanish)	Suv va gazlarni o'tkazmaydi. Elastiklik jihatidan tabliy kauchukdan keyinda turadi. Kabel, poyabzal, turmush uchun zaruriy buyumlar ishlab chiqarishda ishlataladi.
Divinil kauchuk	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ , butadiyen-1,3	$\left[ \begin{array}{c} \text{H} & & \text{H} \\ & \diagdown \quad \diagup & \\ & \text{C} = \text{C} & \\ & \diagup \quad \diagdown & \\ -\text{CH}_2 & & \text{CH}_2- \end{array} \right]_n$ stereoregular tuzilishli (polimerlanish)	Chidamliliği va elastikligi jihatidan tabiiy kauchukdan ustun. Shina ishlab chiqarishda ishlataladi.
Izopren kauchuk	$\begin{array}{c} \text{CH}_2=\text{C}-\text{CH}=\text{CH}_2 \\   \\ \text{CH}_3 \end{array}$ 2-metil-butadiyen-1,3 (izopren)	$\left[ \begin{array}{c} \text{H}, \text{C} & & \text{H} \\ & \diagdown \quad \diagup & \\ & \text{C} = \text{C} & \\ & \diagup \quad \diagdown & \\ -\text{CH}_2 & & \text{CH}_2- \end{array} \right]_n$ stereoregular polimerlanish	Elastikligi va chidamliliği jihatidan tabiiy kauchukka o'xshaydi. Shinalar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

## Davomi

Xloropren kauchuk	$\text{CH}_2=\text{C}-\text{C}=\text{CH}_2$ 2-xlorbutadiyen-1,3	$\left[ \begin{array}{c} -\text{CH}_2-\text{C}=\text{CH}-\text{CH}_2- \\   \\ \text{Cl} \end{array} \right]_n$ polimerlanish	Yuqori harorat ta'siriga chidamli, benzin va moyning yonishi ta'sir etmaydi. O'zidan gaz o'tkazmaydi. Kabellar, benzin va neft o'tkazish uchun quvurlar tayyorlashda ishlataladi.
Butadiyen stirol kauchuk	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ , butadiyen-1,3 $\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}=\text{CH}_2$ , stirol	$\left[ \begin{array}{c} -\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{CH}_2- \\   \\ \text{C}_6\text{H}_5 \end{array} \right]_n$ sopolimerlanish	O'zidan gaz o'tkazmaydi, lekin o'tga chidamsizroq, transportirlar, avtokameralar ishlab chiqarishda ishlataladi.
Butadiyen nitril kauchuk	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ , butadiyen-1,3 $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CN}$ , akrilonitril	$\left[ \begin{array}{c} -\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{CH}_2- \\   \\ \text{CN} \end{array} \right]_n$ sopolimerlanish	Organik erituvchilarga nisbatan chidamli. Shu sababli, moy va benzin ta'siriga chidamli shlanglar, quvurlar hamda neft mahsuloti saqlanadigan idishlar tayyorlanadi.
Florokau-chuk	$\text{CF}_2=\text{CFC}$ triflorokloretilen $\text{CH}_2=\text{CF}_2$ , viniliden florid	$\left[ \begin{array}{c} -\text{CF}_2-\text{CF}-\text{CH}_2-\text{CF}_2- \\   \\ \text{Cl} \end{array} \right]_n$ sopolimerlanish	Bu kauchukdan yuqori temperaturaga hamda kimyoiy aggressiv moddalarga chidamli materiallar tayyorlanadi.

*Davomi*


1	2	3	4
Kremniy-organik (siloksan) kauchuk	$(\text{CH}_3)_2\text{Si}(\text{OH})_2$ dimetil silandiol	$\left[ \begin{array}{c} \text{CH}_3 & \text{CH}_3 \\   &   \\ -\text{Si}-\text{O}-\text{Si}-\text{O}- \\   &   \\ \text{CH}_3 & \text{CH}_3 \end{array} \right]_{\text{polikondenslarish}}$	Kremniy-organik kauchuklar yuqori va past temperaturalarda elastiklik xossalariini saqlab qoldi. Shu sababli, ular yuqori va past (70° dan 250°C gacha) temperaturalarga chidamli kabel simlari va boshqa detallar tayyorlashtda ishlataladi.



tabiiy kauchuk  
(sis - 1,4-poliizopren)

Keyinchalik rentgen struktur analiz usuli yordamida olib bo'rilgan tekshirishlar tabiiy kauchukning sis - 1,4-poliizopren tuzilishiga ega ekanligini ko'shatadi.

Indoneziya va Hindiston yarimorolida uchraydigan ayrim o'simliklar shirasidan ajratib olingan kauchuksimon modda — *guttapercha* deb atalib, u tabiiy kauchukning fazoviy izomeri bo'lib, trans - 1,4-poliizopren tuzilishiga ega ekanligi aniqlangan:



*guttapercha*  
(*trans*-1,4-poliizopren)

Guttapercha kauchukdan farq qilib, odatdag'i sharoitda qattiq, qizdirilganda yumshaydi. U elektr kabellar ishlab chiqarishda izolatsiya materiali sifatida ishlatalidi.

**Sintetik kauchuklar.** Xalq xo'jaligining birorta tarmog'i yo'qliki, kauchuk va uning vulkanlanish mahsuloti—rezina ishlatilmagan bo'lsin. Lekin o'simlikdan olinadigan kauchuk xalq xo'jaligining kauchukka bo'lgan talabini qondira olmaydi va juda qimmatga tushadi. Shu sababli, sintetik kauchuk olishning sanoat usullarini topish zaruriyati tug'ildi. 1932-yilda dunyoda birinchi bo'lib, Rossiyada akademik S. V. Lebedev rahbarligida sintetik kauchuk sanoat mashtabida ishlab chiqarila boshlandi. S. V. Lebedev usulli bo'yicha sintetik kauchuk — etil spiritidan olingan butadiyen-1,3 ni natriy metali ishtirokida polimerlab olingan:



Hozirda butadiyen-1,3 etil spiritidan emas, balki butanni katalitik degidrogenlab olinmoqda. Butadiyen kauchuk elastikligi va yedirilishiga chidamliligi jihatidan tabiiy kauchukdan keyin turadi. Uning makromolekulasi tarmoqlangan tuzilishga ega.

Hozirgi vaqtida tuzilishi tabiiy kauchuknikiga o'xhash stereoregular tuzilishli (makromolekulada metil gruppalar qat'iy muayyan tartibda joylashgan) izopren ishlab chiqarish yo'liga qo'yilgan. Stereoregular tuzilishli butadiyen kauchuk ham olin-gan, u divinil kauchugi deyiladi. Stereoregular tuzilishli izopren va divinil kauchuklar xossalari jihatidan tabiiy kauchukka yaqin turadi. Divinil kauchugi esa yedirilishga chidamliligi jihatdan, hatto tabiiy kauchukdan ustun turadi.

Yuqorida keltirilgan sintetik kauchulkardan tashqari hozirgi vaqtida sopolimerlanish reaksiyasi bo'yicha olinadigan butadiyen stirol, butadiyen nitril hamda tarkibida fтор va kremniy tutgan juda ko'p sintetik kauchuklar ishlab chiqarilmoqda. Bu kauchuklar o'ziga xos ba'zi xususiyatlari bilan tabiiy kauchulkardan ustun turadi. 13-jadvalda sintetik kauchuklarning eng muhim turlari va ularning asosiy xossalari va ishlatilishi keltirilgan.

### *Savol ra mashqlar*



1. Qanday moddalar YMB lar deb ataladi? Misollar keltiring.
2. Tabiiy, sun'iy va sintetik YMB larga misollar keltiring va farqini tushuntiring.
3. YMB larni quyi molekular birikmalardan farqini bayon qiling.
4. Monomer deb qanday moddalarga aytildi? Misollar keltiring.
5. Struktura bo'g'in va polimerlanish darajasi nima?
6. Polimerlanish reaksiyasi deb qanday reaksiyaga aytildi? Butilen, stirol va vinilxloridlarning polimerlanish reaksiyasini yozing.
7. Polikondensatlanish reaksiyasi polimerlanish reaksiyasiidan nimasi bilan farqlanishini aniq misollar asosida tushuntiring.
8. Zanjirli va ionli polimerlanishning farqi nimada? Javobingizni misollar asosida izohlang.
9. Sopolimerlanish nima? Uning mohiyatini tushuntiring.
10. Qaysi polimerlarni termoplastik, qaysilari termoaktiv polimerlar deb ataladi. Misollar keltiring.
11. Fenolformaldegid smolasining hosil bo'lish jarayonining mohiyatini tushuntiring. Fenoplastlarning ishlatilishini bayon qiling.
12. Plastmassalar nima? Ularning ishlatilish sohasini bayon qiling.
13. To'ldiruvchi va plastifikatorlar nima? ular plastmassalarning xossalanga qanday ta'sir qiladi?
14. Tolalarning qanday turlari ma'lum. Misollar keltiring.
15. Sun'iy tola sintetik toladan nimasi bilan farqlanadi? Misollar asosida tushuntiring.

- 16.** Sizga tanish bo'lgan poliamid to'lalarga misol keltiring va hosil qilish reaksiya tenglamasini yozing.
- 17.** Lavsan kimyoviy tarkibiga ko'ra qanday tola jumlasiga kiradi? Lavsan olish uchun qaysi monomerlardan foydalaniлади?
- 18.** p-ksiolning oksidlanishidagi qanday mahsulot hosil bo'ladi va qanday maqsadda ishlataladi?
- 19.** Tabiiy kauchuk to'yinmagan uglevodorod ekanligini tajribada qanday isbotlash mumkin?
- 20.** Tabiiy kauchuk bilan guttaperchaning farqi va o'xshash xossalariни bayon qiling.
- 21.** Sanoat miqyosida sintetik kauchuk olish usuli qachon va kim tomonidan taklif etilgan? Reaksiya tenglamalarini tuzing.
- 22.** Sintetik kauchuklar tarkibiga kengan monomerlarni nomlang va tuzilishini yozing.
- 23.** Butadiyen va divinil kauchuklarni olish uchun bir xil monomer ishlataladi. Nima uchun bu kauchuklar bir-biridan farq qilishi sababini tushuntiring.
- 24.** Polibutilenning nostereoregular va stereoregular tuzilishini yozing va ularning tuzilish xossalariга ta'sirini izohlang.
- 25.** Xlorpren kauchugi hosil bo'lish reaksiya tenglamasini yozing va tarkibidagi xlorning(%) miqdorini aniqlang.
- 26.** Fitorli va kreminiy - organik kauchuklarga misol keltiring va qo'llanilish sohalarini bayon qiling.

## MUNDARIJA

So'zboshi .....	3
Kirish .....	4
•Organik kimyo• fanining rivojlanish tarixidan .....	5
<b>I bob. Organik birikmalar .....</b>	<b>8</b>
Organik birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari .....	8
Organik birikmalarning kimyoviy tuzilish nazariyasi .....	10
Izomeriya .....	12
Organik birikmalarda kimyoviy bog'lanishning elektron tabiatи .....	13
Organik birikmalarga xos bo'lgan reaksiya turlari .....	18
Organik birikmalarning sinflari .....	20
Savol va mashqlar .....	23
<b>II bob. Uglevodorodlar .....</b>	<b>24</b>
Alkanlar .....	24
Laboratoriya ishlari .....	33
Savol va mashqlar .....	34
<b>III bob. Sikloalkanlar .....</b>	<b>35</b>
Savol va mashqlar .....	38
<b>IV bob. Alkenlar .....</b>	<b>38</b>
Laboratoriya ishi .....	43
Savol va mashqlar .....	44
<b>V bob. Alkadiyenlar (diyen uglevodorodlar) .....</b>	<b>44</b>
Laboratoriya ishlari .....	48
Savol va mashqlar .....	48
<b>VI bob. Alkinlar (asetilen uglevodorodlar) .....</b>	<b>48</b>
Laboratoriya ishi .....	52
Savol va mashqlar .....	53
<b>VII bob. Arealar (aromatik uglevodorodlar) .....</b>	<b>53</b>
Ko'p halqali aromatik uglevodorodlar .....	63
Laboratoriya ishlari .....	64
Savol va mashqlar .....	65

VIII bob. Organik maddalarining kimyя manzumasi .....	66
<b>IX bob. Kislorodli organik birikmalar .....</b>	<b>70</b>
Spirtlar .....	70
Ikki atomli spirtlar .....	77
Uch atomli spirtlar .....	78
Fenollar .....	80
Laboratoriya ishlari .....	85
Savol va mashqlar .....	86
<b>X bob. Oddiy efirlar .....</b>	<b>86</b>
<b>XI bob. Aldegid va ketonlar (oksobirikmalar) .....</b>	<b>90</b>
To'yingan aldegid va ketonlar .....	90
Laboratoriya ishlari .....	101
Savol va mashqlar .....	102
<b>XII bob. Karbon kislotalar .....</b>	<b>102</b>
To'yingan monokarbon kislotalar .....	102
Monokarbon kislotalarning angidridlari va galogen angidridlari .....	110
Oksikarbon kislotalar .....	111
Optik izomeriya .....	114
To'yingan dikarbon kislota .....	117
Aromatik kislotalar .....	119
To'yinmagan kislotalar .....	122
Laboratoriya ishlari .....	125
Savol va mashqlar .....	125
<b>XIII bob. Murakkab efirlar. Yog'lar .....</b>	<b>126</b>
Murakkab efirlar .....	126
Yog'lar .....	134
Laboratoriya ishlari .....	137
Savol va mashqlar .....	138
<b>XIV bob. Uglevodlar .....</b>	<b>139</b>
Uglevodlar klassifikatsiyasi .....	139
Monosaxaridlar .....	139
Polisaxaridlar .....	154
Laboratoriya ishlari .....	159
Savol va mashqlar .....	160
<b>XV bob. Azotli organik birikmalar .....</b>	<b>161</b>
Aminlar .....	161
Diaminlar .....	167

Aromatik aminlar .....	168
Kislota amidlari .....	173
Laboratoriya ishlari .....	176
Savol va mashqlar .....	177
<b>XVI bob. Aminokislotalar. Peptid va oqsil moddalar .....</b>	<b>178</b>
Aminokislotalar .....	178
Peptid va oqsil moddalar .....	185
Laboratoriya ishlari .....	188
Savol va mashqlar .....	189
<b>XVII bob. Geterosistik birikmalar .....</b>	<b>190</b>
Alkaloidlar .....	198
Nuklein kislotalar .....	200
<b>XVIII bob. Element - organik birikmalar .....</b>	<b>210</b>
Metall - organik birikmalar .....	210
Kremniyi organik birikmalar .....	213
Fosfor va mishyakli organik birikmalar .....	215
Savol va mashqlar .....	217
<b>XIX bob. Tabiiy va sintetik yuqori molekular birikmalar .....</b>	<b>218</b>
Yuqori molekular birikmalar haqida tushuncha .....	218
Polimerlarning olinishi va tuzilishi .....	219
YMB lar plastmassa sifatida .....	222
YMB lar tolalar sifatida .....	223
YMB lar kauchuk sifatida .....	228
Savol va mashqlar .....	234

**ABDULLATIF ABDUSAMATOV  
RUSTAM MIRZAYEV  
RIHSIVOY ZIYAYEV**

**ORGANIK KIMYO**

*Akademik litsey va kasb-hunar  
kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

6-nashri

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
TOSHKENT-2017*

Muharrir *B. Akbarov*  
Badiiy muharrir *D. Mulla-Axunov*  
Texn. muharrir *S. Nabiyeva*  
Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*  
Musahhih *D. Ismoilova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 161 14.08.2009. Original-maketedan bosishga  
nuxsat etildi 28.11.2014. Bichimi  $60 \times 90'$ , Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi.

O'fact bosma usulida bosildi. Sharhl b.t.  $15,0+0,25$  rangli forzas.

Nashr t.  $9,52+0,48$  rangli forzas. 5000 nusxada bosildi.

Buyurtma № 35-15

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-  
matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod dahasi,  
Yangishahar ko'chasi, 1-uy.  
Sharhnomalar № 07-122-14.

**24.2  
A 15**

**Abdusamatov A.**

**Organik kimyo [Text]: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / A. Abdusamatov, R. Mirzayev, R. Ziyayev. O'zbekiston Respublikasi Olyi va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. 6-nashri. — Toshkent; „O'qituvchi“ NMIU, 2015. 240 b.**

**I. Mirzayev R.**

**II. Ziyayev R.**

**ISBN 978-9943-02-827-2**

**UO'K 547(075)**

**KBK 24.2ya722**

8000